

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

A.R. BAKIYEV, S.N. XASHIMOVA, I.A. BAKIYEVA

ISHLAB CHIQRISHNI TASHKIL QILISH VA IQTISODIYOT

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2010

Taqrizchilar: i.f.d. prof. **Z.Ya.Xudoyberdiyev**,
t.f.n. dots. **F.A.Mirbabayev**

Bakiyev A.R.

B14 Ishlab chiqarishni tashkil qilish va iqtisodiyot.

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma /
A.R. Bakiyev, S.N. Xashimova, I.A. Bakiyeva; O'zR
oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus,
kasb-hunar ta'limi markazi. T.: «IQTISOD-
MOLIYA», 2010. -208 b.

Xashimova S.N., Bakiyeva I.A.

Ushbu o'quv qo'llanmada fanning predmeti va vazifalari va xalq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'rni va ahamiyati, boshqarish va rejalashtirishning ilmiy asoslari, fan texnika taraqqiyoti, xodimlar va mehnatga haq to'lash, asosiy fondlar va aylanma vositalar, mahsulot sifati va raqobatbardoshlik, tannarx hamda foyda va rentabellik kabi masalalar keng o'rin olgan.

O'quv qo'llanma o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining iqtisodiyot sohasi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari uchun mo'ljallangan.

BBK 65.9-80ya722

KIRISH

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda sodir bo‘layotgan tub iqtisodiy islohotlarni bilishni taqozo etadi. Iqtisodiy qonunlarning talablari va amal qilish xususiyatlari o‘rganilmay turib muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni bilishda, fanlar, eng avvalo, bozor iqtisodiyoti asoslari va ishlab chiqarishni tashkil qilish fanining roli o‘ziga boradi. Chunki u jamiyatning bazasini, ishlab chiqarishni zamonaviy tashkil qilish sir-asrorlarini, iqtisodiy qonuniyatlar va kategoriyalarning tub mohiyatlarini ochib beradi.

Hozirgi kunda har bir jamiyat a‘zosining oldida Bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari, uning O‘zbekiston Respublikasida qanday amalga oshirilayotganini, bu qonuniyatlarni ishlab chiqarishga tadbiiq etishni, pirovard natijada talab darajasida xizmat ko‘rsatish va tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishning sirlarini bilib olish kabi vazifalar turibdi.

Ilmiy izlanishning hozirgi davrda bizning respublikamizda iqtisodiyot rivojlanish holati va barcha tarmoqlardagi strukturaviy o‘zgarishlarga mos ravishda olib borilishi iqtisodiyotda bo‘layotgan o‘zgarishlarni muvofiqlashtirishga olib kelmoqda.

Ayniqsa, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangilik kiritish jarayoni bo‘yicha ko‘p muammolar paydo bo‘lmoqda va ularni o‘z vaqtida hal etish uchun kerakli kadr, moddiy texnika bazasi, tashkiliy va uslubiy tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik mexanizmi korxonalarining turli xil mulkdor shakllaridagi muammolarini nafaqat hal etishga, balki ma‘lum holatda qiyin sharoitga tushib

qolishga olib keldi. Masalan, korxonalar yangilik joriy etish jarayonida, xorijdan investitsiyalar jalb etish va raqobatbardosh mahsulot chiqarish borasida hal etilmagan masalalar va vazifalar turibdi.

O'zbekiston Respublikasining kelajakda buyuk davlat bo'lishi ko'p jihatidan hozirgi kunda ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlarga bog'liq. Ularning ongiga hamma xildagi tarbiyani singdirish bilan bir qatorda, iqtisodiy tarbiyani qo'shib olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda iqtisodiy tarbiyaning qo'yidagi muhim vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

— birinchidan, jamiyat har bir a'zosining muqaddas burchi va sharafligi bo'lgan mehnatga ongli va ijodiy munosabatni tarbiyalash;

— ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalarini tezda o'zlashtirib, o'z kundalik ish faoliyatlariga tatbiq etishni shakllantirish;

— uchinchidan, bu tarbiya ishchilarning ijtimoiy tashabbuskorligini rivojlantirishga, ishlab chiqarishni, korxonani boshqarishda ishtirok etishga ko'maklashadi;

— to'rtinchidan, jamiyat a'zolarida o'z kichik bizneslarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni shakllantiradi;

— beshinchidan, eng muhimi, bu tarbiyaning vazifasi barcha ishchi-xizmatchilarda o'z Vatanining mas'uliyatli a'zosi hamda ishlab chiqarish jabhasining xo'jayini tuyg'usini mustahkamlaydi.

Mazkur qo'llanma oldingi o'rganib kelingan siyosiy iqtisod, iqtisodiyot asoslari kabi fanlarga shaklan o'xshasa-da, mazmunan ulardan tubdan farq qiladi. Chunki, unda korxonalarining bozor sharoitidagi huquqiy-tashkiliy tuzilishlari, ularning zamonaviy ishlab chiqarishni qanday tarzda olib borilishining maqsadga muvofiqligi, yangi turdagi xususiy korxonalarni tashkil qilish, mablag'lardan oqilona foydalanish, foydaning taqsimlanishi, mehnatga haq to'lashning yangi shakllari, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari, kichik biznesni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'l-

lab-quvvatlash kabi va bozor iqtisodiyotining boshqa muhim masalalari hozirgi zamon talablari darajasida yoritilgan. Bulardan tashqari savdo-sotiqning zamonaviy usullari haqida — marketing, boshqarishning yangi iqtisodiy usuli — menejment, raqobat-bardosh tovarlar ishlab chiqarish va fan-texnika yutuqlarini hayotga tadbiiq etish orqali jahon bozoriga mos tovar ishlab chiqarish masalalariga ham katta e'tibor berilgan.

1-mavzu. FANNING PREDMETI VA MAZMUNI

1.1. Ishlab chiqarishni tashkil etish va iqtisodiyot fanining predmeti

Jamiyat rivojlanib borgani sari ko'pgina yangi-yangi fanlar «Ishlab chiqarishni tashkil etish» va «Iqtisodiyot» fani sifatida yurtimizga kirib kelmoqda.

Bir qaraganda, u yangi fan sifatida talqin qilinsa-da, aslida rivojlangan mamlakatlarda juda ko'p yillardan buyon o'rganilib, o'rgatilib kelinayotgan fan.

Bozor iqtisodiyotining o'zi, umuman, olganda qandaydir jumboq va yangilik emas. U insoniyatga ming yillar davomida xizmat qilib kelgan, ayniqsa, bozor iqtisodi sharqiy mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekistonda qadimdan ma'lum. Eramizdan avvalgi XI asrdan eramizning XVI asrigacha «Ipak yo'li» nomi bilan mashhur bo'lgan Karvon yo'li Xitoyni O'rta Osiyo, Yevropa bilan bog'lar va O'rta Yer dengiziga olib chiqar edi. Bu yo'l atrofidagi barcha mamlakatlar nafaqat Xitoy ipagi bilan, balki barcha tovarlar bilan ham o'zaro savdo-sotiq qilish orqali, u yoki bu tovarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirganlar.

Karvon yo'llari va savdoda karvonsaroylarning alohida roli bo'lgan. Ular xizmat ko'rsatuvchi kompleks sifatida ma'lum bo'lgan, ya'ni ularning qoshida mehmonxona, oshxona, sartaorshxona kabi xizmat ko'rsatish manbalari bo'lgan, hamda u yerda tovar narxlari, u yoki bu tovarga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq axborotlar o'rganilgan. Tovarlar ayirboshlash, sotish bilan bog'liq bitimlar tuzilgan.

Qisqasi, biz o'sha davrdayoq hozirgi zamon diler, maklerlari, brokerlarini — dallollar, sudxo'rlar, vositachilar qiyofasida ko'rishimiz mumkin. Bularning hammasi bir tomondan bozor iqtisodiyotining biz uchun yangilik emasligini isbotlasada, ikkinchi tomondan uning o'ziga xos hozirgi sharoitga mos qonun-qoidalarini o'rganishimizning zarurligi nuqtayi-nazaridan yangilik sifatida ham qaramo-g'imizni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalarini o'rganish va hayotimizga tadbiiq etish orqaligina, turmush farovonligiga erishishimiz, pirovard natijada jamiyatimiz ravnaqiga hissa qo'shishimiz mumkin. Buning uchun esa, so'zsiz bozor iqtisodiyoti «Ishlab chiqarishni tashkil qilish va iqtisodiyot» fanining ahamiyati kattadir.

Bu fan — umumiiqtisodiy fanlar qatoriga mansub bo'lib, bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunlari majmuasini tahlil qilish orqali uni ishlab chiqarishga tatbiiq etishning zamonaviy usullarini o'rganadi.

Kengroq ma'noda ta'rif beradigan bo'lsak, «Ishlab chiqarishni tashkil qilish va iqtisodiyot» fani bu bozor iqtisodiyotining asosiy qonunlarini o'rganish orqali uni ishlab chiqarishga tadbiiq etish va pirovard natijada ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan qonun-qoidalarning majmuasini o'rganadi.

Yuqorida keltirilgan obyektiv qonunlardan tashqari, bu fanni tatbiiq etish orqali xalq farovonligini oshirish yo'l-yuriqlarini o'rganadi.

Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, u avvalgi siyosiy iqtisod deb yuritilgan, hozirda esa iqtisodiy nazariya deb ataladigan fan bilan,

ishlab chiqarishni tashkil qilish fani bilan, marketing asoslari, menejment asoslari kabi umumiy iqtisodiy fanlar bilan bevosita bog'lab o'rganiladi.

Ahamiyatiga kelsak, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida bu fanni bilmasdan turib, har qanday korxonada va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirib bo'lmazligi sababli jamiyatning rivojlanishiga erishib bo'lmaydi.

1.2. Ishlab chiqarish iqtisodiyoti va uni tashkil etishning asosiy muammolari

Jamiyatning umumiy ehtiyoji jamiyatda yashayotgan kishilarning yakka ehtiyojlaridan iborat ekan umumiy ehtiyojga aholining soni va tarkibi ham ta'sir ko'rsatadi. Keyingi 200 yil ichida yer yuzi aholisi deyarli 5 marta ko'paydi. Bu ehtiyojga ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham ehtiyojni cheksiz deb qarash lozim. Ehtiyojning cheksizligi deganda uning to'xtovsiz yangilanib turishi tushuniladi. Bunday jarayon barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda mavjud bo'lgan. Insoniyat paydo bo'lgandan buyon to shu kungacha faqat ehtiyojning rivojlanib, cheksizlanib borishi kuzatilgan.

Ehtiyojlar zanjirli reaksiya singari birini ketidan birini taqozo etadi. Masalan, avtomobilga bo'lgan ehtiyoj ketidan, uni saqlashga garaj, texnik qarovdan o'tkazish, ta'mirlash, yonilgi bilan ta'minlash, uni boshqarishni o'rganish kabi ehtiyojlar kelib chiqadi.

Iqtisodiyot rivojlanishi bilan ehtiyojlar ham o'sib boradi. Tinmayin yuksalib boradigan cheksiz ehtiyojlarni qondirish esa tiriklik alomatidir. Busiz hayotiy zaruriyat qondirilmaydi, jamiyat rivojlanmaydi.

Ehtiyoj yuksalib borar ekan uni qondirish vositalari ham rivojlanadi. Gap shundaki, ehtiyojlar rivojlangani holda ularni

ta'minlash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish resurslari (tabiiy resurslar, mehnat resurslari, texnika va texnologiya) cheklangan bo'ladi.

Ehtiyoj va resurslarning nomutanosibligi, birining cheksizligi, birining chegaralanganligi (kamyoqligi) ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'la va samarali foydalanishni talab qiladi.

Resurslar deganda, faqat pul tushunilmaydi. Resurslarga yer, suv, yer osti-usti boyliklari, asbob-uskuna, mashina-mexanizmlar, bino-inshootlar va boshqalar, inson resurslari, ya'ni mehnat resurslari, ishbilarmon bo'lish, xo'jalik faoliyatini boshqara bilish qobiliyatlari kiradi.

To'xtovsiz yuksalib boradigan ehtiyojni qondirish uchun kamyob resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Binobarin, har doim cheklangan resurslarni tejamli oqilona ishlatish cheksiz ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib kelgan.

Umumiqtisodiy fanlarni, xususan ishlab chiqarishni tashkil qilish va iqtisodiyot fanini o'rganishning asosiy vazifasi ham ana shundadir.

Nazorat savollari

1. *«Ishlab chiqarishni tashkil qilish va iqtisodiyot» fani nima uchun o'qitiladi?*

2. *«Ishlab chiqarishni tashkil qilish va iqtisodiyot» fanining obyekti deganda nimalarni tushunasiz?*

2-mavzu. KORXONA — ISHLAB CHIQUARISHNING ASOSIY BO‘G‘INI

2.1. Korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti jamiyatni demokratiyalashtirish, iqtisodiyot salohiyatlarini mustahkamlash va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga yo‘naltirilgan, bozor munosabatlariga o‘tishning mamlakatimiz uchun maxsus ishlab chiqilgan modeli asosida rivojlanib bormoqda. Bu model O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyotni islohot qilishning beshta muhim tamoyiliga asoslangan hamda xo‘jalik faoliyati yurituvchi subyektlarning erkinligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni himoya qiluvchi zaruriy qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan.

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinuvchi ushbu vazifalarning amalga oshirilishida korxonalariga roli katta. Ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo‘g‘ini bo‘lish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko‘rsatish tufayli iste’molchilarning talablarini ham qondiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 1991- yil 15- fevralda qabul qilingan «Korxonalar to‘g‘risida» gi qonuniga asosan, *korxonada — yuridik shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo‘jalik faoliyati yurituvchi subyekt bo‘lib, o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste’molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish*

maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.

2009- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida turli xil mulkchilik shakliga ega bo'lgan 468,8 mingta xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt mavjud bo'lib, ulardan 398,5 mingdan ortig'ini kichik korxonalar hamda mikrofirmalar tashkil etadi. Korxonalarining eng katta qismi savdo va umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi, sanoat va qurilish sohalarida ro'yxatga olingan. Jami korxonalar miqdorida nodavlat sektorining salmog'i katta bo'lib, 93 %ni tashkil qiladi.

Har bir mamlakatning sanoat quvvati hamda fan-texnika taraqqiyoti va iqtisodiyotni modernizatsiyalash ko'rsatkichlarini birinchi o'rinda yirik korxonalar belgilab beradi. Shu sababli «kichik» iqtisodiyotni rivojlanish istiqbollaridan kelib chiqqan holda fan va xo'jalik amaliyotining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani iqtisodiyotning har bir tarmog'i va sohasida hal qilishning yo'llari o'xshash bo'lmasligi yoki bir xil tavsifga ega bo'lmasligi mumkin. Har bir alohida yuzaga kelgan iqtisodiy holatda mavjud sharoitlar va rivojlanish afzalliklariga mos holda harakat qilish zarur.

Korxonalar faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar qanchalik yaxshi, samarali va rentabelli ishlasa, milliy iqtisodiyotning ham ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti korxonalar faoliyatini erkinlashtiradi, ularning mustaqilligini mustahkamlaydi hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va rentabellikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishga keng imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblanadi.

Korxonaning milliy iqtisodiyotga qo'shiladigan hissasi aholini ish bilan ta'minlash hisoblansa. Ko'rinib turibdiki, istalgan korxonaning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati

ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, olinadigan foyda yoki daromad miqdoridan tashqari aholini ish bilan ta'minlashdagi ishtirokiga ham bog'liq bo'lib, ishsizlikning kamayishiga, demak, mehnat faolligining ortishi va ijtimoiy ahvolning yaxshilanishiga ham sababchi bo'ladi.

2.2. Korxonaning turlari va shakllari

Korxonalar mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning o'zigagina tegishli bo'lmaydi. Shu sababli korxonalar *mulkchilik shakliga* ko'ra, davlat va nodavlat, *tarmoq belgilariga* ko'ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish majmuasi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo va hokazolar, *ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga* ko'ra, yirik va kichik, *faoliyat yuritish muddatiga* ko'ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalar bo'linadi.

Korxonani turli jihatlariga ko'ra tasniflash mumkin:

— ishlab-chiqarish va texnika munosabatlarida korxonalar — ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;

— ijtimoiy munosabatlarda korxonalar — turli kategoriyadagi xodimlar o'rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar ;

— tashkiliy-huquqiy munosabatlarda korxonalar yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritadi;

— moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxonalar — tarmoqning mustaqil bo'lg'ini bo'lib, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlash, o'z-o'zini boshqarish, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Amaldagi qonunchilikka asosan korxonalar davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina yuridik shaxs sifatida tan olinadi. Davlat ro'yxatidan o'tish uchun quyidagi hujjatlar kerak bo'ladi: ta'rischining arizasi; korxonaning Nizomi; korxonani tashkil qilish haqida qaror yoki ta'rischilar shartnomasi; davlat bojini to'laganlik haqida kvitansiya va boshqalar.

Korxonalar o'ziga xos bo'lgan ma'lum belgilarga ega:

— korxonalar o'ziga tegishli mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyatini moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligini va ishonchliligini ta'minlaydi;

— korxonalar-kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi;

— korxonalar xo'jalik aylanmasida o'z nomidan harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xom ashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;

— korxonalar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat idoralari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

— korxonalar o'z nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

Xo'jalik rivojlanishining har bir bosqichida korxonalar faoliyati quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilishi zarur:

— daromad olish;

— iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan ta'minlash;

— xodimlarni ish haqi bilan ta'minlash;

— korxonaga yaqin joylarda yashovchi aholi uchun ish joylari yaratish;

— atrof-muhitni muhofaza qilish;

— ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida tejamkorlikka rioya qilish.

Korxonalarda quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi:

— ishlab chiqarish va shaxsiy iste'mol uchun mahsulotlarni tayyorlash;

— mahsulotlarni iste'molchilarga sotish va yetkazib berish;

— ishlab chiqarishning moddiy-texnika asosini ta'minlash;

— xodimlar mehnatini tashkil qilish va boshqarish;

— soliqlarni to'lash, byudjetga to'lanuvchi ixtiyoriy yoki majburiy badal va to'lovlarni amalga oshirish ;

— amaldagi standartlar, normativlar va davlat tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga rioya qilish.

2.3. Korxonalarni tasniflash

Har bir korxonada ishlab chiqarayotgan mahsuloti, shuningdek, ishlab chiqarishning tavsifi va miqyosi, joylashishi, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari bilan aloqalari bilan bir-biridan farqlanadi. Biroq ularning barchasi ishlab chiqarishni tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish masalalarini har bir korxonada o'zi uchun hal etadi degani emas, albatta. Alohida korxonalar guruhiga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgan umumiy qarorlarni tayyorlash mumkinligi nazariy va amaliy jihatdan isbotlab berilgan.

Korxonalarining ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkillashtirish masalalarini hal qilish uchun ular tasniflanadi.

Hozirgi vaqtda korxonalar qo'yidagiga tasniflanadi.

Qaysi tarmoqqa qarashliligiga ko'ra korxonalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (mashinasozlik, ko'mir qazib chiqarish, sug'urta va hokazo) sohalariga mansub bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko'rinishiga ko'ra, korxonalar sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, moliya-kredit va boshqalarga bo'linadi.

Texnologik umumiyligiga ko'ra, korxonalar ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz va diskret ravishda, kimyoviy yoki mexanik jarayonlarning ustunligi asosida yurituvchilarga bo'linadi.

Tayyor mahsulotning maqsadlariga ko'ra, barcha korxonalar ikkita katta guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilar va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.

Foydalaniluvchi xom ashyo turiga ko'ra, sanoat korxonalari qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalariga bo'linadi.

Yil davomida ishlash muddatiga ko'ra, korxonalar mavsumiy va yil bo'yi faoliyat yurituvchilarga bo'linadi.

Hajmiga ko'ra, korxonalar yirik va kichik korxonalariga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan ishlab chiqarish tarmog'ida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishi bo'lgan, xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish tarmog'idagi xodimlarning o'rtacha yillik soni 10 kishi bo'lgan hamda ulgurji va chakana savdoda, umumiy ovqatlanish sohasida xodimlarning o'rtacha yillik soni 5 kishi bo'lgan korxonalar **mikrofirmalar** qatoriga kiritiladi. Yengil va oziq-ovqat sanoatida 100 kishi, og'ir sanoatda, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 50 kishi, ilmiy xizmat ko'rsatish, chakana savdo va boshqa noishlab chiqarish sohalarida 25 kishi ishlaydigan korxonalar **kichik korxonalar** hisoblanadi.

Yirik korxonalar qatoriga ishlovchilar soni 500 va undan ortiq ishchi va xodimlarni tashkil qiluvchi korxonalarni kiritish mumkin.

Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlarining natijasida yangi tashkiliy-huquqiy turdagi — qo'shma, ijara, hissadorlik, xususiy, oilaviy, kooperativ va boshqa korxonalarning paydo bo'lishiga olib keldi.

2.4. Korxonada tuzilmasi

Ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqarish bo'linmalari, boshqaruv idoralari va korxonada xodimlariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlardan iborat bo'ladi. Korxonaning tarkibi, tuzilishi korxonada qanchalik yirik bo'lsa, uning ishlab chiqarish tuzilmasi shunchalik murakkab bo'ladi.

Sanoat korxonalarida umumiy va ishlab chiqarish tuzilmalariga ega.

Ishlab chiqarish bo'g'inlari, korxonada boshqaruvi hamda xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ularning miqdori, kattaligi va egallab turgan maydoni, xodimlarining soni va ishlab chiqarish imkoniyatlari *korxonaning umumiy tuzilmasini* ifodalaydi.

Ishlab chiqarish tuzilmasi esa asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish jarayonlarini amalga oshiriluvchi sex va uchastkalardan iborat. Ishlab chiqarish tuzilmasi korxonada umumiy tuzilmasining bir qismidir. U sex, uchastka va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar shaklidagi ishlab chiqarish bo'linmalaridan iborat bo'ladi hamda ularning mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi o'zaro munosabatlarini, mehnat vositalari, mehnat buyumlari va ishchi kuchi o'rni munosabatlarini ifodalaydi.

Asosiy sexlar uning ishlab chiqarish uchastkalarida ishlab chiqarish jarayonining asosiy qismi xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlarni tayyor mahsulotga aylantirish bosqichilari amalga oshiriladi (muzlatkichlar sexi).

Yordamchi sexlar asosiy ishlab chiqarishni asbob-uskunalar va energiya bilan ta'minlaydi hamda uskunalarni ta'mirlash (ta'mirlash, uskunalar, model sexlari va boshqalar) vazifalarini bajaradi.

Xizmat ko'rsatuvchi sex va xo'jaliklar tarkibiga korxonaning infratuzilmasini (ombor va transport bo'linmalari, uy-joy-kommunal xo'jaligi, oshxona, sanatoriy va hokazo)tashkil qiluvchi bo'linmalar kiradi.

Sanoat korxonalari ishlab chiqarish tuzilmasining: texnologik, predmetli va aralash turlari mavjud.

Texnologik tuzilmali korxonalarda sexlar va ishlab chiqarish uchastkalari texnologik jihatdan bir xillik tamoyili asosida tashkil qilinadi (masalan, to'qimachilik kombinatlarida yigiruv va to'quv sexlari).

Predmetli tuzilmaga asoslangan korxonalarda har bir sex ma'lum bir mahsulot yoki uning bir qismini ishlab chiqaradi (masalan, avtomobil zavodida motor sexi).

Aralash (predmetli-texnologik) tuzilma tayyorlov sexlarini texnologik tamoyilda (temirchilik, cho'yan quyish, po'lat quyish va hokazo), ishlov berish va mahsulot chiqarish sexlarini esa predmetli tamoyil asosida tashkil etishni ko'zda tutadi.

Sanoat korxonasining tuzilmasi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi:

- texnika va texnologiyaning xususiyatlari;
- ishlab chiqarish hajmi;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari (ixtisoslashtirish, kooperatsiya, kombinatsiya, koordinatsiya);

— ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning murakkabligi va nomenklaturasi;

— ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, mexanizatsiya-lashtirish va robotlashtirish darajasi;

— mulk shakli;

— raqobat olib borish usullari hamda shakllari va hokazo.

Amaliyotda ishlab chiqarish tuzilmasini mukammallashtirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. Ular qatoriga korxonalar va sexlarni yiriklashtirish; alohida korxonalar integratsiyasi; korxonalar ichidagi barcha bo‘linmalar orasida mutanosiblikni ta‘minlash; seksiz tuzilma kabilarni kiritish mumkin.

Korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, ya‘ni boshqaruv sifatini ko‘tarish va ishlab chiqarish faoliyatidagi yakuniy natijalarning yuqoriligiga erishish korxonalar tuzilmasini mukammallashtirish samaradorligini baholovchi mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Nazorat savollari

- 1. Korxonalar to‘g‘risidagi qonunning mohiyati nimada?*
- 2. Korxonalar qanday turlari mavjud?*
- 3. Korxonalar qanday belgilarga qarab tasniflanadi?*
- 4. Yirik korxonalarda qancha ishchi xodimlar ishlaydi?*

3-mavzu. ISHLAB CHIQRISH JARAYONI VA UNING TARKIBI

3.1. Ishlab chiqarish jarayoni va uning tarkibi

Ishlab chiqarish jarayoni — korxonaning murakkab va ko‘p qirrali faoliyati asosida tashkil topgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi dastlabki xom ashyoni tayyor mahsulotga aylantirishdir. ***Ishlab chiqarish jarayoni — mehnat vositasi ishlab chiqarish quroli va jonli mehnat harakati yig‘indisidan iborat bo‘ladi.*** Xom ashyoning tayyor mahsulotga aylanishida hamma jarayonlarning roli bir xil bo‘lmaydi. Ba’zi jarayonlar xom ashyoning (masalan, pivo pishirish jarayonida pishiruvchi qozonlar yoki konserva zavodida pasterilizatsiya jarayonlari) tayyor mahsulotga aylanishida bevosita qatnashadi. Shunday jarayonlarning yig‘indisi asosiy ishlab chiqarishni tashkil etadi. Ayrimlari esa xom ashyoning tayyor mahsulotga aylanishida kerakli imkoniyat yaratadi. Bular korxonaga zarur materiallar yetkazib berish, dastgohlarni tuzatish, elektr quvvati bilan ta’minlash, tayyor mahsulotlarni jo‘natish kabi yordamchi jarayonlar yig‘indisidan iborat. Bu jarayonlar yig‘indisi ***yordamchi ishlab chiqarish jarayoni*** deb ataladi.

Ishlab chiqarish jarayonining ayrim elementlari bo‘yicha tarkibi ***ishlab chiqarish strukturasi*** deyiladi.

Asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlari va qisman mehnat jarayonlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq tarzda yo‘lga qo‘yilgan holda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish

natijasida korxonada yuqori darajadagi samaradorlik ko'rsatkichlariga erishadi. Shuni aytish kerakki, asosiy ishlab chiqarish jarayonlarida, ayrim uchastkalarining ishlab chiqarish unumdorligining bir-biriga nomutanosibligi, ishchilarning noto'g'ri joylashtirilishi, dastgohlar kompanovkasining buzilishi, texnologiya tuzumiga e'tibor bermaslik, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilmaslik natijasida yordamchi ishlab chiqarish jarayoni yuqori darajada tashkil etilmasligi kabi holatlar korxonada texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarining yig'indisi qisman mehnat jarayonlaridan iborat bo'lib, ularni turkumlashda oqilona variantlardan foydalanib, to'g'ri loyihalash talab etiladi. Ishlab chiqarish jarayonida texnologik jarayonning ayrim chizma bo'laklarga taqsimlanishi xolislikni talab qiladi, chunki ularda doimiy alomatlar saqlanib qolishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoni ish kuni, mehnat buyumi va mehnat vositasining doimiyligi natijasida paydo bo'ladi. Agar ulardan qaysi biri o'zining harakati va sifati jihatidan o'zgarsa, yangi ishlab chiqarish jarayoni paydo bo'ladi (ishchi — ish qurolini yoki xom ashyoni o'zgartirsa, albatta yangi mahsulot, yangi mehnat paydo bo'ladi).

Bir xil ish joyida bir yoki bir necha ishchilar turli xil jarayonni boshqarishi mumkin. Bu esa qisman mehnat jarayonini tashkil qiladi.

3.2. Ishlab chiqarish jarayonining tasnifi

Mehnatning ish qurollari bilan ta'minlanganligi va unda insonning ishtirok etishiga qarab, u mexanizatsiyalashmagan, qisman mexanizatsiyalashgan, mashinalashgan jarayonlarga bo'linadi.


Mexanizatsiyalashmagan jarayonlar mexanizmlarsiz, hech qanday energiya turidan foydalanmay amalga oshiriladi. Ular mehnat buyumining holatini yoki ularning shaklini o'zgartirishga yo'naltirilgan bo'lib, qo'lda foydalaniladigan asboblarda yordamida bajariladi. Konchilik korxonalarining asosiy ishlab chiqarishida mexanizatsiyalashmagan jarayonlar kam uchraydi. Biroq, ishlab chiqarishning yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi bo'g'inlarida qo'l mehnati hali anchagina.

Qisman mexanizatsiyalashgan jarayonlarda ishlar mashinalar yoki mexanizatsiyalashgan asboblarda yordamida bajariladi: ularni boshqarish esa insonning qo'l mehnatini talab etadi.

Mashinalashgan jarayonlarda mehnat quroli bo'lib mashinalar xizmat qiladi: ishchi esa bevosita ish joyidan yoki uzoqdan turib uning harakatini muayyan maqsadga yo'naltiradi. Hozirgi vaqtda konchilik korxonalarining deyarli barcha asosiy jarayonlari mashinalashgan.

Ishlab chiqarish jarayonining tuzilishi (strukturasi). Har bir ishlab chiqarish jarayoni o'zining tuzilish xususiyatiga ega. U quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linishi mumkin (1-chizma). Texnologik mazmuniga ko'ra u ishlab chiqarish bosqichlariga, ish jarayonlari majmuyiga, ish jarayonlariga va operatsiyalarga bo'linadi.

Ishlab chiqarish bosqichi – bu foydali ishlab chiqarish jarayonining texnik, texnologik tashkiliy jihatdan ajralgan qismidir. U o'zaro bog'liq bo'lgan va ma'lum tartibda ketma-ket keluvchi ish jarayonlari majmuyini o'z ichiga oladi. Ruda qazib chiqaruvchi konchilik korxonalarida ishlab chiqarishi quyidagi bosqichlaridan konni ochish, qazib chiqarishga tayyorlash, qazib chiqarish, foydali qazilmani boyitish, tayyor mahsulotni iste'molchiga yuklab jo'natishdan



1-chizma. Ishlab chiqarish jarayonining tuzilishi.

iborat bo‘ladi. Bular bir vaqtning o‘zida ketma-ket bajarilishi mumkin.

Ish jarayonlari majmuyi – ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy va texnologik jihatdan ajralgan qismi bo‘lib, maxsus texnologik mazmun bilan ifodalanadi va uni bajarish uchun

maxsus ishlab chiqarish vositalari hamda ma'lum kasbdagi ishchilar zarur bo'ladi.

Ish jarayoni — ish jarayoni majmuyining aniq chegaralangan va o'zining tashkiliy tuzilishi (strukturasi) hamda texnologik mazmuniga ko'ra farqlanuvchi bir qismi bo'lib, u aniq texnologik mazmun, mehnat buyumlari, qo'llaniladigan mehnat vositalari bilan ifodalaniladi. Har bir ish jarayoni o'zining texnologiya va texnikasiga, tuzilishi va maqsadiga ega bo'ladi: shular orqali u boshqa ish jarayonlaridan farq qiladi.

Ish jarayoni muayyan ish joyida bir yoki guruh ijrochilar tomonidan bitta yoki bir nechta mehnat qurollari yordamida amalga oshiriladi.

Bajarilish usuliga qarab ish jarayonlari mashinalashgan, qisman mexanizatsiyalashgan va mexanizatsiyalashgan turlarga bo'linadi.

Operatsiya — ish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, u bir ish joyida yakunlangan texnologik jarayonning tugallangan bo'lagidir.

Operatsiyani yakka ijrochi yoki bir guruh ijrochi bajarishi mumkin. Har qanday ish jarayoni tarkibiga kiruvchi operatsiyalarning o'zlarining vazifaliriga ko'ra quyidagi operatsiyalari bor:

1. **Tayyorgarlik operatsiyasi** (smenani qabul qilish, ish joyini ko'zdan kechirish, xavfsiz holatga keltirish, uskunalarni ishga tayyorlashdan iborat).

2. **Asosiy operatsiya** (mahsulot ishlab chiqarish yoki ish jarayoniga tegishli ishni bajarish).

3. **Yordamchi operatsiya** (bular asosiy operatsiyalarning bajarilishiga sharoit tug'diradi).

4. **Yakunlovchi operatsiya** (ishni oxiriga yetkazish, mehnat qurollari va ish joyini tartibga keltirishdan iboratdir).

Ish jarayonida bajariladigan asosiy operatsiyalarning soniga qarab, bitta asosiy operatsiya bajariladigan bo'lsa —

«oddiy operatsiya», ikki yoki undan ko‘proq operatsiyalar bajariladigan bo‘lsa «murakkab operatsiya»lar deyiladi.

Operatsiyalar o‘z navbatida bir ijrochi tomonidan bajariladigan usullar va harakatlarga bo‘linadi.

Usul operatsiyaning bir qismi bo‘lib, ijrochining muayyan maqsadni ko‘zlab, uni bajarish uchun yakunlangan harakatidan (masalan: mashinani ishga tushirish, dastasini «yurish» holatiga keltirish) iborat.

Harakat – biror buyumni olish joyini o‘zgartirish, qo‘yib yuborish kabi ishlarni bajarish hisoblanib, usulning bir qismidir. U ish jarayonining parchalanmaydigan bo‘lagi bo‘lganligi uchun harakat yordamida operatsiyalarni, ish jarayonlarini bajarish vaqti va mehnat sarfi me‘yorini aniqlashi mumkin.

Operatsiyalarning usul va harakatlarga bo‘linishi, ishchi kuchini oqilona joylashtirish, ishchi malakasi va sonini to‘g‘ri aniqlash va mehnat unumdorligi zahiralarni oshirish uchun kerak.

Nazorat savollari

- 1. «Ishlab chiqarish jarayoni» tushunchasi va tuzilishining ta’rifi.*
- 2. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish samaradorligiga ta’sir etuvchi omil — «vaqt» ahamiyati.*
- 3. «Ish jarayoni» tushunchasining ta’rifi.*
- 4. Asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlari mohiyati.*
- 5. Ish jarayonining operatsiyaga bo‘linishi va uning mazmuni.*
- 6. «Ishlab chiqarish operatsiyasi» tushunchasining ta’rifi.*
- 7. Ishlab chiqarish operatsiyasi turlari.*
- 8. Ish jarayonining usullar va harakatlarga bo‘linish sabablari.*
- 9. Mehnat jarayoni va uning mehnat unumdorligini oshirishdagi ahamiyati.*

4-mavzu. KORXONANI AXBOROT BILAN TA'MINLASH

4.1. Axborotlar va ularning turlari

Ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini boshqarish jarayonini tezkor va yetuk axborotlarsiz tasavvur qilish qiyin. Axborotlar boshqaruv negizi hisoblanadi va boshqarishning sifati ularning zamonaviyligiga bevosita bog'liq.

Amalda boshqaruvchi tizim boshqariluvchi tizimdan ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati jarayonida berilgan texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarga oid axborotlarni olib turadi. Zarurat tug'ilganda olingan axborotlar asosida boshqaruvchi tizimi boshqaruv uchun kerak buyruqlar tayyorlanadi va uni bajarish uchun boshqariluvchi tizimga uzatadi.

Murakkab va ko'p qirrali korxonalar xo'jaligini boshqarish katta hajmdagi birlamchi axborotlarni ko'rib chiqishni talab qiladi. Ularga quyidagilar kiradi: statistik, operativ hisobot, reja-iqtisodiy, buxgalterlik, moliyaviy, moddiy-texnika ta'minoti; kapital qurilish; texnologik; konstruktorlik va boshqalar.

Axborotlar kelib chiqish manbalariga ko'ra tashqi va ichki axborotga ajratiladi.

Tashqi muomalalardan kelib chiquvchi axborotlar tashqi axborot hisoblanadi. Uning tarkibiga ishlab chiqarileytgan mahsulotga bo'lgan talablar, texnika taraqqiyotiga oid axborotlar, ilg'or korxonalar ish tajribalari va shu kabilar kiradi.

Ichki axborotga ishlab chiqarish jarayoniga oid, reja topshiriqlarining bajarilishi, sex va uchastkalarining

ishlariga, mahsulotniig sotiliish ia tannarxini kamaytirishga oid axborotlar kiradi.

Axborotlar, boshqaruv jarayoniga o‘xshab, o‘zining hajmi, tarkibi va kelib tushgan vaqti bo‘yicha boshqaruv darajasiga bevosita bog‘liq. Bu daraja qanchalik yuqori bo‘lsa, axborot uchun zarurat shunchalik ko‘payib boradi.

Axborotlar shartli o‘zgarimaydigan va o‘zgaruvchan turlarga bo‘linadi. Shartli o‘zgarimaydigan axborotlar tarkibiga nisbatan kam o‘zgaruvchi axborotlar kiradi. Bular barcha turdagi me‘yorlar, qiymatlar, reja ko‘rsatkichlari va boshqalardir. Bundan axborotlar boshqaruv uchun zarur bo‘lgan axborotlarning 60—70 foizini tashkil qiladi.

O‘zgaruvchan axborotlar murakkab va muhim axborotlardir. Bu turdagi axborotlar ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati jarayonining o‘zgarishini aks ettiradi. Bunday axborotlarni to‘plash va ularga ishlov berish ancha murakkab jarayondir. Ishlov berishda iloji boricha chaqqonlik zarur, aks holda bunday axborotlar o‘zining muhim va kerakli ahamiyatini yo‘qotishi mumkin.

Boshqaruv amaliyotida ikkilamchi axborotlardan ham foydalaniladi. Bunday axborotlar shartli o‘zarmaydigan va o‘zgaruvchan axborotlarga berilgan dastur asosida ishlov berilmasligi natijasida yuzaga keladi va ular boshqaruv jarayoni hamda qarorlar qabul qilish uchun ancha yetuk va muhim axborot hisoblanadi.

4.2. Axborot tizimi

Korxonaning boshqarish uchun zarur bo‘lgan barcha turdagi axborotlar majmuyi axborot tizimini vujudga keltiradi. Boshqaruv va axborot tizimlari boshqaruvning har qanday bosqichdan bir butun bo‘lib mexanizatsiya-

lashgan va avtomatlashgan qurilmalar yordamida o'zgartirishlarga erishadi.

Bu tizim avtomatlashgan nazoratni ta'minlaydi, ba'zida korxonaning ishlab chiqarish faoliyati ustidan oddiy boshqaruv jarayonini amalga oshiradi.

1. Axborot-malumotnoma tizimi. Bu kuch bilan bajariladigan nazorat uchun ba'zi bir ma'lumotlarni berish bilan cheklanadi.

2. Kuzatuvchi axborot tizimi. Bu tizim avtomatlashgai nazorat va boshqaruvni ta'minlaydi.

Bu ikkala axborot tizimlari, asosan, texnologik jarayonga tegishli axborotlarni qayta ishlash uchun ishlatiladi.

Birlamchi o'zgaruvchan axborotni shakllantirish quyidagicha: qo'lda bajarish usuli, o'zi yozuvchi qurilmalar, mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan vositalar ishlatilishi yordamida amalga oshiriladi.

So'nggi davrda har xil turdagi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi qurilmalar yaratilmoqda va ishlatilmoqda. Chunonchi, periferiy hisobga olish qurilmalari axborotlarni ularning yaratilgan joylarida qabul qilib oladilar, ro'yxatdan o'tkazadilar va korxonaning hisoblash markaziga, hisoblash mashinalariga kiritish va ishlov berish uchun beradilar. Shu kabi tashkiliy texnika vositalarining korxonalarda ko'payishi axborotni va uning asosida boshqaruvni takomillashtirish unun alohida ahamiyatga ega.

Korxonalarda paydo bo'layotgan hisoblash texnikasni periferiy texnikasisiz hisobga oluvchi, ko'chirib yochuvchi vositalarsiz ishlatishni iqtisod nuqtayi nazaridan samarasiz va kutilgan foydani bermaydi.

Axborot jamlash tizimini uning barcha ro'yxatga olish shakllari bilan, dispetcherlik xizmati bilan qo'shib olib borish yaxshi samara beradi.

Nazorat savollari

- 1. Korxonada faoliyatida axborotlar qanday ahamiyatga ega?*
- 2. Axborotlar qanday turlari mavjud?*
- 3. Axborot tizimi qanday shakllanadi?*

5-mavzu. KORXONADA BOSHQARISH VA MEHNATNI TASHKIL ETISH

5.1. Korxonada boshqaruvning asoslari

Xalq xo'jaligidagi barcha korxonalarining ish tajribasi ko'rsatadiki, ular bir xil moddiy va mehnat resurslariga ega bo'lsa ham, ular ishining muvaffaqiyatlari rahbarning boshqaruv uslubiga bog'liq bo'ladi.

Korxonada ishning maqsadga muvofiq uyushtirilganligi, ijrochilarning mehnatga ijodiy yondoshishi korxonada boshqaruvning ijodiy uslubi mavjudligini ko'rsatadi. Bunday korxonalarda resurslar yetarli bo'lmagan hollarda ham yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishiladi. Aksincha, mehnatni ilmiy tashkil etishga ma'sulyatsizlik bilan qaralgan, boshqaruvga quruq uslubda yondoshilgan, ijrochilarning ishga ijodiy yondoshishiga imkon yaratilmagan korxonalarda, rahbarning ixtiyorida zamonaviy texnika va yetarli resurslar bo'lishiga qaramay, ishlab chiqarish natijalari maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Boshqaruv uslubi — bu boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish usullari yoki yo'llari majmuasidir.

Rahbarning ish uslubi jamoadagi, xulq-atvori, ma'lum darajada jamoadagi psixologik sharoitga ta'sir ko'rsatadi.

Rahbar boshqarish obyektiga tegishli texnikani, texnologiyani, uning iqtisodini, boshqaruv apparati mehnatining mazmunini va tavsifini yaxshi bilishi talab etiladi. Bunda

rahbarning shaxsiy ish uslubi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Rahbarning shaxsiy ish uslubi — boshqaruv jarayonida u yoki bu masalalarni hal qilish uchun maxsus individual bo'lib, insonning shaxsiy hislati, uning xarakteri bilan bog'liq bo'ladi. Boshqarishning mohiyati jamoa oldiga qo'yilgan vazifalarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ahil jamoani yaratishdir. Jamoaning har bir a'zosi o'z fikrining inobatga olinishini va ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining muhim vazifalarini hal qilishda faol ishtirok etishini his qila bilishi kerak. Shuningdek, muhim qarorlarni qabul qilishda jamoa va uning a'zolarining fikrini inobatga olish kamchiliklarni bartaraf etishga imkon beradi. Jamoani kengash asosida boshqarishning boshqa tomoni qabul kilingan qarorlarni amalga oshirishda xodimlarning faolligini oshirishdan iboratdir.

Xo'jalik rahbarlarining ish uslubi xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Xo'jalik ishlaridagi kamchiliklarga murosasiz bo'lish. Bunda asosiy maqsad jamoada sog'lom muhitni yaratish;

Jamoa va uning har qaysi xodimi to'g'risida g'amxo'rlik qilish. Rahbar o'zining bo'limida faqat boshliq bo'libgina qolmay, u kishilarninig tarbiyachisi hamdir. Shuning uchun rahbarlar xo'jalik va tarbiyaviy ishlarni bir-biri bilan uzviy bog'lagan holda olib borishlari zarur.

Yuqori madaniyatli boshqaruv. Rahbarlarning o'z qo'l ostidagi xodimlari bilan munosabatda bo'lganlarida uning ahloq-odob va huquq normalariga rioya qilishi yuqori madaniyatli boshqaruvni yuzaga keltiradi. Rahbar o'zining kamtarligi, xushmuomalaligi, rostgo'yligi, o'zining va boshqalarning vaqtini tejay bilishi, kishi-larning mansabi va amalidan qat'i nazar, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishi bilan ajralib turishi kerak.

Rahbarning yangilikni his etishi. Yangilikni his eta bilish bu kelajakda rivojlanishni ko‘ra bilish, vujudga kelgan masalalarni to‘g‘ri hal qilish yo‘llarini topa bilish demakdir.

5.2. Boshqarishni tashkil qilishning subyektlari va obyektlari

Har qaysi xo‘jalik va ishlab chiqarish negizi boshqariladigan obyekt va boshqaruvchi subyekt tushunchalaridan tashkil topgan bo‘ladi. Masalan, korxonada boshqaruvchi tizimchaga korxonaning direktori va unga bo‘ysunuvchi butun boshqaruv apparat kiradi. Boshqariladigan tizimchaga esa korxonadagi sexlar yoki uchastkalar kiradi. Sexda boshqaruv tizimchasga sex boshlig‘i va unga bo‘ysunuvchi barcha boshqaruv apparati kiradi. Sexdagi uchastkalar boshqariladigan tizimchani tashkil qiladi. Uchastkalardagi tizimchaga uchastkaning rahbarlari kiradi, boshqariladigan tizimchaga ishchilarning ish joylari kiradi. Boshqariladigan va boshqaruvchi tizimchalar o‘rtasidagi aloqa odamlarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlaridan iborat. Ish joylarida ham boshqarish mavjud bo‘lib, u boshqa ko‘rinishda amalga oshiriladi. Bunday boshqarish mehnat vositalarini, ya‘ni buyumni boshqarish deyiladi.

Zamonaviy ishlab chiqarishda asosiy qurol mashina hisoblanadi. «Inson— mashina» tizimida inson boshqaruv subyekti sifatida chiqadi, mashina esa uning obyekti bo‘ladi. Bunda inson mashinaning ishlashi to‘g‘risida yoki asboblardan yordamida axborot oladi, zarur qarorlarni qabul qiladi, ularni amalga oshiradi.

Bu boshqaruv funksiyasini maxsus shaxslar guruxi amalga oshiradi. Ular boshqaruv apparati deb ataladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish ikki turdagi boshqarish tashkil qiladi:

- a) mehnat vositalarini boshqarish;
- b) ishchi va xodimlarni boshqarish.

Mehnat vositalarini boshqarish jarayonida ishchilar moddiy boylik olish maqsadida mehnat buyumlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu boshqariladigan tizimchani ifodalaydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, ishlab chiqarishni boshqarish boshqaruv tizimchasi bo'lib, unga faqat ishchi xodimlarni boshqarishni kiritish mumkin.

Moddiy boylik olish uchun mehnat buyumlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ishchilar ikki turda: boshqaruvchi tizimda boshqarishning obyekti (odamlarni boshqarish) va boshqariladigan tuzilmada boshqarishning subyekti (buyumni boshqarish) sifatida ishtirok etadi. Shunday qilib, ishlab chiqarishni boshqarish — ishchilarni boshqarishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida, mehnat vositalarini boshqaradi. Odamlarni boshqarish ishlab chiqarishda ularning munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatishdir. Masalan, har bir korxonada asosiy va yordamchi sexlar o'rtasida, har bir sexda uchastkalararo o'z navbatida har qaysi uchastka yoki brigadalarning ishchilari o'rtasida ishlab chiqarish aloqalari munosabatlari mavjud bo'ladi.

Shuningdek, korxonalar boshqa korxonalar bilan mahsulot sotish, ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash borasida ham ishlab chiqarish aloqalarini o'rnatadi. Bu munosabatlar kooperatsiyasi va mehnatni ixtisoslashtirishi darajasiga bog'liq.

Yuqorida aytilgan fikrlarni yakunlab, ishlab chiqarishni boshqarish tabiat va jamiyat taraqqiyotning qonunlarini ongli ravishda qo'llashiga asoslangan bo'lib, ishlab chiqarishni

birlashtirish maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Birlashma boshqaruv apparatining tashkiliy tuzilishi vazifasiga, birlashma tasarrufiga kiradigan korxonalar tashkilotlarning bir-biriga joylashish masofasiga va ularning xo'jalik mustaqillik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Birlashmaning tashkiliy tuzilishini uning bosh yetakchi tuzim negizida tashkil etish iqtisodiy jihatdan samarali va maqsadga muvofiqdir. Bunday yetakchi tuzim birligi ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy ishlab chiqarish oligohlari yoki tajriba konstruktorlik bo'limlari, ishlab chiqarish birlashmalarida esa uning bosh korxonasi bo'lishi mumkin.

Birlashma o'z tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar filial yoki ixtisoslashgan ishlab chiqarish birliklariga aylantirishi mumkin. Bunda ularning xo'jalik mustaqilligi birlashma tomonidan chegaralab qo'yiladi. Yangi tashkil etilgan filiallarni ishlab chiqarish rahbarlari boshqaradi. Bunday usulda tashkil qilingan birlashmada apparat yetakchi birlik rolini o'ynaydi. Bu esa boshqaruv xodimlarining sonini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi. Ularda ishlab chiqarishni tezkor boshqarish uchun zarur funksional apparatlar bo'ladi.

Birlashmani yakkaboshchilik asosida bosh direktor boshqaradi. U birlashma faoliyatining barcha sohalariga va davlat rejalarning bajarilishiga shaxsan javobgardir. Bosh direktor birlashma nomidan ish yuritadi. Birlashmaning mol-mulkiga egalik qiladi, shartnomalar tuzadi, birlashma va uning bo'linmalari ishini muvofiqlashtiruvchi hujjatlarni tasdiqlaydi. Unga ishlab chiqarish birliklarini, xo'jalik mustaqillik chegarasini belgilash huquqi berilgan bo'ladi. Bosh direktor huzurida maslahat qilish huquqiga ega bo'lgan

birlashma kengashi tuziladi. Uning tarkibiga bosh direktorning o‘rinbosarlari, ishlab chiqarish rahbarlari va jamoat tashkilotlariniig faol vakillari kiradi. Mazkur kengash birlashmada ishning qanday bajarilayotganligani tekshiradi, tahlil qiladi, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish uchun zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va nazorat qiladi. Bosh direktorga uning o‘rinbosarlariga ba’zi bir funksional bo‘limlarning rahbarlari bo‘ysunadi. Birlashmada bosh dirsktor o‘rinbosarlari boshqaruvining ma’lum bir vazifasiga ko‘ra muayyan bo‘lim va xizmatlarga rahbarlik qiladi va uning ish natijalariga shaxsan javob beradi. Bosh direktorniig birinchi muovini birlashmaning bosh muhandisi hisoblanadi. U birlashmaning texnik jihatdan rivojlanishini boshqaradi va birlashmaning barcha ilmiy va ishlab chiqarish texnik masalalari bilan shug‘ullanadi.

Qarorlarni tanlash va ularni uzil-kesil qabul qilish. Bu rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi. Qarorlar sex boshlig‘i, usta tomonidan yakkaboshchilik asosida oshkora usulda qabul qilinishi mumkin. Odatda, yakkaboshchilik ko‘pchilik fikri bilan qo‘shib olib boriladi. Shu bilan birga ishlab chiqarishda har xil kengash, maslahatlar bo‘lib turadi. Mehnat jamoasi kengashi, kasaba birlashmalari, yoshlar uyushmasi va boshqa jamoa tashkilotlari qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda o‘zlarining xissalarini qo‘shadilar. Taklif etilgan masalalarni tahlil va ularni birgalikda muhokama qilib chiqqandan so‘ng, sex boshlig‘i: buyruq, rejalarini tasdiqlab boshqa qarorlarni uzil-kesil qabul qiladi.

Boshqaruv qarorlarini bajarish korxonalarining rejalarini va uning asosida tuzilgan sex, uchastka, brigada, smena va boshqa ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishdir. Korxonalar rejalarini boshqarishga rahbarlik qilish sex, uchastka boshqaruv apparati muayyan masalalar bo‘yicha ishlab chiqarish

jarayonini boshqarishdan iborat. Bunda har qaysi bo‘linma o‘zining vazifalarini bajarish bilan band bo‘ladi.

Demak, yagona boshqaruv tizimi harakatga keltirilib barcha boshqaruv bo‘linmalari bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatib, davlat rejasinnig bajarilishi taminlaydi. Rejalarni boshqarishda ko‘p masalalar zudlik bilan hal qilinadi. Bunday masalalar rahbar ishtirokisiz yechilsa, unda boshqaruv tizimi maqsadga muvofiq yaratilgan bo‘ladi. Buning uchun har qaysi xodimning ish joyi, shuningdek, boshqaruv jarayonida ularning roli, vazifasi, javobgarligi aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Shundagina rahbarlarga o‘z ishini boshqa rahbar xodimlar aralashmagan holda mustaqil ravishda yechishga imkon yaratilgan bo‘ladi.

Rahbarning asosiy vazifasi boshqaruv tizimini maqsadga muvofiq uyushtirishdan, unga ishlab chiqarishningg asosiy muammolari bilan shug‘ullanishga imkon yaratishdan iborat. Bunday tizim quyidagicha uyushtiriladi.

Har qaysi boshqaruv bo‘linmalariga asosiy masalalar birlashtiriladi. Bu masalalar ilmiy asoslangan, aniq ifodalangan bo‘lib, bo‘linmaning nizom-qoidasiga yozib qo‘yiladi.

Yangi boshqaruv bo‘linmalari tuzilgan taqdirda ular uchun zarur qonun asoslari ishlab chiqiladi. Bu hujjatda muayyan bo‘linmaning asosiy masalalari, huquqiy, vazifalaridan tashqari uning shtat jadvali ma’muriy rahbar (sex, bo‘lim) boshliqlari ko‘rsatilgan bo‘ladi. Shundan qilib, har qaysi boshqariladigan bo‘lim yaxlit uyushtirilgan bo‘lib, uni bitta rahbar boshqaradi.

Boshqariladigan bo‘lim xodimlari o‘rtasidagi vazifa va javobgarlik shunday taqsimlanishi kerakki, bu ularda ko‘proq mustaqillik va tashabbuskorlikni namoyon qilishni ta’minlashi kerak.

Har qaysi xodimga umumiy ish hajmidan aniq bir qismi birlashtiriladi. Ular shu ishning bajarilishiga javobgar bo'ladilar. Odatda, har qaysi xodimga vazifa, huquq va javobgarlik yozma ravishda berilgan bo'ladi. Bu ishlab chiqarishda xodimlarning bir-birining ishiga aralashishiga yo'l qo'ymaydi. Rahbar faqat o'z qo'l ostidagilarga buyruq beradi. Boshqalarga esa buyruq faqat ularning bevosita rahbari tomonidan berilishi kerak. Masalan, sex boshlig'i sexdagi xohlagan ishlab chiqarish guruhida ishlovchi ishchiga rasmiy buyruq berishi mumkin, lekin bu noto'g'ri, qoidaga zid bo'ladi. Agar sex boshlig'i ishchiga uning bevosita rahbari usta orqali buyruq bersa, unda u to'g'ri va qoidaga muvofiq bo'ladi. Ishchi har doim topshiriqni o'zining ustasidan olishi kerak. Ba'zan rahbarlarning o'rtasida bir-birining ishiga aralashish hollari ro'y beradi. Bu ular orasida ma'lum norozilikni keltirib chiqaradi. Bu esa jamoaning uyushqoqligiga, intizomiga va boshqalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ma'muriy va funksional munosabatlar mansab yo'riqnomasi orqali tartibga solinadi.

Odatda, nizomda ma'lum lavozim qaysi bo'lim tarkibiga kirishi, u kimga va unga kimlar bo'ysunishi, shu rahbar xodim hal qiladigan masalalar uchun javobgarlik ko'rsatilgan bo'ladi. Boshqa xodimlar bilan funksional bog'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

Xodim qanday ma'lumotlarni qaysi paytda kimga, shuningdek, kim qaysi paytda va qanday ma'lumotlarni xodimga berishi kerak.

Boshqaruv ta'sirchan bo'lishi uchun nizom va qoidalar sharoitga qarab qayta ishlab chiqilishi lozim. Boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishning muhim omili

mehnatkashlar tashabbusini va ishlab chiqarishda qatnashish faolligini ko‘tarishdir.

Nazorat savollari

- 1. Ishlab chiqarish qanday boshqariladi?*
- 2. Boshqaruv jarayoni qanday tashkil etiladi?*
- 3. Korxonani bosqarishda mehnat jamoasining o‘rni nimadan iborat?*

**6-mavzu. ILMIY TEXNIK TARAQQIYOT,
TEXNIKAVIY TAYYORGARLIK VA ISHLAB
CHIQRISHGA XIZMAT KO‘RSATISH**

**6.1. Ilmiy-texnik taraqqiyot — ishlab chiqarishni
rivojlantirish va jadallashtirishning asosi**

Fan-texnika taraqqiyoti fan va texnikaning muttasil va o‘zaro bog‘liq holda rivojlanishidir. Talab va ehtiyojlarning o‘sishi ta’sirida fan-texnika taraqqiyoti jadallashishida tabiiy resurslarni insonga xizmat qildirish, ishlab chiqarishda zarur ma’lumotlarni aniq maqsadni ko‘zlab qo‘llash imkonini beradi.

Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish tufayli:

- Mehnat unumdorligani oshirishga erishiladi;
- Asbob-uskunalardan, xom ashyolardan oqilona foydalanish zarurati tufayli yangi texnologiyaning vujudga kelishini ta’minlaydi;
- Ishlab chiqarishni samarali tashkil qilish imkoniyatlarini yaratadi;
- Texnika taraqqiyoti mutaxassislarni kasbiy mahoratini o‘zgartib, yangi kasblar vujudga kelishini ta’minlaydi;

Fan texnika taraqqiyoti o‘zaro bir-birini taqozo etadigan ikki shaklda amalga oshiriladi:

- 1) fan va texnikaning an’anaviy negizlarini nisbatan sekinroq va qisman takomillashtirish orqali, ya’ni evolyusion shakl;
- 2) yangi texnika va texnologiyani vujudga keltiradigan, jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarini tubdan o‘zgartiruvchi, ya’ni inqilobiy shakl.

Iqtisodiyotni har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirishda asosiy vosita fan-texnika taraqqiyoti hisoblanadi.

Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish uchun:

- ilm-fanni ustuvor yoʻnalish sifatida rivojlantirish;
- ilmiy xodimlar tarkibini qayta tuzish.
- sanoatning yetakchi tarmoqlarini, eng avvalo, mashinasozlik mahsulotlarining oʻsish surʼatlarini va yangilanishini taʼminlash;
- yangi texnikaning iqtisodiy samaradorligini oshirish;
- inson omilidan toʻgʻri foydalanish, boshqarish va taʼlim tizimini qayta qurish kabi tadbirlarni amalga oshirish zarurdir.

Fan-texnika taraqqiyoti asosiy yoʻnalishlari:

1. Ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish.
2. Kompyuterlashtirish.
3. Energetikani, xususan atom energetikasini rivojlantirish.
4. Transport va aloqaning yangi turlarini vujudga keltirish.
5. Yangi texnika va texnologiyalarni tezroq oʻzlashtirish.
6. Biotexnologiya, chiqitsiz texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish.

6.2. Ilmiy-texnik taraqqiyotni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari

Milliy iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish fan-texnika taraqqiyoti rivoji bilan chambarchas bogʻliqdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fan-texnika mahsulotini barpo etishni taqozo etadi.

Yangi texnika va ishlanmalarni bunyod etish, ularni keng koʻlamda amaliyotga joriy qilish — xoʻjalik shartnomalari asosida amalga oshiriladi va olingan natijalar mahsulot sifatiga taʼsir etadi. Fan va texnikani zamon talabiga mos tarzda rivojlantirish va oʻrnini aniqlab bera oladigan ilmiy izlanishlarni olib borishni kengaytirish zarur.

Yangi mahsulotning yaratilish turli bosqichlarda xarajatlar tuzilmasini oqilona o'zgartirish, ilmiy tekshirish institutlariga kredit berishni to'g'ri yo'lga qo'yishda, jahon tajribalarining ijobiy tomonlarini ham amalda qo'llashni taqozo qiladi.

6.3. Fan-texnika taraqqiyoti samaradorligi

Fan-texnikani rivojlantirish uchun sarflanayotgan mablag'lar, tabiiy ravishda, iqtisodiy samara berishi kerak.

Fan-texnika taraqqiyoti samaradorligi yangi texnikani qo'llash natijasida olingan iqtisodiy samarani uni ishlab chiqarishga qilingan barcha xarajatlar miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Yillik iqtisodiy samara deyilganda yangi texnikani yoki texnologiyani o'zlashtirishdan milliy iqtisodiyot miqyosida olingan iqtisodiy tejam tushuniladi.

Yangi texnikaning iqtisodiy samaradorligining asosiy ko'rsatkichlar bo'lib, foydaning o'sishi, tannarxning kamayishi hisoblanadi. Bu ishlar asosan yangi texnikani qo'llash natijasida amalga oshiriladi.

Foydaning o'sish ko'rsatkichi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Delta \Phi_{it} = (H_t - T_t) - (H_{t1} - T_{t1})Q_t,$$

bunda: $\Delta \Phi_{it}$ — bashoratlash davrida foydaning o'sishi (t — yil), so'm hisobida;

H_t va T_t — Ulgurji baho va bir birlik mahsulotning tannarxi (texnika kiritgandan keyingisi);

H_1 , T_1 — mahsulot bahosi va bir birlik mahsulotning tannarxi (yangi texnika kiritilmasdan avvalgisi);

Q_t — yangi mahsulotning t yildagi hajmi.

Yangi texnikani joriy qilish natijasida mahsulot tannarxining kamayishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta T = (T_i - T_t)Q_t,$$

bunda: ΔT — yangi texnikani joriy qilish natijasida tannarxni kamaytirishdan kelib chiqadigan samaradorlik;

T_t — yangi mahsulot tannarxi (1 yildagi);

T_i — eski mahsulot tannarxi;

Q_t — yangi mahsulotning t yildagi hajmi.

Ilmiy-texnika taraqqiyot va ilmiy ishlanmalarni boshqarish doimo o'zgarib turuvchi sharoit doirasida amalga oshirish ilmiy-texnika taraqqiyotini va konstruktorlik ishlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Alohida ta'kidlash joizki, bozor iqtisodi sharoitida texnik muammolarni hal etishda bashorat qilib bo'lmaydigan texnik muammolar paydo bo'lishi mumkin. Natijada loyiha bo'yicha ishlarni to'xtatishga yoki ma'lum bir davrga qoldirishga talab o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Shu munosabat bilan loyihaning yashash qobiliyatini qayta baholash kerak bo'ladi.

ITT ning samaradorligi bozorda aniqlanadi. Uning to'g'riligi maqsadni belgilash bozor ehtiyojini qanchalik to'g'ri va to'la olinganlik darajasiga bog'liqdir.

Nazorat savollari

- 1. Ishlab chiqarishning rivojlantirishda ilmiy-texnik taraqqiyotning ahamiyati nimada?*
- 2. Texnikaviy tayyorgarlikning qanday vazifalari bor?*
- 3. Ishlab chiqarishga texnikaviy xizmat ko'rsatish deganda nimani tushunasiz?*
- 4. Ilmiy-texnik taraqqiyot samaradorligi tushunchasi nimadan iborat?*

7-mavzu. ISHLAB CHIQRISHNING TASHKILIY- IJTIMOIY SHAKLLARI

7.1. Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari

Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga ularni umumlashtirish va ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat taqsimotining rivojlanish darajasi va uni umumlashtirish jamiyat ishlab chiqarish kuchlari hamda munosabatlarning takomillashishida o'z aksini topadi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning bu shakllari mustaqillik tufayli va milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida o'z mohiyati va mazmunini, maqsad va vazifalarini anchagina o'zgartirdi. Kichik va o'rta korxonalarining paydo bo'lishi munosabati bilan ular o'rtasida uyg'unlashuv yuzaga keldi.

Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllariga quyidagilar kiradi:

- konsentratsiyalashtirish;
- ixtisoslashtirish;
- kooperativlashtirish;
- kombinatsiyalashtirish;

Konsentratsiyalashtirish deganda, bir xil, o'xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni yiriklashtirish tushuniladi.

Ixtisoslashtirish deganda, alohida ishlab chiqarish uchastkalari, sexlar, korxonalar, tarmoqlarni konstruktiv va texnologik jihatdan o'xshash bo'lgan mahsulotlarni ishlab

chiqarishga yoki jarayonlarni bajarishga mujassamlashtirish tushuniladi.

Kooperativlashtirish deganda, ma'lum turdagi mahsulotni hamkorlikda tayyorlash bo'yicha korxonalar (firma)larning birgalikda faoliyat ko'rsatishi tushuniladi.

Kombinatsiyalashtirish deganda, turli tarmoqlarga mansub bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni yoki jarayonlarni bir korxonada miqyosida mujassamlashtirish deganda.

Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida, Prezident asarlarida ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish masalalariga alohida e'tibor berilgan. Natijada ular oqilona ravishda, sanoat siyosatining barcha talablariga javob beradigan yo'sinda rivojlanib bormoqda.

7.2. Ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirish

Ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirish — bu mahsulot tayyorlash, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatishni yirik korxonalarda to'plash jarayoni hisoblanadi.

Sanoatni konsentratsiyalashtirish texnologik, tashkiliy-xo'jalik, zavodlarni yiriklashtirish va agregat shakllarida ifodalanadi.

Agregat shaklida ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirish — dastgohlarning quvvatini oshirishdir, ya'ni agregatlarning unumdorligini yuqori darajaga hamda ma'lum xildagi mahsulotlarni ishlab chiqarishning umumiy quvvatida yuqori unumdor agregatlar salmog'ini ko'paytirishdir. Bu jarayon yetakchi, ayniqsa, elektr energetika, metallurgiya, kimyo, yoqilg'i va qurilish materiallari kabi tarmoqlarida qo'laniladi.

Konsentratsiyalashtirishga texnologik jihatdan o'xshash ishlab chiqarishlarning quvvatini oshirish orqali erishish

mumkin. Masalan, metallurgiyada — cho‘yan, po‘lat eritish, prokat ishlab chiqarish, to‘qimachilikda — yigirish, to‘qish, bo‘yash, mashinasozlikda — quyuv, mexanik ishlov berish, yig‘uv jarayonlarining mujassamlashish kabi jarayonlar kiradi.

Korxonalar va ular tarkibidagi sex va uchastkalarni yiriklashtirish ishlab chiqariladigan mahsulotning yillik hajmi ortib, mahsulot sifati yaxshilandi, yirik korxonalarni qurish, ishlab turgan korxonalarni qayta qurollantirish, kengaytirish, birlashmalarni tuzish yo‘li bilan erishiladi.

Iqtisodiy rayonlarning industrial rivojlanish darajasi, tarkibidagi yirik, o‘rta hamda kichik sanoat korxonalarining salmog‘i bo‘yicha ifodalanadi.

Sanoatni konsentratsiyalash masalalarini ma‘lum mahsulotlarga ehtiyoj, ularni ishlab chiqarish imkoniyatlarini hamda erishiladigan iqtisodiy natijalarni e‘tiborga olgan holda hal etish tavsiya etiladi.

Korxonalar ishlab chiqarishning hajmiga binoan yirik, o‘rta va kichik turlarga bo‘linadi. Ular bir biridan ishlab chiqariladigan mahsulot (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish)ning hajmi, asosiy fondlarning qiymati, xodimlarning soni bilan farqlanadi.

Yirik, o‘rta va kichik korxonalarni qurish zaruriyati O‘zbekiston Respublikasining moddiy-texnika bazasini yaratishda vaqt omilining ahamiyati nihoyatda yuqoriligi bilan aniqlanadi.

Yirik, o‘rtacha va kichik korxonalar oqilona rivojlantiril-gandagina ijtimoiy ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishish mumkin. Bu vazifani hal etish ishlab chiqarishni konsentratsiyalashtirishga bevosita bog‘liqdir. Buning uchun korxonalarining optimal yirikligini aniqlash kerak bo‘ladi.

Optimal yiriklikdagi korxonalar deb, texnika taraqqiyotining hozirgi davrida mahsulot ishlab chiqarilishi va

uni iste'molchilarga yetkazilishining minimal darajadagi ijtimoiy mehnat xarajatlari evaziga ta'minlaydigan korxonalariga aytiladi.

Optimal yiriklikdagi korxonalar o'zaro bog'langan yirik, o'rtacha va kichik ishlab chiqarishlarni o'z ichiga olib, agar ularning har biri oqilona ixtisoslashgan bo'lsa, yirik korxonalarining barcha afzalliklarini o'zida saqlab qoladi. Demak, kelajakda O'zbekistonda madaniylashgan, to'laqonli, bozor iqtisodini yaratish, iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish jarayoni yirik va o'rta korxonalarni oqilona uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda uni ratsional tashkil etish, jumladan, ixtisoslashtirish muhim ahamiyatga ega.

7.3. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish (frans. — *specialisation*, lotincha *specialis* — ayrim, maxsus) — ijtimoiy mehnat taqsimotining shakli. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish xilma-xil mahsulotlarni, ularni ishlab chiqarishning turli bosqichlarini bir-biridan ajralib chiqishi tufayli yangidan-yangi ko'pgina ishlab chiqarish sohalarining vujudga kelish jarayoni hisoblanadi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish va boshqa har xil ishlab chiqarishlar mustaqil soha bo'lib ajralib chiqqan. Bu sohalarining o'z ichida ham ajralib chiqish sodir bo'lishi natijasida biror alomatiga ko'ra bir-biriga yaqin korxonalarni birlashtiruvchi ixtisoslashgan tarmoq vujudga kelgan.

Alohida ixtisoslashgan tarmoqlar va korxonalar bir xil yoki bir turli mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga

erishganlar hamda maxsus, o'ziga xos texnologiya jarayoni va ixtisoslashgan kadrlar bilan ajralib turgan va turishi mumkin.

Ishlab chiqarishning ixtisoslashtirishning eng birinchi shakli hunarmandchilik bilan birga vujudga keldi.

Korxonalarining ixtisoslashuvi — ularda mukammalroq texnika va texnologiya, mehnatni tashkil etishning ilg'or usullarini qo'llashni engillashtiruvchi turdosh mahsulot ishlab chiqarishni mujassamlashtirish jarayonidir.

Ixtisoslashtirish jarayonining taraqqiyoti ijtimoiy ishlab chiqarishning o'sishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Ixtisoslashtirish, o'z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiiga yordam beradi. Ishlab chiqarish vositalari va ish kuchining juda keng miqyosda birlashtirilishi hozir iqtisodiy zaruriyat bo'lib qoldi. Hozirgi zamon texnika taraqqiyotining muhim omillari — elektrlashtirish, kompleks avtomatlashtirish, yangi materiallarni yaratish va joriy etish, ilg'or texnologiyalarni, jumladan, biotexnologiyalarni vujudga keltirish ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish sanoat korxonalarining ishini eng oqilona tashkil etish hisoblanib, binolardan, jihoz va asbob-uskunalardan, materiallardan bekam-ko'st foydalanishda, fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlarini joriy etishda, takomillashgan maxsus mashina va asboblarni qo'llashda, mehnat unumdorigini oshirishda, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish xarajatlarini tejashda katta samara keltiradi.

Korxonalar bo'limlarining ixtisoslashuvi — ayrim sexlar, uchastkalar, ish joylarining ayrim mahsulotlar ishlab chiqarishga va jarayonlarni bajarishga ixtisoslashuvida ifodalanaadi.

Ixtisoslash darajasining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

— ixtisoslashgan korxonalar ishlab chiqargan mahsulotining shu mahsulot turining umumiy hajmidagi salmog'i;

— ishlab chiqarilgan, texnologik jihatdan o'xshash bo'lgan assortimentdagi buyumlarning guruhlari, turlari.

Korxonalar tarkibidagi ixtisoslashuvni ta'riflash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

— dastgohlar ilg'or turlarining ushbu korxonalar yoki sektor dastgohlarining umumiy miqdoridagi salmog'i;

— potok liniyalarda o'rnatilgan dastgohlarning salmog'i. Masalan, potok usulida ishlab chiqarishda band bo'lgan metall qirquvchi dastgohlarning hamma asbob-uskunalar qiymatiga nisbati (foiz hisobida);

— korxonalar ishlab chiqaradigan turli mahsulotlarda unifikatsiyalashtirilgan yoki bir shaklga keltirilgan detallar va qismlar salmog'i.

Ixtisoslashgan korxonalar (firma)lar va ularning bo'limalari sonining o'sishi ham ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi.

7.4. Ishlab chiqarishni kooperatsiyalash

Sanoatda korxonalar ixtisoslashuvining rivoji ishlab chiqarishni kooperativlashtirish asosida amalga oshadi.

Kooperativlashtirish deganda, ma'lum mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmat bajarishni birgalikda olib borish bo'yicha tarmoqlar va ular korxonalarining davomli ishlab chiqarish aloqalari shakllari tushuniladi.

Kooperativlashtirishda mahsulot yetkazib berish tartibi ishlab chiqarish jarayonida buyurtmachining ma'lum ishlab chiqarish-texnikaviy topshiriqni bajarishini hisobga olishini

talab etadi. Kooperativlashtirish xom ashyo, yoqilg'i va standartlashtirilgan yarim fabrikatlar hamda buyurtmalarni yetkazib berish bosqichlarini qamragan holda moddiy-texnika ta'minotidan farqlanadi.

Kooperativlashtirish murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirishni tezlashtirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan muhim vazifalarni hal etishga imkoniyat yaratib beradi.

Sanoatning rivojlanish davrlarida ishlab chiqarishni kooperativlashtirishning bir qancha samarali shakllari vujudga keldi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- buyumli (agregatli) kooperativlashtirish;
- texnologik kooperativlashtirish;
- tarmoqlararo kooperativlashtirish;
- iqtisodiy rayonlararo kooperativlashtirish.

Buyumli (agregatli) kooperativlashtirish — bu mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchi bosh korxonaga turli butlovchi buyum va detallarni yetkazib beruvchi korxonalarining faoliyatidan iborat. Texnologik kooperativlashtirish — bu bir va bir necha korxonalar o'rtasida alohida jarayonlarni bajarish bo'yicha hamkorlikdir. Ishlab chiqarishning qaysi tarmoqqa taalluqliligi nuqtayi nazaridan tarmoq va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiyasi vujudga keladi.

Tarmoqlararo kooperativlashtirish sanoat tarmoqlarining bir biriga xizmat ko'rsatishini ifodalaydi. Masalan, sanoat ishlab chiqarishining mashinasozlik tarmog'i metallurgiya sanoati bilan hamkorlik qilishi mumkin. Kooperatsiya asosida ma'lum mahsulotlarni tayyorlashi, bir-biriga butlovchi buyumlar yetkazib berishi va muayyan ishlarni bajarib berish mumkin.

O‘zaro bog‘liq bo‘lgan korxonalarni joylashtirish nuqtayi nazaridan iqtisodiy rayonlar miqyosida va rayonlararo kooperativlashtirish keng tus olishi mumkin.

Rayonlararo kooperativlashtirish turli iqtisodiy hududlarda joylashgan korxonalar o‘rtasidagi aloqalarni ifodalaydi.

7.5. Ishlab chiqarishni kombinatsiyalash

Sanoatning har bir tarmog‘ida katta korxonalar bo‘laveradi. Lekin ikkinchi tomondan zamonaviy sanoatga kombinatsiya degan narsa xosdir. Sanoatni kombinatsiyalashtirish turli sanoat tarmoqlarining bir korxonada qo‘shilishidirki, bu tarmoqlar yo xom ashyoni ketma-ket ishlab beruvchi tarmoqlar (masalan, rudadan cho‘yan quyish va cho‘yanni po‘latga aylantirish, so‘ngra, ehtimol, po‘latdan turli mahsulotlar ishlab chiqarish) yoki biri ikkinchisiga nisbatan yordamchi rol o‘ynovchi tarmoqlar (masalan, chiqindilarni yoki qo‘shimcha mahsulotni ishlash; qadoqlash-o‘rash buyumlari ishlab chiqarish va h.k.) bo‘ladi.

Kombinat tarkibidagi bo‘limlarning texnik-iqtisodiy birligi, ishlab chiqarish quvvati, mahsulot miqdori, turlari na sifati bo‘yicha o‘zaro mosligi ular o‘rtasidagi iqtisodiy aloqadorlikni ifoda etadi. Bo‘linmalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqadorlik esa turli yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin.

Kombinatning xom ashyo, energetika va transport manbalari birligi, uning barcha ishlab chiqarish bo‘linmalarining umumiy kommunikatsiya (suv, bug‘, gaz, elektr bilan ta‘minlash) tizimlari birlashganligini, umumiy transport xo‘jaligidan foydalanishini, dastlabki xom ashyolarni yoki ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlashini, bir-birlarini yarim fabrikat yoki chala mahsulot bilan ta‘minlashini ko‘rsatadi.

Kombinatsiyalashtiriladigan korxonalarining hududiy birligi yagona texnologik tizimini tashkil etuvchi bir-lashtiriladigan ishlab chiqarishlarning uzviy texnologik bog‘liqligidan kelib chiqadi. Bu tizimda uzilish bo‘lmasligi uchun, kombinatning barcha ishlab chiqarish bo‘limlari bir maydonda joylashtiriladi. Bu kimyoviy-texnologik va termik ishlab chiqarish jarayonlari (kimyoviy, metallurgiya, nefteximiya, oziq-ovqat va h.k.) ustun bo‘lgan kombinatsiya-lashtirilgan korxonalar uchun ayniqsa muhimdir. Kombinatsiyalash rivojlantirishning asosiy sharti ishlab chiqarishni yiriklashtirishdir.

Kombinatsiyalash natijasida xom ashyodan, ishlab chi-qarish chiqindilaridan to‘liq foydalanish imkoniyati yara-tiladiki, bu esa sanoatning xom ashyo manbaini kengaytiradi.

Kombinatsiyalash sanoat ishlab chiqarishda jarayonlarni uzluksiz olib borish, ularni qisqartirish, ishlab chiqarishni jadallashtirish va natijada ish kuchini tejash, ishlab chiqa-rishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunday ishlab chiqarish sharoitida bir qator qurilish obyektlari uchun kapital xarajatlar, mahsulot va xom ashyoni uzoqqa tashish, umumzavod xarajatlari qisqaradi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortadi, tannarxi kamayib, sifati esa ancha yaxshilanadi va iste’molchilar talabi to‘laroq qon-diriladi.

Kombinatsiyalashni quyidagi shakllarini ajratish mumkin:

- xom ashyoni tayyor mahsulot olguncha ketma-ket bosqichlarda qayta ishlash;
- ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanishga asos-langan holda mahsulot tayyorlash;
- xom ashyoni yalpi qayta ishlash.

Xom ashyoni kompleks qayta ishlashga asoslangan kombinatlashtirish eng rivojlangan ishlab chiqarish bo‘lib,

juda katta xalq xo'jalik ahamiyatiga egadir. Chunki bu shaklda xom ashyo, materiallar va chiqindilardan to'la-to'kis foydalanish mumkin bo'ladi. Kombinatlashtirishning bunday zarurligi xom ashyo tarkibida turli elementlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Alohida kombinatning rivojlanish darajasi o'sha kombinat qamrab olgan tarmoqlar va ishlab chiqarish pog'onalarining soni bilan tavsiflanadi. Shu sababli odatda to'la-to'kis va to'la bo'lmagan kombinatlarni farqlaydilar. Masalan, to'la-to'kis to'qimachilik kombinati barcha bosqichlar (yigirish, to'qish va pardozlash)ni qamrab oladi. To'la bo'lmagan to'qimachilik kombinati esa o'z ichiga bir yoki ikki bosqichni oladi.

O'zbekistonda ishlab chiqarishni kombinatsiyalash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ushbu shakl metallurgiya, kimyo, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatida keng tarqalgan. Respublikada bu tarmoqlarga taalluqli juda yirik, dunyo miqyosida tan olingan kombinatlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular jumlasiga Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati va boshqalari kiradi.

Nazorat savollari

- 1. Sanoat ishlab chiqarishini ijtimoiy tashkil etish shaklining tarkibiy qismlari nimadan iborat?*
- 2. Ishlab chiqarishni konsentratsiyalashning mohiyati, mazmuni va shakllari tushunchalarini qanday ifodalaysiz?*
- 3. Kichik korxonalarini konsentratsiyalash va ularning samadorligi darajalari qanday aniqlanadi?*

8-mavzu. ISHLAB CHIQRISH RESURSLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

8.1. Resurslar va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilayotgan davrda respublika hududining nisbatan kattaligi, iqtisodiy va tabiiy, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqadorlik va bog‘liqlik insoniyat tarixidagi muhim muammodir. Zero, jamiyat mavjud ekan, mazkur muammo o‘zining dolzarbligini yo‘qotmaydi. Faqat jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida unga bo‘lgan munosabatlar o‘zgarib turadi va murakkablashib boradi.

Ushbu hayotiy muammo XXI asrning ikkinchi yarmidan boshlab fan-texnika inqilobi va iqtisodiy yuksalish ta‘sirida yanada chuqurlashib ko‘pchilikning etiborini o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Tabiat va jamiyat bir butun, ya‘ni yaxlit tizimning o‘zaro aloqador qismlari va ularni tashkil etuvchi asosiy elementi hisoblanadi.

Ma‘lumki, ishlab chiqarishning rivojlanishi tabiiy resurslardan foydalanish miqyosining kengayishi va chuqurlashi-shi bilan chambarchas bog‘liqdir. Geografik muhit va tabiiy shart-sharoitlar hamda resurslar — ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim omilidir. Zero, ishlab chiqarish faoliyati ma‘lum tabiiy shart-sharoitlar mavjud bo‘lganidagina amalga oshadi.

Ma'lum iqtisodiy-ijtimoiy jamiyat hali foydalanilmayotgan, biroq keyinchalik foydalanishi mumkin bo'lgan resurslar potensial resurslar deb ataladi.

Resurslar, o'z navbatida, moddiy texnika resurslaridan iborat bo'lib, kelib chiqishi va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rniga ko'ra moddiy va moliyaviy resurslarga bo'linadi. Moddiy-texnika resurslari bilan jamiyatning ta'minlanganlik darajasi va ulardan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini belgilab beradi.

Resurs tushunchasining iqtisodiy mohiyatini aniqlash muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy taraqqiyot omillari qatorida ishlab chiqarish resurslari alohida o'rinni egallaydi. Ishlab chiqarish resurslari o'z mazmuniga ko'ra ishlab chiqarish kuchlariga nisbatan keng qamrovli tushunchadir. Chunki ishlab chiqarish resurslariga jami aholi, jami tabiat resurslari, ya'ni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari hamda ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinmagan, lekin ma'lum vaqtdan keyin jalb etilishi mumkin bo'lgan potensial mehnat resurslari, tabiiy boyliklar va ishlab chiqarish vositalari kiradi. Moddiy resurslar negizini tabiiy resurslar tashkil etadi.

8.2. Tabiiy resurslar va ularning turlari

Tabiiy resurslar ikki asosiy turkumga bo'linadi:

- 1) odamlarning yashashi, turmush kechirishini ta'minlovchi resurslar;
- 2) mehnat vositalari manbai bo'lib xizmat qiluvchi resurslar.

Tabiiy resurslar moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarishning asosiy sohalarida foydalanish xususiyatlariga ko'ra ham ikki turga ajratiladi:

Moddiy ishlab chiqarish resurslari:

a) sanoat;

b) qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlar.

Nomoddiy ishlab chiqarish sohasi resurslari:

a) bevosita iste'mol qilinuvchi;

b) bilvosita foydalanuvchi resurslar.

Moddiy ishlab chiqarish resurslari guruhiga undiruvchi sanoatning barcha tarmoqlari (ko'mir, neft, tabiiy gaz), shuningdek, gidroelektroenergetika, o'rmon sanoati, baliq ovlash va boshqalar kiradi. Bir turdagi tabiiy resurslardan iqtisodiy va texnik nuqtayi nazardan ko'p maqsadni ko'zlagan holda majmualiy foydalanish mumkinligini ta'kidlab o'tish zarur. Ana shunday resurslar qatoriga yer, suv, o'rmon va boshqalar kiradi. Masalan, suv resurslaridan ichimlik suvi, texnik suvi, irrigatsiya manbai hamda elektr energiya ishlab chiqarish, baliqchilikni rivojlantirish va boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Tabiiy sharoitlar bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi munosabatlar ma'lum darajada iqtisodiy taraqqiyot suratlarini belgilab beradi. Tabiiy sharoit qulay bo'lsa, iqtisodiy rivojlanish suratlari yuqori bo'lishi mumkin va aksincha, noqulay bo'lsa, iqtisodiyotning rivojlanishi susayishi yoki umuman to'xtab qolishi muqarrardir.

Tabiiy sharoit iqtisodiyotga taraqqiyot omillari orqali bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiy sharoitning iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siri har xil bo'ladi. Binobarin, undirish sanoati tarmoqlarida, qishloq va o'rmon xo'jaligida hamda qurilish, transport va boshqa tarmoqlarda tabiiy sharoit hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy resurslarning tarkibi va turlari vaqt davomida o'zgaruvchan bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi hamda fan-texnika taraqqiyotiga bevosita

bog'liqdir. Tabiat elementlari u yoki bu turning tabiiy resurslar qatoriga o'tishi fan va texnika imkoniyatlari, iqtisodiy zaruriyat hamda ulardan jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanish orqali aniqlanadi.

Tabiiy resurslar ishlab chiqarish kuchlarining ma'lum darajada rivojlanganlik holatida to'la to'kis o'rganilgan va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanishi mumkin bo'lgan tabiat elementlaridir.

Ma'lumki, resurslarning tarkibi vaqt o'tishi bilan doimo o'zgarib, asosan kengayib boradi. Bunda ulardan foydalanish imkoniyatlari hamda iqtisodiy zaruriyatini aniqlab beruvchi omillarning roli katta bo'ladi. Ushbu omillar ichida jamiyat ehtiyojlari asosiy o'rinni egallaydi.

Ishlab chiqarish kuchlarinig rivojlanishi iste'mol qilindigan resurslar hajmining uzluksiz ko'payishiga hamda turlarining kengayishiga sabab bo'ladi.

Tabiat in'omlaridan foydalanishda texnologik imkoniyatlar darajasi ham muhim rol o'ynaydi. Yangi texnika va texnologiyaning kashf etilishi bilan bog'liq holda ilgari chiqindi hisoblangan tabiiy elementlardan amalda foydalanish imkoniyatlarining vujudga keltirilishi resurslar hajmining kengayishiga sabab bo'lmoqda. Binobarin, undirish sanoatida bir tomondan foydali qazilmalarni qazib olish usullarining takomillashtirilishi, ikkinchi tomondan esa tabiat birikmalaridan kamyob va nodir komponentlarni ajratib olish bo'yicha yangi texnologik usullarning kashf etilishi, resurslar hajmi va turining ko'payishiga sabab bo'ladi. Bu esa undirish sanoati imkoniyatlarini beqiyos kengayishiga olib keladi. Bunday holatni boshqa (suv, yer, biologik, iqlim) resurslaridan foydalanish jarayonida ham kuzatish mumkin.

Ushbu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, ma'lum turdagi tabiat resurslariga bo'lgan ehtiyoj va ularni olish texnikasi

va texnologiyasi har qanday davrga xos bo'lgan iqtisodiy imkoniyatlar orqali aniqlanadi.

Nazorat savollari

- 1. Ishlab chiqarish resurslari deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Tabiiy resurslar tarkibiga qanday resurslar kiradi?*
- 3. Tabiiy resurslar tiklanadimi?*
- 4. Tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyoj qanday aniqlanadi?*

9-mavzu. ISHLAB CHIQRISHNI REJALASHTIRISH VA NAZORAT QILISH

9.1. Rejalashtirish va bashoratlash bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir

Mo‘ljallangan ish yoki ma’lum bir harakatlarni bajarish muddati, tartibi va ketma-ketligini ko‘zda tutuvchi chora-tadbirlar tizimi rejalashtirish deyiladi. Aynan rejalashtirish va bashorat qilish yo‘li bilan korxonalar kim uchun, qancha mahsulot ishlab chiqarish, qaysi hamkorlar yoki sheriklar bilan shartnoma tuzish yoki kooperatsiyani rivojlantirish, zarur bo‘lgan moddiy-tovar boyliklari zahirasini yaratish kabi bir qator masalalarni hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar to‘g‘risida»gi qonunida iste’molchilar talabi, foyda yoki daromad olish nuqtayi nazaridan o‘z faoliyatini mustaqil ravishda tanlashi va ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari belgilab olishi ko‘rsatilgan.

Rejalashtirish tufayligina korxonalar ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiyalarning optimal variantlarini tanlaydi, resurslar bilan o‘z vaqtida ta’minlash vazifasini bajaradi, asosiy va aylanma vositalarga ehtiyojni belgilab beradi, mahsulotni sotish kanallari va usullarini aniqlaydi. Har bir korxonani tashkil qilinishi va faoliyat yuritishi aynan rejalashtirishdan boshlanadi.

Rejalashtirish tartibga soluvchi jarayon sifatida korxonaning faoliyatini yaqin va uzoq istiqbol sari ilgari surish, asoslab berishni ifodalaydi. Bashorat qilishni rejalashtirishning

boshlanishi bo‘lib, uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan davomi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Rejalashtirish va bashorat qilish o‘zaro aloqada bo‘lgan ikkita jarayon bo‘lib, xo‘jalik faoliyatini avvaldan bajarilgan hisob-kitoblar, eng kam tavakkalchilik va eng yuqori natijalarga erishish asosida yuritishni ko‘zda tutadi.

Shu tariqa rejalashtirish bozor va bozor mexanizmiga qarama-qarshi bo‘lmasdan, aksincha, ishlab chiqarishning maqbul yo‘nalishlarini aniqlash, foydalanilmagan zahira va imkoniyatlarni qo‘llash, korxonaning oqilona baho siyosatini shakllantirish hamda xo‘jalik yuritish aloqalarining samarali shakllarini o‘rnatishga ko‘maklashadi. Rejalashtirish va bashorat qilish yordami bilan ichki va tashqi bozordagi iste’molchilar talabi aniqlanadi, korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati kuchaytiriladi.

Rejalashtirish mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi sababli istalgan reja yoki bashoratning hayotga tatbiq etilishi ko‘p jihatdan iqtisodchilarning malakasiga, ular rejalashtirishning uslubiy asoslarini yaxshi bilishiga, shuningdek, ishlab chiqarish rejalarining bozor talablarini hamda korxonaning mo‘ljallangan daromadga erishishini hisobga olishiga ham bog‘liq. Rejani ishlab chiqish qanchalik asoslab berilgan bo‘lsa, uning haqiqiyliги va iqtisodiyotdagi ahvol bilan bog‘liqligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Korxonalar faoliyati va iqtisodiyotda rejalashtirishdan tashqari ***bashorat qilish*** ham katta rol o‘ynaydi. Bashorat qilish xo‘jalik faoliyati yurituvchi subyektning istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni ilmiy asoslagan holda avvaldan ko‘ra bilishini ifodalaydi. U yuzaga kelayotgan yoki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy holatlarni baholash va

tahlil qilish asosida yaratiladi hamda muqobil qarorlarni tanlashga imkon yaratadi.

Bashorat qilish rejalashtirish tavsifida o‘z aksini topadi: ishlab chiqarish va korxonalar iqtisodiy hayotining boshqa jihatlarini **strategik rejalashtirish** — o‘rta va uzoq muddatli bashoratlar asosida hamda **joriy rejalashtirish** — qisqa muddatli bashoratlar asosida ishlab chiqiladi. Bu yo‘nalishlarning ikkalasi ham o‘zaro uzviy aloqada bo‘lib, ishlab chiqarish strategiyasini fan-texnika taraqqiyoti va hayotning real voqeligi bilan bog‘laydi.

Bashoratning maqsadi — bozorga ta’sir qiluvchi omillarni, shu bilan birga, xo‘jalikning umumiy ahvoli, tuzilmaviy siljishlar, investitsion faollik, fan-texnika taraqqiyotining iste’molchi va ishlab chiqaruvchilarga ta’sir ko‘rsatishi, an’anaviy mahsulotlardan tashqari korxonaning barqarorligi va raqobatbardoshligiga olib keluvchi yangi mahsulot ishlab chiqarish istiqbolida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarini belgilashdadir. Korxonalar uchun talabni bashorat qilish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi va miqdorining o‘zgarishini avvaldan aniqlab berib, rejalashtirishning ilmiy asosidir.

9.2. Rejalashtirish uslubi va turlari

Rejalashtirish uslubi — iqtisodiyotni boshqarishning turli bo‘g‘inlarida, jumladan, korxonalar boshqarish rejalarini ishlab chiqish usullari majmuasidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar o‘z faoliyatini rejalashtirishni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Biroq bu rejalashtirishning tekshirib ko‘rilgan va foydali usullaridan voz kechishni anglatmaydi. Bugungi sharoitlarda ham korxonalar faoliyatini rejalashtirish-texnik-iqtisodiy hisob-

kitoblar, iqtisodiy tahlil, muqobil variantlarni tanlashga asoslanadi.

Rejalashtirishning eng ko‘p tarqalgan usullari qatoriga quyidagilarni: balans, me‘yoriy, iqtisodiy-matematik, statistik, omillar bo‘yicha, ko‘p variantli hisob-kitob usuli kabilarni kiritish mumkin. Rejalarning asoslanganlik darajasini oshiruvchi va ularni tezda amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi, shuningdek, tavakkalchilik va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan talofatlarni kamaytiruvchi usul eng samarali usul hisoblanadi.

Hozirgi paytda **balans usulining** ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu usulning mohiyati, o‘zaro aloqada bo‘lgan ko‘rsatkichlarni solishtirish bilan ifodalanadi. Balans usuli asosida korxonaning ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi, ishlab chiqarish quvvatiga bo‘lgan talablari va ularning manbalari aniqlanadi.

Balans usuli **me‘yoriy usuli** bilan birgalikda qo‘llanadi. Me‘yoriy usulida resurslarni sarflashning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan eng yuqori va eng quyi chegaralari aniqlanadi. Bunda ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkil etishda me‘yor va me‘yoriy kabi tushunchalardan foydalaniladi.

Me‘yor (norma) – belgilangan sifatdagi mahsulot birligi (ish, xizmat) tayyorlash uchun sarflanuvchi xom ashyo, material, yoqilg‘i, energiya va boshqa resurslardan foydalanishning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan maksimal yoki minimal chegarasidir.

Me‘yoriy (normativ) – nisbiy kattalik bo‘lib, asosan foizlar yoki koeffitsiyentlar yordamida aks ettiriladi. U mehnat vositalari va predmetlaridan foydalanish darajasini, ularning har bir maydon birligi, og‘irlik birligi, hajm birligiga sarflanishini tavsiflab beradi.

Me'yor va me'yoriylar taraqqiylik tavsifga ega bo'lishi, ya'ni ularni ishlab chiqishda zamonaviy fan, texnika va texnologiya rivojlanishining darajasi, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish hamda ilg'or korxonalarining tajribalarini hisobga olish zarur. Shuningdek, ular doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi, eskirgan me'yor va me'yoriylar yangi, xo'jalik hayoti va davr talablariga javob beruvchi me'yor va me'yoriylar bilan almashtirilishi lozim.

Me'yor va me'yoriylar quyidagi asosiy guruhlar asosida ishlab chiqiladi:

— **jonli mehnat xarajati me'yorlari** (mahsulot biriligi sarflanuvchi ish vaqti me'yori, vaqt biriligidagi ishlab chiqarish me'yori, xizmat ko'rsatish me'yori, miqdor me'yori);

— **moddiy xarajat me'yorlari** (xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya, butlovchi qismlar);

— **ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish me'yoriylari** (ishlab chiqarish siklining davomiyligi, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish zahiralari va hokazo);

— **mehnat vositalaridan foydalanish me'yorlari** (mashinalar, asbob-uskunalar, mexanizmlar, qurilmalar);

— **korxonalar, sex, asbob-uskunalarining loyiha quvvatiga chiqish vaqti me'yorlari**.

Ko'rinib turibdiki, rejalashtirish juda murakkab va mehnat talab qiluvchi jarayon bo'lib, korxonalar faoliyatining resurslar xarajatini me'yorlashtirishdan to mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishgacha barcha ko'rsatkichlarini inobatga oladi. Rejalashtirishning **asosiy vazifalari** quyidagilar:

— maqsadni belgilash;

— korxonalar faoliyatining turli xil yo'nalishlari, ayniqsa, xalq xo'jaligi va aholi uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab

chiqarishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslab berish;

- zaruriy moddiy-texnika asosini shakllantirish;
- moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
- yakuniy natijalarning ijobiy bo‘lishiga erishish.

Amaliyotda bu vazifalarni korxonada direktori yoki iqtisodiy-rejalash xizmatining o‘zi bajarmaydi yoki bajarishi lozim emas. Bunda butun jamoa, ayniqsa, agar bu korxonada aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, ishtirok etishi zarur. Afsuski, korxonada xodimlari ko‘pincha «rahbarga (yuqoridan) ko‘proq narsa ko‘rinadi» tamoyili asosida ishlaydilar va yaxshiroq natijalarga erishish uchun tashabbuskorlik ko‘rsatmaydilar. Tajribalar esa korxonada muammolarini hal qilish barcha xodimlar, jumladan, ishchilarga ham bo‘lgan holdagina bu korxonalar gullab-yashnashi mumkinligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va ratsional boshqarish tizimi hamda maksimal ravishda qulay sharoitlarni yaratmoqda. Bunday sharoitlarda rejalashtirish bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlarining barcha imkoniyatlaridan foydalanishga xizmat qilishi lozim. Korxonada faoliyatini umuman emas, balki har bir muayyan holdagi vazifalarni hal qilishga yo‘naltirgan holda rejalashtirish zarur.

Rejalashtirish korxonani boshqarish jarayoni sifatida o‘z texnologiyasiga ega bo‘lib, bu texnologiya korxonaning rejalashtirilayotgan davrdagi maqsad va vazifalarini aniqlash, bajaruvchilarga muayyan vazifalarni belgilash, vazifalarni turi, kattaligi va muddatiga ko‘ra, aniqlashtirish, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati natijasi - daromad yoki foyda olishni o‘z ichiga oladi.

9.3. Korxonada rejalashtirish jarayoni

Rejalashtirish tizimi quyidagi talablarga javob bergan taqdirdagina samarali va ishonchli hisoblanadi:

1. Rejalashtirishning har bir elementi va bosqichi qat'iy ravishda asoslab berilishi.

2. Rejadagi vazifalarning aniq va o'z vaqtida bajarilishi, ya'ni rejaning adresliligi.

3. Reja bajarilishini doimiy va uzluksiz ravishda hisobga olish, nazorat qilish va unga zarur hollarda o'zgartirishlar kiritish.


4. Ichki va tashqi muhitdagi o'zgarishlarni ijobiy qabul qilish, shuningdek, korxonada faoliyatini ro'y bergan o'zgarishlarga mos ravishda, o'z vaqtida qayta tashkil qilish (rejalashtirishning moslashuvchanligi).

5. Fan-texnika taraqqiyoti va xo'jalik yuritishning ilg'or tajribalariga tayanish.

Rejalashtirish davomida bugungi kundan tashqari, kelajakni, ertangi kunni ham inobatga olish zarur. Korxonada istiqboli va bozordagi holatining barqarorligi, ko'p jihatdan uning ilg'or texnika va fan yordamida yaratilgan eng yaxshi mahsulotlar namunasini tezlik bilan o'zlashtirib olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli korxonalarda axborot tizimini yaxshi yo'lga qo'yish hamda reklama faoliyatini rivojlantirish lozim. Reklama iste'molchilarni (xaridorlarni) mavjud mahsulot bilan tanishtirishdan tashqari, xuddi xorijdagi kabi, ularni aynan shu mahsulotni sotib olishga undashi kerak.

Rejalashtirishning har bir turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

— belgilangan rejalashtirish oralig'ining aniqligi;



2-chizma. Korxonada rejalashtirish jarayoni texnologiyasi.

- integratsiya va differentsiatsiya darajasi, shuningdek, rejalashtirilayotgan ko'rsatkichlar miqdori;
- ishlab chiqarish xarajatlari va natijalarini hisob-kitob qilish darajasining aniqligi;
- rejani tayyorlovchilar va amalga oshiruvchilar o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash tartibi.

Rejalashtirishda «korxonaja-muhit-holat» munosabatlari asosiy o'ringa egadir. Bunda ishlab chiqarish shunday rejalashtiriladiki, natijada korxonaning bozordagi barqarorligini saqlab qolish, yuzaga keladigan holat va tashqi muhitni hisobga olishdan tashqari, mahsulotni tezda sotish va ishlab chiqarish rentabelligining o'sishiga imkon yaratiladi.

9.4. Biznes reja tuzish

Hozirgi paytda korxonalarining aksari qismi asosan joriy rejalar (biznes-rejalar) tayyorlash bilan shug'ullanmoqda. Biznes-rejalarda eng muhim rejalashtirish ko'rsatkichlari quyida keltirilgan:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) nomenklaturasi va hajmi (natural ko'rinishda);
- mahsulot sotish hajmi (pul ko'rinishida);
- mahsulot birligining tannarxi;
- foyda (daromad);
- kategoriyalar bo'yicha xodimlar soni;
- mehnatga haq to'lash fondi va o'rtacha ish haqi darajasi;
- omborlardagi xom ashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zahiralari;
- aylanma vositalar hajmi — umumiy va guruhlar bo'yicha;
- kapital qo'yilmalar hajmi, jumladan, qo'yilma obyektlari va yo'nalishlari bo'yicha;
- yangi texnika va texnologiyaga oid chora-tadbirlar;
- boshqa ko'rsatkichlar (zarurligi va aniqlanishiga ko'ra).

Yangi mahsulotlar va texnologiyalarni qo'llash loyihalari, shuningdek, investitsiyalar va qurilish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlarning bir qismi alohida rejalariga kiritiladi. Ular chora-tadbirlarni amalga oshirishning butun davriga tuziladi.

Biznes-rejani tayyorlash natijasida «*Ishni nimadan boshlash kerak?*»; «*Samarali ishlab chiqarishni qanday tashkil qilish lozim?*» «*Birinchi foyda yoki daromad qachon olinadi?*», «*Investorlar va kreditorlar bilan qachon hisob-kitob qilish*

mumkin?», «Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarni qanday kamaytirish mumkin?», «Raqobatchilar bilan kurashda qanday choralardan foydalanish mumkin?» kabi savollarga javob olinadi.

Biznes-rejani tuzishda quyidagi shartlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

— biznes-reja professional va shu bilan birga sodda, bajarish uchun tushunarli va oson bo'lishi lozim;

— biznes-reja investor yoki boshqa manfaatdor shaxs o'ziga kerakli ma'lumotlarni qidirib topishi uchun bo'limlarga (boblarga) bo'linishi lozim;

— biznes-rejani tayyorlashda korxonaning bosh rahbari albatta qatnashishi shart, chunki investor, bank yoki boshqa moliya idorasi korxonaga rahbari qatnashmaganligi yoki boshqa shaxsga topshirilganligi haqida xabar topsa, biznes-rejaning ishonchligiga shubha uyg'onishi mumkin;

— biznes-rejaning obyektiv baholanishiga erishish kerak, ya'ni unda xatolar va noto'g'ri hisob-kitoblar bo'lmasligi lozim;

— biznes-rejaning tarqatib yuborilmasligini nazorat qilish zarur, chunki unda biznes to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlar joy olgan bo'ladi.

Rejalarning har bir turi kabi, biznes-reja ham, bo'lim va ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi. O'ntagacha bo'limni o'z ichiga oluvchi biznes-reja mazmuni va tuzilishiga ko'ra, eng maqbul hisoblanadi. Mavjud adabiyotlarda quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oluvchi biznes-rejalar taklif qilinadi:

1. Tanlangan biznes konsepsiyasi.
2. Hozirgi paytdagi holat (maqsad, vazifa va niyatlar).
3. Tashkil qilinayotgan korxonaga va uning mahsulot hamda xizmatlari tavsifnomasi.
4. Boshqaruv (menejment).

5. Bozor tadqiqoti va tahlili.
6. Marketing harakatlari rejasi.
7. Ishlab chiqarish rejasi.
8. Tavakkalchilikni baholash.
9. Moliyaviy reja.
10. Biznes-loyihaning samaradorligi.

Tanlangan biznes yo‘nalishining konsepsiyasini tuzishda uning raqobatbardoshligi (sifat, narx, iste’molchiga yetkazib berish shakli, tayyorlash texnologiyasi va hokazo); mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlar; o‘ziga jalb qilishning asoslanganligi (taklif qilinayotgan mahsulotning boshqa mahsulotlardan afzalliklari, mahsulot ishlab chiqarishning qaysi bosqichda ekanligi va hokazo)ga katta e’tibor qaratish lozim.

Nazorat savollari

1. *Korxonada faoliyatining samaradorligini qanday sabab va omillar belgilaydi?*
2. *Bozor sharoitlarida rejalashtirish vazifalari va ahamiyati.*
3. *Rejalashtirishdan talab qilinuvchi asosiy talablarni sanab o‘ting.*
4. *Reja bilan bashoratning farqi nimada?*
5. *Biznes-reja nima va uning tuzilmasi qanday?*
6. *Biznes-rejani tayyorlashning maqsad va vazifalarini aytib o‘ting.*

10-mavzu. MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH VA SIFATINI OSHIRISH

10.1. Mahsulot sifati tushunchasi

Korxonada ishlab chiqarish — xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi mahsulot sifatining yaxshilanishi bilan uzviy tarzda bog‘liqdir. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eng yuqori texnik iqtisodiy, estetik va boshqa talablarga muvofiq, bo‘lishi, jahon bozorida raqobat qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mahsulot sifatini oshirish masalasi xalq, xo‘jaligining birinchi darajali muammolaridan biridir.

Sifat nima? Mahsulot sifati deganda, uni iste‘mol qilish xususiyatlarining majmuyi tushuniladi. Har bir ishlab chiqariladigan mahsulot u yoki bu foydali xususiyatga ega bo‘ladi, kishilarning ko‘p tomonlama ehtiyojlaridan birontasini qondirish imkonini beradi. Ammo mahsulotning foydaliligi darajasi, uning maqsadga muvofiqligi har xil bo‘lishi mumkin.

Mahsulot sifati korxonada ishlab chiqarish jamoasi ish samaradorligining pirovard ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat madaniyati va intizomi o‘z aksini topadi.

Mahsulotning yuqori sifatli bo‘lishi texnologik intizomga rioya qilish, ishchi va mutaxassislarining o‘z kasblarini yaxshi egallaganligi, vazifasiga mas‘uliyat bilan munosabatda bo‘lishiga bog‘liq. Uning yuqori sifatini ta‘minlash uchun

ishni izchillik bilan bajarish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ustirish zarurdir. Mahsulot sifatini oshirish uchun qat'iy qurash har bir mehnat jamoasi a'zosining asosiy faoliyat mezonini bo'lib qolmog'i kerak.

10.2. Mahsulotni standartlashtirish

Barcha ijtimoiy jarayonlarga xos bo'lgan rejali, iqtisodiy samaradorlik standartlashga ham taalluqdir. Bulardan tashqari, standartlashning quyidagi o'ziga xos prinsiplari mavjuddir:

- optimallik;
- dinamiklik;
- progressivlik;
- komplekslilik;
- direktivlik.

Bu prinsipga ega bo'lgan barcha standartlar tashkilot va korxonalar uchun qonun kuchiga egaligini bildiradi. Standartga bo'ysunmaslik qonun bo'yicha taqiqlandi.

Barcha korxonalarda qo'llaniladigan kategoriyadagi standartlarni ishlab chiqishni rejalashtirishda va ularga xos umumiylik va tashkiliy-uslubiy birlikka erishish uchun standartlarni ishlab chiqish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

I. Standartlarni ishlab chiqishda texnikaviy talablarni ishlab chiqish va uni muhokamadan o'tkazish.

II. Standart loyihasini (birinchi nusxasi) ishlab tayyorlab taqrizga yuborish.

III. Olingan taqrizlarni ishlab chiqish, (oxirgi nusxasini) ishlab tayyorlash va ularni tasdiq uchun yuborish.

IV. Standartlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va tasdiqlash. Har bir standart uchun izoxnoma tuzilib unda quyidagi talablar o'z aksini topadi:

- standartni ishlab chiqarishdagi asos;
- standartni ishlab chiqishdan maqsad va uning vazifasi;
- standart obyektining tavsifi;
- standartning ilmiy-texnika darajasi;
- standartni joriy etishdan olinadigan texnik iqtisodiy samaradorlik;
- standartni joriy qilish muddati va uning xarakterdagi muddati;
- boshqa standartlar bilan aloqasi;
- taqrizga yuborilganligi haqidagi axborot.

Taqrizga junatilgan loyihalar yuqoridagi talablarga javob bera olsa, loyihalarni birinchi sahifasiga shu mahsulotlarni iste'mol qiladigan idoralar rahbariyati «Kelishilgan» deb imzo chekadi.

Standartlashtirish metrologiya va sertifikatlash O'zbekiston Davlat markazi ro'yxatidan o'tkazilib, uning texnik shartlari belgilab qo'yiladi. Texnik shartlar shartli belgisining 3—4 qismlari standart ishlab chiqaruvchi korxonaga qaysi tarmoq va uning qaysi bo'limiga qarashini ko'rsatadi. OST va RST shartli belgilarining 3- qismi standartni tasdiqlagan tarmoqni yoki respublika nomini bildiradi. Xom ashyolar sifati, tayyor mahsulotlarga bo'lgan iste'molchilar talabalarining o'sishi, ularni sinash uslublari o'zgarishlarini e'tiborga olgan holda, standartlar vaqt-vaqti bilan qayta qurilib, o'zgartirib boriladi.

Mahsulot sifatini, uning texnikaviy-iqtisodiy darajasini baholash uchun qator ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichlar mahsulotning xususiyati va uning inson uchun qaysi maqsadda foydalanishi bilan bir-birlaridan farqlanadi.

Mahsulotlarning inson organizmi uchun foydaliligi darajasini baholash quyidagicha:

- mahsulotning yagona sifati;

- mahsulotning kompleks xususiyatlari;
- mahsulotning umumiy ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Mahsulot sifatini oshirish bo'yicha topshirik, va tadbirlar barcha birlashma va korxonalar xo'jalik faoliyati yillik rejalarining tarkibiy qismiga kiradi. Birlashma va korxonalar tomonidan oliy sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari yoki maxsus tarmoq, uchun belgilangan boshqa ko'rsatkichlar yillar bo'yicha taqsimlab tasdiqlanadi. Mahsulot sifatini rejalashtirishda iste'molchilar reklamasiyalari (e'tirozlari) asosida sifatsiz mahsulotlar ishlab chiqarishi tufayli yuz beruvchi yo'qotishlar tanqidiy munosabat asosida tahlil qilinadi. Yo'l qo'yilgan xatolarning sabablari va aybdorlar aniqlanib moliyaviy chora ko'rish bilan yuqoridagi nuqsonlar yo'qotiladi. O'z obro'yini qadrlaydigan korxonalar jamoasi e'tirozlarni kutib o'tirmay, mahsulot iste'molchilari bilan aloqa o'rnatib, ularning sifatga bergan baholarini maslahat va istaklarini inobatga olgan holda rejalarini ishlab chiqadilar. Mahsulot sifatini oshirish uchun korxonalar barcha tadbirlarni e'tiborga olgan holda reja tuzadi. Chunki mahsulot sifati korxonalar faoliyatining barcha texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan mustahkam bog'liqdir.

Sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun tegishli texnik tadbirlar zarurdir, ammo har qanday eng mukammal texnika va texnologiya ham vaqt o'tishi bilan dastlabki aniqlik qobiliyatini (xususiyatini) yo'qotadi. Shuning uchun ham korxonalarda uskunalarning aniqlik qobiliyatini ko'rsatuvchi laboratoriya tekshiruvlari va boshqa nazorat sistemasi o'tkazish, uni tartibi ravishda davlat standart nazoratidan o'tkazib turish, eskirgan mashina va texnologiya yo'llarini yangisi bilan almashtirib turish talab etiladi. Ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida tayyor mahsulotning sifati

ko'p jihatdan ularning saqlanishi bo'yicha samarali tadbirlarga bog'liq. Bunda xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni omborlarga joylash va asrash, ularni o'rash, joylash, tashish katta ahamiyatga ega. Qator korxonalarda texnologik intizomning buzilishi tufayli sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishga yo'l qo'yiladi. Ularning sababi standartdan, texnik sharoitlardan yoki boshqa normalardan cheklanish bilan mahsulot ishlab chiqarish va boshqa sabablar — texnologik intizomni qo'pol buzgani, sifatsiz mahsulot tayyorlagani yoki moddiy boylikni ehtiyotsizlik bilan nobud qilganligi uchun birlashma, korxonaga ma'muriyatlari uch oy muddatgacha ishchining malaka razryadini pasaytirish huquqiga ega.

Texnik nazorat qilish. Yuqorida aytib o'tilganlarni amalga oshirish uchun korxonalarda mahsus texnik nazorat bo'limlari (TNB) faoliyat ko'rsatadi. Aytib o'tilgan tadbirlarni qo'llash natijasida mahsulot sifati oshadi, korxonaga samarasi esa ortadi.

10.3. Mahsulot sifatini oshirishning samarasi

Mahsulot sifatini oshirish natijasida mahsulot tayyorlovchilar: mahsulot iste'molchilari va xalq xo'jaligi katta samaraga ega bo'ladi. Masalan: 1. Mahsulot tayyorlovchilar uchun: Resurslardan unumli foydalanish:

- a) sifatsiz (brak) mahsulotlar ishlab chiqarmaslik;
- b) uni qayta ishlash, reklamasiyalardan keladigan zararlarni qisqartirish;
- v) govori sifatli mahsulot realizatsiyasidan olinadigan daromadni ko'paytirish;
- g) iqtisodiy rag'batlantirish, yuqori sifatli mahsulot uchun musobaqa ilg'orlarini rag'batlantirishning ma'naviy shakllarini ishlab chiqish.

II. Mahsulot iste'molchilari uchun:

a) yuqori sifatli kamyob buyumlar bilan ta'minlash.

b) xaridorga taklif qilinadigan buyumlarni kengaytirish va yangilash.

v) ishlatish va foydalanish jarayonidagi xarajatlarni kamaytirish;

g) aholining mehnati, turmush va dam olishiga yana qulayroq sharoitlar yaratish.

III. Xalq xo'jaligi uchun:

a) aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish;

b) xalq xo'jaligida texnika samaradorligini oshirish;

v) eksport-importni kengaytirish.

Mahsulot sifatini yaxshilashdan maqsad iqtisodiy samaradorlikka erishilgan holda eng kam ijtimoiy mehnat sarflab, iste'molchilar talabini yanada to'laroq, qondirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Nazorat savollari

- 1. Mahsulot sifati deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Standartlashtirish nima va undan ko'zlangan maqsad nima?*
- 3. Sifatli mahsulot ishlab chiqarishni jamiyatga qanday foydasi bor?*
- 4. Sertifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?*

11-mavzu. ISHLAB CHIQRARISH QUVVATI VA UNING KORXONA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHDAGI ROLI

11.1. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi

Mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'la qondirish asosiy va aylanma fondlar ahamiyati katta. Mamlakat sanoati, boshqa tarmoqlari, korxonalari qanchalik ko'p resurslarga ega bo'lsa, ulardan to'la-to'kis, oqilona foydalana olsa, albatta buyuk davlatga aylanadi.

Har qanday ishlab chiqarish jarayonida mehnat buyumlari, mehnat qurollari (mehnat vositalari) va inson mehnati ishtirok etadi. Mehnat buyumlariga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i, elektr quvvati, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar va h.k.lar kiradi. Mehnat vositalariga mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, yuk tashuvchi va uzatuvchi vositalar, kompyuter va laboratoriya anjomlari, bino va inshootlar kiradi.

Mehnat buyumlari va vositalarining birgalikda qiymat shaklida ifodalanishi ishlab chiqarish fondlarini tashkil etib, ishlab chiqarish jarayonida qatnashish roliga ko'ra asosiy va aylanma fondlarga ajratiladi. Mehnat qurollari asosiy fondlarni, mehnat buyumlari esa aylanma fondlarni tashkil etadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb ishlab chiqarish jarayonida bir necha marta moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etadigan hamda natural shaklini saqlagan holda o'z

qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga asta-sekinlik bilan o'tkazib boradigan mehnat vositalariga aytiladi.

Asosiy fondlar ulardan foydalanish maqsadiga ko'ra ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita qatnashishiga qarab, ular ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan va qatnashmaydigan fondlarga ajratiladi.

Ishlab chiqarishda qatnashadigan asosiy fondlarning maqsadi moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etishga qaratilgan bo'lsa, ishlab chiqarishda qatnashmaydigan asosiy fondlarning maqsadi xodimlarning moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir.

Sanoatning asosiy fondlari mamlakat milliy boyligining muhim qismini tashkil etib, bu ko'rsatkich mustaqillik yillarida yildan yilga oshib bormoqda.

Asosiy fondlarni hisoblash, tahlil qilish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni rejalashtirish va bashorat qilish maqsadida ularni guruhlarga ajratish kerak bo'ladi.

Asosiy fondlar turli tasnifga muvofiq va ishlab chiqarish vazifasining har turliligi va tabiiy-moddiy belgilarga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Kerakli mehnat sharoitlarini ta'minlaydigan bino va arxitektura-qurilish obyektlari. Binolarga sexlarning ishlab chiqarish korpuslari, depolar, garajlar, omborxonalar, ishlab chiqarish xonalari va laboratoriyalar kiradi.

2. Inshootlar — ishlab chiqarish jarayonining bajarilishi uchun kerak bo'lgan mehnat buyumlarini o'zgarishi bilan bog'lanmagan texnik vazifalarni bajarilishi uchun mo'ljallangan muhandis-qurilish obyektlari (nasos stansiyalar, tunnellar, ko'priklar va h.k.).

3. Uzatuvchi uskunalar — bular har xil turdagi energiya, suyuq va gazsimon moddalar uzatadigan uskunalar.

4. Mashinalar va asbob-uskunalar; shu jumladan:

— energiyani, suyuq va gazsimon moddalarni ishlash va almashtirishga mo‘ljallangan kuch mashinalari va asbob-uskunalar (generatorlar va gazogeneratorlar, elektrogeneratorlar, bug‘ qozonlari, havo kompressorlari);

— ishchi mashinalari va asbob-uskunalar. Ular mehnat buyumlariga bevosita ta’sir o‘tkazadilar. Bularga dastgohlar, presslar, konveerlar va boshqa turli yordamchi asbob-uskunalar: o‘lchov va to‘g‘rilash asbob-uskunalari, laboratoriya asboblari, hisoblash mashinalari, kompyuterlar kiritiladi.

5. Transport vositalari.

6. Ishlab chiqarish inventarlari.

7. Xo‘jalik inventarlari.

8. Boshqa asosiy fondlar.

Mehnat buyumlariga ta’sir etish darajasiga qarab asosiy ishlab chiqarish fondlari aktiv va passiv fondlarga bo‘linadi.

Aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlariga mehnat buyumlari shaklini o‘zgartiruvchi, ya’ni bevosita ta’sir etuvchi fondlar (mashinalar, asbob-uskunalar, texnologik liniyalar, o‘lchov va to‘g‘rilash asboblari, transport vositalari) kiradi.

Passiv asosiy ishlab chiqarish fondlariga mehnat buyumlariga bilvosita ta’sir etuvchi, ya’ni ishlab chiqarish jarayonining normal o‘tishiga kerak sharoit yaratuvchi ishlab chiqarish fondlari kiradi (bino va inshootlar, h.k.). Asosiy fondlar tarkibini o‘rganishda ularning strukturasi (tuzilmasi) masalasiga ham e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Asosiy fondlarning strukturasi deb, uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning, guruhlarining har birinining umumiy qiymatidan nisbatga aytiladi. Asosiy fondlarning strukturasi konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish, kombinatsiyalashtirish, yangi korxonalar qurish va modernizatsiyalashga sarflangan kapital mablag‘larning texnologik

tuzilishi, korxonalarining hududiy joylashishi, tayyorlanadigan mahsulotning xususiyati va hajmi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi qancha ko'p bo'lsa, shuncha ishchi mashinalar va asbob-uskunalarining tutgan o'rnini ko'proq bo'ladi.

11.2. Asosiy fondlarni baholash

Asosiy fondlarni baholashning quyidagi turlari qo'llaniladi: 1) dastlabki to'la qiymat orqali belgilangan baho; 2) qiymatini qaytadan tiklash orqali belgilangan baho; 3) qolgan qiymati orqali belgilangan baho;

Dastlabki to'la qiymat orqali belgilangan baho (O_b) asosiy fondlarning sotib olingan bahosi (S_b), asosiy fondlarni olib kelish uchun qilingan transport xarajatlari (X_t) va montaj xarajatlari (X_m)ni o'z ichiga oladi.

$$O_b = S_b + X_t + X_m.$$

Bu baho korxonaga (firma)ning asosiy ishlab chiqarish fondlarini sotib olish va ishga tushirish uchun qilgan haqiqiy xarajatlarini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich korxonaga (firma) balansida hisobga olinadi. Ammo asosiy fondlarning dastlabki to'la qiymat orqali belgilangan bahosi ularning hajmini va turli yillarda qurib ishga tushirilgan korxonaga (firma)lar asosiy fondlarini taqqoslashda yetarli emas, shuning uchun asosiy fondlarni baholashda qiymatini qaytadan tiklash orqali belgilangan bahodan foydalaniladi.

Baholashning bu usuli asosiy fondlarning har xil davrda ishlab chiqarilgan va olingan baholarni hozirgi yangi sharoitdagi bahoda ifodalash imkoniyatini beradi. Qiymatni qaytadan tiklash orqali belgilangan baho amaldagi asosiy fondlarning jismoniy holati va ma'naviy eskirishini hisobga

olgan holda qayta baho qo'yish orqali aniqlanadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida ishtirok eta borib asta-sekin ishdan chiqa boradi, shuning uchun ularga baho belgilashda ularning ishdan chiqish va yoyilish qismi hisobga olinadi. Shu tufayli asosiy fondlarni baholashda qolgan qiymati orqali belgilangan baho ham qo'llaniladi. U ikki xil baho bilan ifodalanadi: a) asosiy fondlarning ishdan chiqqan qismini ularning dastlabki to'la qiymatidan ayirib tashlash orqali aniqlangan qiymat; b) asosiy fondlarning ishdan chiqqan qismini ularning qaytadan tiklangan qiymatidan ayirib tashlash orqali aniqlangan qiymat. Asosiy fondlar juda eskirib, yaroqsiz holga kelgan, qaytadan tiklash, kapital remont qilish yoki modernizatsiya qilish natija bermaydigan hollarda ularni ishlab chiqarishdan olib tashlash zarur bo'lib qoladi. Bunday hollarda asosiy fondlarni ishdan chiqarib tashlash bahosi aniqlanadi. Bu baho ishdan chiqqan, ishlab chiqarishdan chiqarib tashlanadigan asosiy fondlarni (temir-tersak narxida) realizatsiya qilish bahosidir.

11.3. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiasi

Ishlab chiqarishda qatnashadigan asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida yillar o'tishi bilan eskiradi va o'z sifatini yo'qota boradi. Asosiy fondlar ishlab chiqarishda uzoq muddat ishtirok etganligi tufayli vaqt o'tishi bilan jismoniy va ma'naviy jihatdan eskiradi.

Jismoniy eskiradi deganda, asosiy fondlarning ishlab chiqarish jarayonida foydalanishi natijasida butunlay yoki qisman buzilishi, yemirilishi tushuniladi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin ishlab chiqarishda ishlab turgan mehnat qurollari ishga butunlay va qisman jismoniy yaroqsiz bo'lib

qoladi, bunday hollarda ular yangisi bilan almashtiriladi yoki ayrim qismlari kapital ta'mirlanadi yoki modernizatsiya qilinadi. Jismoniy eskirish natijasida asosiy fondlarning qiymati yo'q bo'lib ketmaydi, balki tayyorlangan mahsulot qiymatiga ko'chiriladi.

Korxonalarda faqat ishlatilayotgan mashina va asbob-uskunalarina emas, balki bekor turganlari ham eskiradi. Mashina va asbob-uskunalarining jismoniy eskirish miqdori ularning xizmat qilish muddati va darajasiga nisbatan aniqlanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligining o'sishi tufayli ishlab turgan mashina va asbob-uskunalar qiymatining kamaytirilishi hamda eskilariga nisbatan unumli va tejamli yangi mashinalar kashf etilishi, ularning ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida ishlatilayotgan mashinalarning jismoniy yeyilish muddati tugamasdan turib, ularni qadrsizlanishi – asosiy fondlarning **ma'naviy eskirishi** deb ataladi. Ma'naviy eskirish asosiy fondlarning bahosini vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqishni ko'p jihatdan zarur qilib qo'yadi. Eskirgan asosiy fondlarni yangilari bilan almash-tirish rejali ravishda eng kam mehnat va mablag' sarf qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida asta-sekin eskirib, o'z qiymatining ma'lum qismini **amortizatsiya** sifatida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot qiymatiga o'tkazib boradi.

Amortizatsiya – (lotincha amortisatio — qoplash), asosiy kapital fondlar amortizatsiyasi – asosiy kapital (mashina va mexanizmlar, jihozlar va uskunalar, binolar va inshootlar)ning ekspluatatsiya jarayonida eskirishi va ayni paytda ular qiymatining muayyan davr davomida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotga o'tib borish jarayoni hisoblanadi.

Asosiy vositalar moddiy yoki jismonan va ma'nan eskiradi. Moddiy eskirish mehnat vositalaridan foydalanish jadalligi va uning korxonada ishlatilgan muddatlari bilan belgilanadi. Ma'naviy eskirish fan va texnika taraqqiyoti natijasida mehnat vositalarining arzonlashuvi hamda iqtisodiy jihatdan mukammal bo'lgan yangi mehnat vositalarining yaratilishi va joriy qilinishi bilan bog'liq. Amortizatsiya me'yori asosiy fondlar turiga, xizmat qilish muddatiga ko'ra tabaqalashtiriladi. Amortizatsiya qiymati ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxiga kiritib boriladi. Mahsulot sotilgach, bu qiymat **amortizatsiya ajratmalari** ko'rinishida eskirgan jihozlar o'rniga yangisini sotib olish uchun zarur bo'lgan mablag'lar summasi tarzida jamg'ariladi.

Amortizatsiya ajratmalari — mahsulot tannarxiga kiritiladigan asosiy fondlar amortizatsiyasi summasi; asosiy fondlarni qisman tiklash (kapital ta'mir va yangilash) va to'liq tiklash (renovatsiya) fondlarini yaratishga xizmat qiladi. Amortizatsiya ajratmalari davlat tomonidan tartibga solinadi. Amortizatsiya ajratmalari **ta'minlanishi kerak** bo'lgan asosiy shart asosiy fondlar eskirishini to'liq qoplashi va ularni takror yaratish hisoblanadi.

Amortizatsiya ajratmalari asosiy fondlarning o'zini yoki uning ba'zi qismlarini yangilash vaqti kelguncha shu shaklda ma'lum fondda jamg'arilib turiladi va bu fondni **amortizatsiya fondi** deb ataydilar. Demak, amortizatsiya fondi — amortizatsiya ajratmalari hisobiga shakllanadigan maxsus fonddir.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

— asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalarining summasi (hisoblangan eskirish);

— lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, jadallashtiriladigan amortizatsiya summasi.

Amortizatsiya ajratmalari belgilangan normalar bo'yicha tayyor mahsulotning tannarxiga kiritiladi va u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N_a = (F_1 - F_t) / (T_a \cdot F_1) \cdot 100\%,$$

Bu yerda:

F_1 — asosiy fondlarning dastlabki yoki tiklash qiymati;

F_t — asosiy fondlarning tugatish qiymati;

T_a — asosiy fondlarning normativ ishlash muddati (amortizatsiya vaqti).

Amortizatsiya normasining darajasi asosiy fondlarning eskirgan qismini tiklash uchun zarur bo'lgan resurslar hajmini aniqlaydi. Amortizatsiya normasi bilan asosiy fondlarning aylanish tezligi belgilanadi va ularni qayta ishlab chiqarish jarayoni jadallashtiriladi.

Asosiy fondlarning to'liq tiklashni amortizatsiya ajratmalar jami quyidagi formulaga asoslanib hisoblanadi:

$$A_a = N_a \cdot F,$$

Bu yerda:

N_a — amortizatsiya normasi;

F — asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati.

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish, rejalashtirish, hisob-kitob qilish, ulardan foydalanishning samaradorligini ifodalash uchun juda ko'p ko'rsatkichlar kerak bo'ladi.

11.4. Asosiy fondlardan foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari

Fond qaytimi — bu bir so'mlik asosiy fond ishtirokida qancha mahsulot ishlab chiqarish mumkinligini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$F_k = Q / F_{as}$$

Bu yerda, F_k — fond qaytimi (so'm hisobida);

Q — ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati (so'm hisobida);

F_{as} — asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati.

Fond sig'imi — bu fond qaytimiga teskari ko'rsatkich bo'lib, ma'lum miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish uchun qancha asosiy fond kerakligini ifodalaydi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$F_s = F_{as} / Q$$

Mehnatning fond bilan ta'minlanganligi har bir ishlovchi hisobiga qanchadan asosiy vositalar to'g'ri kelishini bildiradi va u quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$F_{bt} = F_{as} / X_{ym}$$

Bu yerda, X_{ym} — xodimlarning yillik o'rtacha miqdori (kishi hisobida).

Asosiy fondlardan foydalanishni ifodalaydigan ko'rsatkichlardan yana biri — bu jihozlardan foydalanish yoki texnik ko'rsatkichlar.

a) **ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti** (K_e). U jihozlarning rejali ish vaqti fondida (T_{jr}) haqiqiy ishlagan vaqti (T_{jx}) darajasini ko'rsatadi:

$$K_e = T_{jx} / T_{jr}$$

b) *intensiv foydalanish koeffitsiyenti* (K_{in}). U jihozlarning minimum mahsulot ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan miqdoriga (M_{ch}) nisbatan haqiqiy ishlab chiqargan mahsulot miqdori (M_x) darajasini ko'rsatadi:

$$K_{in} = M_x / M_m.$$

11.5. Ishlab chiqarish quvvati va undan foydalanish sxemalari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri mavjud ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashdir. Mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan qanchalik to'la va unumli foydalanilsa, ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi, mahsulotning tannarxi kamayadi, korxonaning foydasi va samaradorligi oshadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati vaqt birligi ichida belgilangan assortiment va nomenklatura, mavjud dastgohlar, ishlab chiqarish maydonlaridan to'liq foydalanilgan holda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini ifodalaydi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati natura birligida o'lchanadi. Masalan, metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish quvvati tonnada, to'qimachilikda yigirilgan ip tonnada, gazlamalar metrda, avtotraktor tarmoqlarida avtomobillar va traktorlar donalab o'lchanadi.

Ishlab chiqarish quvvati korxonaning texnik darajasi, unumdorligi, kadrlar malakasi, xom ashyolarning sifati va mahsulotlarning assortimentiga qarab o'zgara boradi.

Korxonalarda ishlab chiqarish quvvatini hisoblash uchun quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

— mavjud uskunalar va agregatlarning soniga rejalashtirish davrida yangitdan kiritilgan uskunalar qo'shiladi, bunda

jismoniy va tabiiy sharoit ta'sirida yemirilgan uskunalar hisobga kiritilmaydi;

— korxonalar va sexlarning ishlab chiqarish maydonlari haqidagi ma'lumot;

— korxonalarning ish rejimi, ya'ni smenalar soni (ta'mirlashga to'xtash vaqtisiz), ish vaqti fondi;

- uskunalar, agregatlarning unumdorlik normasi.

Ishlab chiqarishda turli uskunalardan foydalanish, korxonaning quvvati asosiy texnologik jarayonlarni bajaradigan yetakchi sexlar, bo'linmalar yoki agregatlarning quvvatlariga binoan hisoblanadi.

Turli korxonalar (birlashmalar)ning ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda ularning xususiyatlari inobatga olinadi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q = D_s \cdot D_u \cdot D_{iv},$$

bu yerda,

Q — korxonaning ishlab chiqarish quvvati;

D_s — bir turdagi dastgohlar soni;

D_u — vaqt birligidagi bir dona dastgohning unumdorligi;

D_{iv} — dastgohlarning ishlash vaqti.

Yil boshida belgilangan ishlab chiqarish quvvati — kirish quvvati, yil oxiridagisi esa chiqish quvvati deyiladi. O'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q_{ur} = Q_k + (Q_t \cdot N_1) / 12 - (Q_{ch} \cdot N_2) / 12,$$

bu yerda,

Q_k — kirish (rejalashtirilayotgan yil boshidagi) quvvat;

Q_t — yil davomida ishga tushirilgan quvvat;

Q_{ch} — chiqish (yil oxiridagi) quvvat;

N_1 — rejalashtirilayotgan davrdagi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanilmagan oylar soni;

N_2 – rejalashtirilayotgan davrda, ishga tushirilgan ishlab chiqarish quvvatidan foydalanilgan oylar soni.

Asosiy fondlardan va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, kapital mablag‘ sarflamay qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarishga, mahsulot tannarxini kamaytirishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda respublikada ulardan unumli foydalanishga katta e‘tibor berilmoqda.

Sanoat asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari samaradorligini oshirishda korxonalarda texnologik uskunalarning ish smenasini ko‘paytirish katta ahamiyatga egadir.

Uskunalardan intensiv foydalanishni yaxshilash uchun korxonaning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, mashinalarning ish tezligini oshirish, metall quyishga, ximiyaviy jarayonlarga sarflanadigan vaqtni qisqartirish, shuningdek, kadrlar malakasining texnikaviy saviyasini oshirish zarur.

Nazorat savollari

- 1. Asosiy fondlarning mohiyati, ahamiyati, tarkibi va strukturasi.*
- 2. Kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishda asosiy fondlar.*
- 3. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi.*
- 4. Asosiy fondlarni ta‘mirlash va modernizatsiya qilish.*
- 5. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash ko‘rsatkichlari va yo‘llari.*
- 6. Ishlab chiqarish quvvatlari tushunchasi va uni aniqlash usullari.*
- 7. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash masalalari.*

12-mavzu. KORXONANING AYLANMA MABLAG‘LARI

12.1. Aylanma mablag‘lar tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxonada faoliyatidagi ahamiyati

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishda mehnat qurollari (asosiy fondlar) va ishchi kuchidan tashqari, **aylanma mablag‘larga** ham ega bo‘lishlari zarur. Aylanma mablag‘lar ishlab chiqarishning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil qilishga mo‘ljallangan pul mablag‘laridan iborat. Aylanma mablag‘lar, qoidaga ko‘ra, korxonaning hisob raqamida naqd pul ko‘rinishida jamg‘ariladi. Aylanma mablag‘lar ishlab chiqarish va uning uzluksizligini ta‘minlashning moddiy asosi hisoblanadi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari — ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etib, o‘z qiymatini tayyorlanadigan mahsulotga to‘la o‘tkazib natural shaklini saqlaydigan mehnat buyumlariga aylanma fondlar deyiladi.

Aylanma fondlar 2 guruhga bo‘linadi. Ishlab chiqarishdagi va muomiladagi aylanma fondlar.

— Korxonada aylanma ishlab chiqarish fondlari qatoriga xom ashyo va materiallar zahirasi, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg‘i va energetika resurslari, qadoqlash va o‘rov materiallari, ehtiyot qismlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelajakdagi xarajatlarni kiritish mumkin.

— Kelgusi davr xarajatlari.

Muomala aylanma fondlari korxonaning tayyor mahsulot zahirasini yaratish uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari,

shuningdek, chek va vekselar, aksiyadorlarning qarzlari, turli xil debitorlik qarzlari, bank va kassalarning hisob raqamlaridagi mablag'lardan iborat bo'ladi

Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxonada aylanma mablag'larining eng faol qismi bo'lsa, muomala fondlari ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi hamda yangi iste'mol qiymatini yaratmaydi. Bu yerda umumiy qoida shundayki, aylanma mablag'lar doimo aylanishda bo'lishi zarur - ularning samaradorligi va korxonada iqtisodiyotiga ta'siri aynan shunda ko'zga tashlanadi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxonada aylanma mablag'larining asosiy va salmoqli qismi sifatida o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

— **ishlab chiqarish zahiralari** — bu ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarishga kiritish uchun tayyorlangan hamda xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, xarid qilinuvchi yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, qadoqlash va o'rov materiallari, asosiy fondlarni ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, yoqilg'i-moylash materiallaridan tashkil topuvchi mehnat predmetlari;

— **tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar** — bu, ishlab chiqarish jarayonida foydalanishga topshirilgan hamda ishlov berish va yig'uv jarayonida bo'lgan, lekin ishlab chiqarish jarayoni to'liq tugallanmagan hamda ushbu korxonada keyinchalik ishlov berilishi lozim bo'lgan mehnat predmetlari;

— **kelgusi davr xarajatlari** — ayni paytda ishlab chiqarilayotgan, lekin kelajakdagi mahsulotlarga mansub bo'lgan yangi turdagi mahsulotlarni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlari (masalan, asbob-uskunalarni qayta rejalashtirish, mahsulotlarning yangi turlarini tayyorlash va loyihalashtirishga sarflanuvchi xarajatlar va boshqalar).

Aylanma ishlab chiqarish fondlari alohida tarkibiy qismlari yoki elementlari o'rtasidagi foizlarda ifodalanuvchi o'zaro munosabatlar **aylanma ishlab chiqarish fondlarining tuzilmasini** tashkil qiladi.

Aylanma fondlar tuzilmasi nafaqat sanoatning turli tarmoqlarida, hattoki bir tarmoq va bir korxonaning o'zida ham farqlanadi. Bunday farqlanishga turli xildagi xom ashyo va materiallar, ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasidagi farqlar, korxonalarining geografik joylashuvi, ishlab chiqarishning tashkil etilishi va mehnat taqsimoti, moddiy-texnika ta'minoti sabab bo'lishi mumkin.

Korxonalar aylanma mablag'lari tarkibi va tuzilmasiga xo'jalik yuritish qobiliyati va uning samaradorligiga rioya qilish qoidalari katta ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni korxonalar ishlab chiqarish zahiralari va aylanma mablag'larning ta'minlanganligini haddan tashqari oshirishga intilmasligi zarur. Amaliyotning guvohlik berishicha, bu, resurslarning halok bo'lishiga va sun'iy tanqislikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu sababli xom ashyo va materiallarni sarflashning texnologik normalariga rioya qilish, ularni saqlashni to'g'ri yo'lga qo'yish, chiqitlar va yo'qotishlarni kamaytirish, zamonaviy va arzon materiallardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Biroq arzon materiallardan foydalanish doim ham korxonalar imkoniyatlari va xohishidan kelib chiqavermaydi va tashqi muhit, birinchi o'rinda ishlab chiqarishdagi hamkorlar, bahoni shakllantirish, umumiy iqtisodiy barqarorlik va boshqa omillar bilan ham bog'liq bo'ladi.

Aylanma mablag'larning to'liq aylanishi uch bosqichdan iborat bo'lib, bu jarayonda mahsulot ishlab chiqariladi va sotiladi.

Birinchi bosqichda aylanma mablag'lar pul shaklidan moddiy boyliklarning ishlab chiqarish zahiralari aylanadi, ya'ni pul-tovar (P-T).

Ikkinchi bosqich ishlab chiqarish, yani mahsulotni tayyorlash jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda aylanma mablag‘lar va birinchi o‘rinda aylanma fodlar tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar holiga keltirilib, tovar shaklini oladi (T).

Uchinchi bosqichda aylanma mablag‘lar tovar mahsuloti shaklida muomalaga kiritilib, sotiladi va yana pul shaklini oladi (T-P).

Shu tariqa aylanma mablag‘lar barcha bosqichlardan o‘tib, to‘liq aylanishni amalga oshirishini quyidagi tarzda aks ettirish mumkin:

- 1-bosqich — pul-tovar (P-T);
- 2-bosqich — ishlab chiqarish (I.Ch);
- 3-bosqich — tovar-pul (T-P).

Shuni qayd qilib o‘tish muhimki, korxonaning aylanma mablag‘lari bir vaqtning o‘zida uchala bosqichda ham pul mablag‘lari, ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ko‘rinishida mavjud bo‘lishi mumkin.

Aylanma mablag‘larni boshqarish mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzluksizligini ta‘minlashda aylanma mablag‘lardan iloji boricha kamroq foydalanishda ifodalanadi. Bu esa korxonada aylanma mablag‘lari aylanishining barcha bosqichlarida mos ravishda minimal, lekin yetarli tarzda ratsional taqsimlanishi zarurligini anglatadi. Bu vazifa o‘z navbatida moddiy resurslar zahiralari va xarajatlarini normalashtirish tufayli muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Aylanma mablag‘larni normalashtirish korxonaning uzluksiz ishlashi ta‘minlaydigan moddiy boylik va boshqa resurslarning minimal, lekin yetarli zahiralari shakllantirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larini aniqlashda ifodalanadi.

U ichki zahiralarni aniqlash, ishlab chiqarish sikli davomiyligini qisqartirish va tayyor mahsulotni tezroq sotish imkon yaratadi.

Aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirish nafaqat korxonaga uchun, balki butun xalq xo'jaligi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. U resurslarning nisbiy ozod qilinishi, ijtimoiy xarajatlarning kamaytirilishiga ko'maklashadi va iqtisodiy rejalashtirish sur'atini oshiradi.

12.2. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari

Korxonaga aylanma mablag'laridan samarali foydalanish uchta asosiy ko'rsatkichni tavsiflaydi:

- 1) aylanish koeffitsiyenti;
- 2) aylanma mablag'larning yuklanish koeffitsiyenti;
- 3) vositalarning bir marta aylanishi davomiyligi.

Aylanish koeffitsiyenti korxonaga aylanma mablag'larining ma'lum bir vaqt (yil, chorak) davomida amalga oshiruvchi aylanishini tavsiflaydi yoki aylanma mablag'larning har 1 so'miga to'g'ri keluvchi sotilgan mahsulotlarni ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_a = P_m : S_a$$

Bu yerda:

P_m – sotilgan mahsulot hajmi, pul o'lchovida;

S_a – aylanma mablag'larning o'rtacha qoldiq hajmi, pul o'lchovida (aylanma mablag'lar normativi).

Aylanma mablag'larni yuklanish koeffitsiyenti aylanish koeffitsiyentiga teskari bo'lgan qiymatdir. U sotilgan har 1 so'm mahsulotga sarflangan aylanma mablag'larni tavsiflaydi hamda quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K = S_a : P_m.$$

Bir marta aylanish davomiyligi kunlarda o'lanadi hamda shu davrdagi kunlar sonini aylanish koeffitsiyentiga nisbati orqali quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$T = D : K_a$$

Bu yerda:

D — shu davrdagi kunlar soni (360, 90).

Aylanma mablag'larning to'liq aylanish muddati qanchalik kichik yoki bu aylanishlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lar shunchalik kam talab qilinadi va aksincha, aylanma mablag'lar qanchalik tez aylanishda bo'lsa, shunchalik samarali ishlatiladi.

Bugungi kunda aylanma mablag'larda, ayniqsa, korxonalarining moddiy-tovar boyliklarida band bo'lgan yirik miqdordagi pul mablag'lari ularning to'liq saqlanishiga e'tibor qaratish, ulardan maqsadlarga muvofiq va samarali foydalanish, shuningdek, ularning aylanishini tezlashtirishni talab qiladi. Korxonalar oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish quyidagilarni amalga oshirishni talab qiladi:

- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng qo'llash;
- ishlab chiqarishning barcha jarayonlarida ilmiy jihatdan asoslangan norma va normativlar tizimini yaratish;
- korxonalarni uzoq muddatli xo'jalik aloqalari yuritishga o'tkazish va kooperatsiya qilishni rivojlantirish;
- mahsulotlar, moliyaviy, moddiy va kuch-quvvat resurslarining sifat balansini tuzish;
- boshqarish tizimini tashkil etishning va rag'batlantirishning optimal shakllarini qo'llash.

Nazorat savollari

- 1. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish aylanma fondlaridan qanday farq qiladi?*
- 2. Aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi asosiy elementlar qaysilar?*
- 3. Aylanma mablag'lar tuzilmasi deganda nima tushuniladi? Qaysi omillar uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi?*
- 4. Qaysi ko'rsatkichlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va aylanma mablag'lardan foydalanish darajasini tavsiflaydi?*
- 5. Qaysi omillar aylanma mablag'larning aylanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi?*

13-mavzu. KORXONADA ISHCHILARGA ISH HAQI TO‘LASH

13.1. Ish haqining iqtisodiy mazmuni

Ish haqi yollanma xodim daromadining elementi, unga tegishli ishchi kuchiga bo‘lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarish shaklidir. Shu bilan birga ish beruvchi uchun yollanma xodimlar mehnatiga to‘lanadigan haq ishlab chiqarish xarajatlarining elementlaridan biri hisoblanadi. Ish beruvchi mehnat resurslaridan ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida foydalanish uchun uni xarid qiladi.

Ish haqining mohiyati uning ijtimoiy ishlab chiqarish bosqichlari bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish, uni taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol qilishda bajaradigan funksiyalari (vazifalari)da namoyon bo‘ladi.

1. *Takror ishlab chiqarish funksiyasi.* U xodimlarni, shuningdek ularning oila a‘zolarini ish kuchini takror ishlab chiqarish uchun, avlodlarni qayta ko‘paytirish uchun zarur bo‘ladigan hayotiy ne‘matlar bilan ta‘minlashda iborat. Unda ehtiyojlarning ortib borishidan iborat iqtisodiy qonun o‘z ifodasini topadi. Mazkur funksiya ish haqining davlat tomonidan tartibga solinishi xususiyatlari, ish haqining ish kuchini takror ishlab chiqarishni ta‘min etadigan miqdorini qonuniy darajada belgilash bilan uzviy bog‘liqdir.

2. *Rag‘batlantirish funksiyasi.* Uning mohiyati xodimning ish haqi uning qo‘shgan mehnat hissasiga, korxonaning ishlab

chiqarish-xo‘jalik faoliyati natijalariga bog‘liqligini belgilashdan iborat bo‘lib, bunda xodimni o‘z mehnati natijalarini doimiy ravishda yaxshilab borishga qiziqtirishi lozim.

3. *O‘lchov-taqsimlash funksiyasi.* Bu funksiya iste‘mol fondlarini yollanma xodim bilan ishlab chiqarish vositalari egasi o‘rtasida taqsimlash vaqtida jonli mehnat o‘lchovini aks ettirish uchun mo‘ljallangan. Ish haqi vositasida ishlab chiqarish jarayoni har bir ishtirokchisining mehnat hissasiga muvofiq uning iste‘mol fondidagi alohida ulushi aniqlanadi.

4. *Joylashtirish funksiyasi.* Mazkur funksiyaning hozirgi vaqtdagi ahamiyati jiddiy ravishda oshib bormoqda. Uning mohiyati mehnat resurslarini mintaqalar, iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalar bo‘yicha qulay ravishda joylashtirishdan iboratdir.

5. *Aholining to‘lovga qobil talabini shakllantirish funksiyasi.* Bu funksiyaning vazifasi to‘lovga qobiliyatli talabni muvofiqlashtirishdir. Bunday talab deganda xaridorlarning pul mablag‘lari bilan ta‘minlangan ehtiyojlarining namoyon bo‘lish shakli tushuniladi, shuningdek iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish ham nazarda tutiladi. To‘lovga qobiliyatli talab ikkita asosiy omil — jamiyatning ehtiyojlari va daromadlari ta‘sirida shakllanishi sababli, bozor sharoitida ish haqi yordamida tovarni taklif qilish bilan talab o‘rtasida zarur mutanosiblik o‘rnatiladi.

Ish haqini tashkil etish tamoyillarini ularni amalga oshirishga qaratilgan funksiyalarga muvofiq tasniflash maqsadga muvofiqdir. Har bir tamoyil faqat bitta funksiya bilan emas, balki bir qancha funksiyalar bilan bog‘langan. Shunday bo‘lsa ham, asosiy funksiyani ajratib ko‘rsatish mumkin. Har bir tamoyil birinchi navbatda ana shu funksiyani bajarishga qaratiladi.

Ish haqining mazmunini to‘laroq tushunish uchun nominal va real ish haqi tushunchalarini bilish zarurdir.

Ishchi uchun qanday shaklda va qancha summa ish haqi olishi emas, balki unga qancha miqdorda tovarlar va xizmatlar sotib olishi mumkinligi muhim. Shu sababli nominal va real ish haqi farqlanadi. Nominal ish haqi bu ma’lum vaqt davomida olingan pul summasini yoki pul shaklidagi ish haqini. Real ish haqi ifodalash – bu nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdorini ifodalaydi. Boshqacha aytganda real ish haqi – bu nominal ish haqining «sotib olish layoqati». Demak, real ish haqi nominal ish haqiga va xarid qilinadigan tovarlar (va xizmatlar) bahosiga bog‘liq. Shunday ekan real ish haqi sharoitlar bir xil bo‘lganda, nominal ish haqiga to‘g‘ri mutanosibdir va iste’mol buyumlari va xizmatlar narxining darajasiga teskari mutanosibdir.

Nominal ish haqi — ishlab topilgan pul daromadi darajasini, real ish haqi esa xodimlarning iste’moli va farovonlik darajasini xarakterlaydi.

13.2. Ish haqining shakllari va turlari

Ishlab chiqarishning texnik asoslaridagi, ishchilar mehnatining mazmunidagi, ularga bilim berish va kasbkorlikka o‘rgatish borasidagi o‘zgarishlar munosabati bilan ish haqi shakli va tizimlari ham o‘zgarib boradi. Ish haqini tashkil etishda uning ikkita asosiy shakli: *vaqtbay* va *ishbay* shakllari farqlanadi. Vaqtbay ish haqida uning darajasi xodimning malakasi, mehnatning sifati va ishlagan vaqtiga qarab belgilanadi. U odatda mehnatning natijalarini aniq hisoblab bo‘lmaydigan, balki ular aniq vazifalar doirasini bajarish bilan belgilanadigan vaqtda (masalan, injener-texnik

xodimlar va xizmatchilar, sozlovchilar, elektromontyorlar va shu kabilarga haq to‘lashda) yoki mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonining borishi bilan belgilanadigan va bevosita ishchiga bog‘liq bo‘lmagan paytlarda (masalan konveyerlar va avtomat liniyalarida ishlash) qo‘llaniladi.

Ishbay ish haqida ish haqining miqdori mahsulot birligi uchun belgilangan to‘lovga muvofiq, tayyorlangan mahsulotning soniga bog‘liq bo‘lishini nazarda tutadi. Mahsulot birligi uchun tarif stavkasidagi haqni ishlab chiqarish normasiga taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Ishbay-mukofot tizimi bir qancha ko‘rsatkichlar uchun mukofot berishni nazarda tutadi. Ishbay-progressiv haq to‘lashda ishchining belgilab qo‘yilgan norma doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun asosiy va o‘zgarmas rassenka bo‘yicha ish haqi beriladi, normadan yuqorisiga esa oshirilgan haq bo‘yicha pul to‘lanadi. Ishbay-ish haqining tizimida yakka tartibdagi, jamoa va ijara pudratida qo‘llaniladigan mehnatga haq to‘lash farqlanadi. Bunda olingan tayyor mahsulot uchun uning sifati va ishlab chiqarish chiqimlarini hisobga olib haq to‘lanadi. Haq to‘lashning jamoa shaklida ish haqi brigada, sex va boshqa bo‘linmaning pirovard mehnat natijalariga bog‘liq qilib qo‘yiladi. Bunda har bir xodim faqat o‘ziga berilgan shaxsiy topshiriqlargagina emas, balki shu bilan birga bo‘linmaning butun ish hajmini ham bajarishdan manfaatdor bo‘ladi.

Mamlakatda ish haqining umumiy darajasi jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanish darajasiga: foydalaniladigan asosiy kapital va tabiiy resurslar miqdoriga, texnologiyaga, mehnat sifati va uning unumdorligiga ta‘sir qiluvchi boshqa omillarga bog‘liq.

1) **Aniq mehnat bozorida ish haqining shakllanishi.** Endi ish haqining umumiy darajasidan uning aniq stavkasining

aniqlanishini tahlil qilishga o'tamiz. Ish haqining miqdori avvalo ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif ta'siri ostida shakllanadi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab ishga yollovchining xohishini aks ettiradi.

Kasaba uyushmalari jamoa shartnomalari tuzishda monopoliyat holatga ega bo'lgan tadbirkorlarga qarshilik ko'rsatish yo'li bilan ham ish haqi stavkasini oshirishga erishishi mumkin. Buning natijasida ish haqini oshirish bilan bog'liq qo'shimcha sarflar, yangi ishchi kuchini yollash natijasida olinadigan qo'shimcha mahsulot hajmidan ortiq bo'ladi.

13.3. Ish haqi darajasini tabaqalashtirish

Ishchilarning ish haqini tabaqalashtirish eng avvalo davlat tarif tizimi yordamida amalga oshiriladi. Tarif tizimi majmuyi yordamida tarmoqlar va mamlakat mintaqasi bo'yicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab ishchi va xizmat-chilarning ish haqi darajasi tartibga solib turiladi.

Tarif tizimi – tarif malaka ma'lumotlarini va koeffitsiyentlarini o'z ichiga oladi.

Tarif-malaka ma'lumotlarini ayrim kasblar va mehnat turlarining batafsil ta'rifi, u yoki bu aniq ishni bajaruvchining bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablardan iborat bo'ladi, shuningdek, unda bu ishni tariflash uchun qo'yiladigan razryadlar ham ko'rsatiladi. Birinchi razryad bilan ishchilardan uzoq vaqt tayyorgarlikni talab qilmaydigan eng oddiy ishlar, oxirgi (eng yuqori) razryad bilan esa eng murakkab ishlar tariflanadi. Ulardan ishchilarga malaka razryadlari berish uchun foydalaniladi.

Tarif setkasida razryadlardan tashqari tarif koeffitsiyentlari ham mavjud bo'lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq

to'lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to'lashning o'zaro nisbatini ko'rsatadi Mehnat qilish sharoiti og'ir va zararli bo'lgan ishchilarga tarif stavkasiga qo'shimcha haqlar belgilanadi. Tarif stavkalariga ustamalar shaklidagi haq (razryadlar bo'yicha farqlantirilgan) professional mahorat uchun belgilanadi.

Alohida tarmoqning xalq xo'jalik ahamiyatiga qarab amalda ish haqini va mansab maoshlarini farqlantirish ishlari amalga oshiriladi. Bunda mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yetakchi tarmoqlarga tajribali, malakali kadrlarni jalb etish, bu tarmoqlarda ishchi va xizmatchilar tarkibi barqaror bo'lishini ta'minlaydigan sharoitlarni vujudga keltirish maqsadi ko'zlanadi.

O'zbekiston hududida 2010-y 1-avgustdan boshlab, minimal ish haqi miqdori 45215 so'mni tashkil etdi. Hozirgi kunda 23 ta razryad mavjud bo'lib, (0-22) ni tashkil etadi.

Nazorat savollari

- 1. Ish haqi tushunchasi va uning mohiyatini tushuntirib Bering*
- 2. Minimal ish haqi deganda nimani tushunasiz?*
- 3. Tarif stavkasi deganda nimani tushunasiz?*
- 4. Ish haqining qanday turlari va shakllari mavjud?*
- 5. Ish haqiga qo'shimchalar deganda nimani tushunasiz?*

14-mavzu. ISHLAB CHIQRISHDA XARAJATLAR, FOYDA VA DAROMADLILIK DARAJASI

14.1. Iqtisodiy xarajatlar tushunchasi va uning tarkibi

Korxonalarining bozorga mahsulot yetkazib berishga bo'lgan layoqatini aniqlab beruvchi muhim omili sarf-xarajatlar darajasi orqali hisoblanadi. Har qanday tovarni ishlab chiqarish turli resurslarni sarflarini taqozo qilib, ular ham ma'lum bahoga ega bo'ladi. Bozorga taklif qiladigan tovar miqdor iqtisodiy xarajatlar darajasiga, resurslardan foydalanish samaradorligi va tovarlar bozorda sotilish baholariga bog'liq bo'ladi. Har qanday korxonada nafaqat o'zining tovarini ancha yuqori baholarda sotish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga intiladi.

Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari yoki iqtisodiy xarajatlar deganda, mahsulot ishlab chiqarishga qilinadigan barcha iqtisodiy resurs sarflari tushuniladi. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i va energiya uchun qilingan harajatlar, asosiy fondlar amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari va boshqa harajatlar kiradi. Ishlab chiqarishga sarflanadigan barcha harajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi.

Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar ichki xarajatlar deyiladi. Bunday xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu

sababli ichki xarajatlar darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozor baholariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga bog'liqlik darajasiga qarab xarajatlar doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar ham farqlanadi.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi (qisqarishi yoki ortishi) bilan o'z miqdorini o'zgartirmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi.

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi. Bunga korxonaning xarajatlar to'lov majburiyatlari (zayomlar bo'yicha foiz va boshqa), soliqlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo'riqlash xizmatiga to'lov, nourskunalarga xizmat ko'rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.

O'zgaruvchi xarajatlar ishlab chiqaradigan mahsulot miqdoriga bog'liq bo'ladi va ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liqlikda o'zgaradi. Unga xom ashyo, material, yonilg'i transport xizmati, ishchilar ish haqi va shu kabilarga qilinadigan sarflar kiradi.

Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisi yoki yalpi xarajatlarni tashkil qiladi.

To'g'ri harajatlar — bu bevosita tovar birligini ishlab chiqarish bilan bog'liq harajatlar bo'lib, egri harajatlar korxonada mahsulotning mazkur turini ishlab chiqarish jarayonini umumiy amalga oshirish uchun zarur bo'lgan harajatlardir.

Harajatlarning doimiy va o'zgaruvchan harajatlarga bo'linishdan foydalanish afzalligi shundaki, bu qo'shilgan qiymat ko'rsatkichini aniqlash imkonini beradi. Bu ko'rsatkich korxonada umumiy pul daromadidan (tushum)

o'zgaruvchi harajatlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Shunday qilib, qo'shilgan qiymat doimiy xarajat va sof foydadan iborat bo'ladi, hamda bu ko'rsatkich ishlab chiqarish va sotishning umumiy samaradorligini baholash imkoniyatini yaratadi.

Korxonadagi ko'plab resurslar miqdori bozor talabi ta'sirida tez va oson o'zgarishi mumkin keyingi o'zgaruvchi resurs birligi qiymatiga kamayib boruvchi qo'shimcha mahsulot beradi. Boshqacha aytganda, agar mazkur mashinaviy qurilmaga xizmat ko'rsatuvchi ishchilar soni ko'payib borsa, ishlab chiqarishga ko'proq ishchini jalb qilib borish bilan ishlab chiqarish hajmini o'sishi tobora sekinlik bilan ro'y beradi. Bu qonunni tasvirlash uchun quyidagi misolni keltiramiz, xarajatlarning o'sishiga olib keladi. Bunday xollarni samaraning kamayib borish qonuni tushuntirib berolmaydi, chunki uning amal qilish shart-sharoiti ishlab chiqarishda foydalanadigan resurslardan bittasi miqdorining o'zgarmasligi hisoblanadi. Uzoq muddatli davrda barcha resurslar miqdori o'zgaradi. Bundan tashqari biz taxlilda barcha resurslar baxosi doimiy deb faraz qilamiz. Shu sababli uzoq muddatli davrda o'rtacha xarajatlarning o'zgarishi tamoyilini ishlab chiqarish miqyosi o'sishining ijobiy va salbiy samarasi yordamida tushuntirish mumkin.

14.2. Korxonalar faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari

Korxonalar faoliyat yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarini sarflaydilar. Korxonaning umumiy xarajatlari ichida ishlab chiqarish xarajatlari eng katta salmoqqa ega. Ishlab chiqarish xarajatlari majmuasi korxonaga mahsulot ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi,

ya'ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Korxonalar, shuningdek, mahsulotni sotish bo'yicha xarajatlarni, ya'ni ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat (tashish, qadoqlash, saqlash, reklama qilish va hokazo) xarajatlarini ham amalga oshiradilar.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra, quyidagi elementlarga asosan guruhlariga taqsimlanadi:

- moddiy xarajatlar;
- asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar;
- boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining eng katta qismi bo'lib, umumiy xarajatlarning 60-80 foizini tashkil qilishi mumkin. Moddiy xarajatlar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- xom ashyo va materiallar xarajatlari;
- texnologik maqsadlar va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanuvchi yoqilg'i va energiya;
- xarid qilinuvchi butlovchi qismlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- sotib olingan qadoqlash va o'rov materiallari xarajatlari;
- mashina va asbob-uskunalarni ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar;
- boshqa korxonalar va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xizmatlari;
- xizmat davri bir yilgacha bo'lgan kichik qiymatli va tez eskiruvchi predmetlarning eskirishi yoki har bir instrument, inventar, laboratoriya uskunalari va maxsus kiyim-

bosh uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravar miqdorigacha qiymati;

— tabiiy xom ashyodan foydalanish bilan bog‘liq soliq, yig‘im va boshqa to‘lovlar;

— ishlab chiqarishda bekor turib qolish va sifatsizlik (brak) tufayli yuzaga keladigan yo‘qotishlar;

— tabiiy yo‘qotishlar bilan bog‘liq bo‘lgan yoki aybdor shaxslar mavjud bo‘lmagan holda yuzaga keladigan yo‘qotishlar.

Amortizatsiya ajratmalari miqdoriga teng bo‘lgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi xarajatlarning yirik elementlaridan biri hisoblanadi. Bular qatoriga asosiy fondlarning tezlashgan amortizatsiyasi va uning indeksatsiyasini kiritish mumkin.

Mehnatga haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar-korxonaning asosiy ishlab chiqarish personali mehnatiga haq to‘lashga sarflanadigan xarajatlar bo‘lib, ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun mukofotlar, rag‘batlantiruvchi va kompensatsiya to‘lovlari, jumladan, qonunchilikda belgilangan normativlar chegarasida narxlarning o‘sishi va indeksatsiya uchun to‘lovlar, shuningdek, korxonada xodimlari shtatida bo‘lmagan, lekin asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilar uchun to‘lanuvchi haqni o‘z ichiga oladi.

Mazkur xarajatlar elementlari qatoriga quyidagilar kiritilgan:

— amalda bajarilgan ish uchun tarif stavkalari, lavozim maoshlari va shu kabilar asosida to‘lanuvchi ish haqi;

— xodimlarga natural to‘lov shaklida beriluvchi mahsulotlar qiymati;

— ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun beriluvchi mukofot va boshqa to‘lovlar;

— qonunchilikka asosan baʼzi tarmoqlardagi xodimlarga bepul beriluvchi kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kommunal xizmat va hokazolar qiymati;

— har yillik mehnat va oʻquv taʼtili uchun amalga oshiriluvchi toʻlovlar;

— korxonani qayta tashkil qilish, shtatlar qisqarishi tufayli ishdan boʻshatilgan xodimlarga toʻlanuvchi mablagʻlar.

Ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlar nobyudjet ijtimoiy fondlariga (nafaqa fondi, ijtimoiy sugʻurta fondi, bandlik fondi va hokazo) ajratiluvchi mablagʻlarni anglatadi.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxidagi boshqa xarajatlar - bu, qonunchilikda belgilangan tartibda maxsus nobyudjet fondlariga oʻtkaziluvchi toʻlovlar va soliqlar; yoʻl qoʻyish mumkin boʻlgan miqdordagi chiqindilar uchun toʻlovlar; korxonada mulkini majburiy sugʻurtalash; ratsionalizatorlik takliflari uchun mukofotlar; qonunchilikda belgilangan stavkalarda kreditlar boʻyicha toʻlovlar; mahsulotni sertifikatlash uchun bajarilgan ishlarga haq toʻlash; qonunchilikda belgilangan normalar boʻyicha xizmat safarlariga haq toʻlash; yongʻinga qarshi kurash va qoʻriqlash muassasalariga haq toʻlash; kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xodimlar tanlashni tashkil qilish, aloqa xizmati, hisoblash markazlari, banklar xizmatiga haq toʻlash; asosiy ishlab chiqarish fondlarini ijaraga olganlik uchun haq toʻlash; nomoddiy aktivlarning eskirishi va hokazolar.

Ishlab chiqarish xarajatlariga, asosiy ishlab chiqarish fondlarini ishga tayyor holatda saqlab turish — kapital, oʻrta va joriy taʼmirlash, mashina va asbob-uskunalariga qarash va ekspluatasiya qilish uchun sarflanuvchi barcha xarajatlar kiradi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini taʼmirlash boʻyicha murakkab ishlar amalga oshirilib, xarajatlar bir xilda taqsimlanmaganda korxonalar (Moliya Vazirligi ruxsati

bilan) mahsulot tannarxi hisobiga asosiy fondlarni ta'mirlash uchun zahira(rezerv) fondlari tashkil qilishi mumkin.

Xorijiy valyutadagi xarajatlar Markaziy bankning operatsiyalar amalga oshirilgan kundagi kursiga asosan so'mlarda belgilanadi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishga qilinadigan xarajatlarni o'sishiga, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asbob-uskunalar narxining o'sishi, transport xizmati tariflarining yuqoriligi, reklama va vakillik xarajatlarining o'sishi kabilar ta'sir qiladi. Amortizatsiya ajratmalari miqdori ham o'sib bormoqda. Narxlar erkinligi va ijtimoiy ziddiyatlar kuchaygan sharoitlarda xarajatlar tuzilmasida ish haqining salmog'ini oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir vaqtning o'zida ijtimoiy va tibbiy sug'urtalash, nafaqa ta'minoti, aholi bandlik fondlari, turli xil kompensasion to'lovlarga ajratiluvchi mablag'lar miqdori ham ortib bormoqda.

14.3. Foyda va rentabellik

Foyda muhim iqtisodiy kategoriya (toifa) bo'lib, har bir tijorat tashkilotining asosiy maqsadi hisoblanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida foyda-moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan sof daromadni aks ettiradi.

Foydaning asosiy qismiga korxonalar ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotish orqali ega bo'ladilar. Zamonaviy xo'jalik yuritish sharoitlarida foydaning asosiy vazifasi korxonaning faoliyati samaradorligini aks ettirishda deb belgilanadi. Bunga foyda miqdori, korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan mahsulot tannarxi shaklidagi individual xarajatlar, mahsulot bahosi shaklidagi ijtimoiy zaruriy xarajatlarni o'z ichiga olishi lozimligini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Foydadan baholashning asosiy ko'rsatkichi sifatida foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining ortishi, sifatning yaxshilanishi, mavjud ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish unumining ortishi bilan asoslanadi. Shu bilan birga foydaning ahamiyati ortishiga amaldagi foydani taqsimlash tizimi ham sabab bo'ladi va unga ko'ra esa, korxonalarining ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash uchun hamda xodimlarni bajargan mehnati sifati va miqdoriga asosan moddiy rag'batlantirishga sarflanuvchi foydani oshirishga bo'lgan qiziqishning ortishi kuzatiladi.

Shu tariqa foyda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xodimlarning o'z korxonasi erishadigan yuqori natijalardan moddiy manfaatdorligini kuchaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Korxonada foyda turli xil faoliyat natijasida olinishi mumkin. Barcha foydalar yig'indisi korxonaning yalpi foydasini tashkil qiladi. Yalpi foydaning tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

- bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat va mahsulot sotishdan olingan foyda;
- asosiy fondlar, shuningdek, korxonaning boshqa mulki sotishdan olingan foyda;
- korxonaning moliyaviy faoliyati orqali olinuvchi foyda.

Korxonada daromadi ikki ko'rsatkich, ya'ni mahsulot bahosi va uni ishlab chiqarishga sarflanuvchi xarajatlarga bog'liq bo'ladi. Mahsulotning bozordagi bahosi talab va taklif munosabatlari natijasida kelib chiqadi. Erkin raqobat sharoitlarida bahoni shakllantirish qonunlari asosida mahsulot bahosi ishlab chiqaruvchi yoki xaridor xohishiga ko'ra emas, balki avtomatik ravishda tartibga solinadi.

Foyda korxonada faoliyati natijasida olingan iqtisodiy samarani tavsiflaydi. Korxonaning foyda olishi daromadlarning korxonada faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardan ko'p bo'lishini anglatadi hamda u rag'batlantirish vazifalarini ham bajaradi. Bu esa foyda bir paytning o'zida moliyaviy natija bo'lish bilan birga korxonada moliyaviy resurslarining asosiy elementi ekanligi; daromadning turli darajadagi byudjet shakllanishi uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Foyda olishning asosiy manbalari quyidagilar:

— *birinchi manba* korxonaning mahsulotning u yoki bu turini ishlab chiqarishdagi monopoliya holati yoki mahsulotning nodirligi hisobiga shakllanadi. Bu manbaning saqlanishi mahsulotni doimiy ravishda yangilab borishni ko'zda tutadi;

— *ikkinchi manba* ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq. Undan foydalanish samaradorligi bozor konyunkturasini bilish hamda ishlab chiqarishning rivojlanishini, doimiy ravishda o'zgarib turuvchi bozor konyunkturasiga moslashtirish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Foyda miqdori korxonaning mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yo'nalishini to'g'ri tanlash (doimiy ravishda talab darajasi yuqori bo'lgan mahsulotni tanlash); mahsulotlarini sotish va xizmat ko'rsatish uchun raqobatbardosh sharoitlarni yaratish (baho, yetkazib berish muddati, xaridorlarga xizmat ko'rsatish, sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish va hokazo); ishlab chiqarish hajmi (ishlab chiqarish hajmi qanchalik katta bo'lsa, daromad miqdori shunchalik ko'p bo'ladi); ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish tuzilmasi bilan bog'liq bo'ladi;

— *uchinchi manba* korxonaning innovatsion faoliyatidan kelib chiqadi. Undan foydalanish doimiy ravishda tex-

nologiyalarni takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, mahsulot sotish hajmi va foyda miqdorini oshirishni anglatadi.

Korxonaning balans foydasi foydani taqsimlash obyektidir. Foydani taqsimlash deganda uning bir qismini byudjetga jo'natish tushuniladi. Qonunchilikka asosan foydaning soliq va boshqa majburiy to'lovlar shaklida byudjetga kelib tushuvchi qismi tartibga solinadi. Korxonada ixtiyorida qoluvchi daromad qismi, undan foydalanish yo'nalishlari korxonada zimmasida bo'ladi.

Foydani taqsimlash tamoyillari quyidagilardan iborat bo'ladi:

— korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijasida oladigan foydasi davlat va korxonada o'rtasida xo'jalik subyekti sifatida taqsimlanadi;

— foydaning davlatga to'lanuvchi bir qismi soliq va yig'imga ko'rinishida byudjetga kelib tushadi. Soliqlar tarkibi va foizi, ularni hisoblash tartibi va byudjetga to'lanuvchi boshqa to'lovlar qonunchilik tomonidan belgilanadi;

— soliqlar to'langandan so'ng korxonada tasarrufida qoluvchi foyda miqdori, uning ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijalarini yaxshilashdan manfaatdorligini kamaytirmasligi lozim.

Korxonada foydani taqsimlash va undan foydalanish tartibi uning Nizomida belgilab qo'yiladi hamda vakolatli iqtisodiy xizmat xodimlari tomonidan tayyorlanib, korxonada rahbariyati tomonidan tasdiqlanuvchi qoidalar yordamida aniqlanadi.

Mahsulotni sotishdan olinadigan foyda miqdori ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Ichki omillar, bu —

korxonada zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish, xo‘jalik yuritish darajasi, rahbariyat va menejmentning mas’uliyati, mahsulotning raqobatbardoshligi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajasidir. Korxonada faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan tashqi omillar qatoriga esa, bozor konyunkturasi, iste’mol qilinuvchi moddiy-texnik resurslarning bahosi, amortizatsiya normasi, soliq tizimi kabilar kiradi.

Korxonada foydani oshirishning asosiy yo‘llari. Har bir korxonada foydani oshirish bo‘yicha rejali chora-tadbirlar ko‘zda tutilishi kerak. Umuman olganda, bunday chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini oshirish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish;
- ortiqcha asbob-uskunalar yoki boshqa mulkni sotib yuborish yoki ijaraga berish;
- moddiy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va maydonlari, ishchi kuchi va ish vaqtidan unumliroq foydalanish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish;
- ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;
- mahsulot bozorini kengaytirish va hokazolar.

Foyda korxonada faoliyatining muhim iqtisodiy ko‘rsatkichi bo‘lsada, uning samaradorligini to‘la tavsiflab bermaydi. Korxonada faoliyati samaradorligini aniqlash uchun natijalarni (foydani) xarajatlar yoki bu natijalarga erishish uchun sarflangan resurslar bilan solishtirish lozim.

14.4. Rentabellik mohiyati

Rentabellik korxonada faoliyati va kapital qo‘yilmalar iqtisodiy samaradorligining asosiy mezoni, korxonada va xo‘jalik yurituvchi tashkilotlarni baholashning ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi sharoitlarda yuqori moliyaviy natijalarga erishish sezilarli darajada ortib bormoqda.

Har qanday xo'jalik mexanizmi uchun asos bo'lib korxonalar faoliyatini rejalashtirish va unga obyektiv baho berish, ta'lim olish, mehnatga haq to'lash va iqtisodiy rag'batlantirish fondlaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida xarajat va natijalarni solishtirish ko'rsatkichlari xizmat qiladi.

Foyda korxonalar samaradorligining yagona va universal ko'rsatkichi emas.

Ishlab chiqarish rivojlanishining samaradorligi va intensivligini baholashda amaliyotda rentabellik ko'rsatkichlari tizimi keng qo'llanib, unga ko'ra foydaning miqdori belgilangan bo'lib, rentabellik daromadlilik, foydalilikni anglatadi. Biroq rentabellikni faqat daromadlilik deb qabul qilish uning iqtisodiy mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Ular o'rtasida tenglikning yo'qligi daromad miqdori va rentabellik darajasini turli nisbatlarda, o'lchanishi dalolat beradi.

Istalgan muddat uchun iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash ko'plab turli xil omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Rentabellik va foyda ko'rsatkichlarini tahlil qilishda ularga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillarni bilish, bu omillarning samaradorlikning umumlashtiruvchi ko'rsatkichlariga ta'sirini hisoblash uslubiyatini egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillarni boshqarish orqali korxonada daromadni oshirish zahiralarni izlab topish va rentabellikning talab qilinuvchi darajasiga erishish mexanizmini yaratish mumkin.

Rentabellik va foydaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni turli xil belgilariga ko'ra tasniflash mumkin. Masalan, bu omillar

ichki va tashqi bo‘lishi mumkin. Ichki omillarga korxonada faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan hamda korxonada faoliyatining turli yo‘nalishlarini tavsiflovchi omillar mansub bo‘ladi. Tashqi omillarga korxonada faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan, biroq ishlab chiqarish rentabelligi va daromadning o‘shirish sur‘atiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillar kiradi. Tahlil jarayonida ichki va tashqi omillarni aniqlash samaradorlik ko‘rsatkichlarini tashqi ta‘sirlardan «tozalash» imkonini beradi hamda korxonada yutuqlarini obyektiv baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘z navbatida, ichki omillar ham ishlab chiqarish va noishlab chiqarish omillariga bo‘linadi. Noishlab chiqarish omillari asosan mehnat va sotish sharoitlari, korxonaning tijorat, tabiatni saqlash va shu kabi faoliyat turlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarish omillari esa foydaning shakllanishida ishtirok etuvchi ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementlari — mehnat predmetlari va vositalari hamda mehnatning o‘zi — mavjudligi va ulardan foydalanishni aks ettiradi.

Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida mahsulot ishlab chiqarish, sotish va foyda olish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarda bu omillar o‘zaro aloqada va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Rentabellikning mohiyatini faqat foyda shakllanishini tahlil qilish asosida ochib berish mumkin. Korxonada mahsulotni sotish natijasida o‘z xarajatlarini qoplashdan tashqari foyda ham olgan taqdirda rentabelli hisoblanadi.

Rentabellik ko‘rsatkichlari korxonada faoliyati qanchalik foyda keltirishini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlarning iqtisodiy turlanishi (interpretasiyasi) yaqqol ko‘zga tashlanadi: sarflangan har bir so‘m qarzga olingan (xususiy) kapitalga necha so‘m foyda to‘g‘ri keladi (hisob-kitoblarda korxonaning balans yoki sof foydasidan foydalanish mumkin).

Rentabellikni zamon va makon qoidalariga ko‘ra tahlil qilishda asosli xulosalarga kelish uchun zarur bo‘ladigan uchta xususiyatni inobatga olish zarur.

Korxonada rentabellikni asosan ikki ko‘rsatkichdan foydalaniladi.

Sotish rentabelligi sotilgan mahsulotning har bir so‘mi qancha sof foyda keltirganini aks ettiradi.

Xususiy kapital rentabelligi korxonada mulkdorlari ya‘ni, egalari kiritgan kapitaldan foydalanish samaradorligini aniqlash va bu ko‘rsatkichni xuddi shu mablag‘larni boshqa qimmatbaho qog‘ozlarga kiritganda olish mumkin bo‘lgan foyda bilan taqqoslash imkonini beradi.

Mahsulot rentabelligi

Bitta aksiya keltiruvchi foyda ko‘rsatkichi korxonaning bozordagi faoliyatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir.

Shu tariqa, tavsiya qilinuvchi ko‘rsatkichlar tahlil jarayonida korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash, ishlab chiqarish samaradorligi va korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga oid chora-tadbirlar belgilashga ikoniyat yaratadi.

Nazorat savollari

- 1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning mohiyati.*
- 2. Ishlab chiqarish xarajatlarini tasniflash.*
- 3. Boshqa xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?*
- 4. Foyda iqtisodiy kategoriya sifatida hamda uning korxonaning tijorat va ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishdagi ahamiyati.*
- 5. Foydani shakllantirish manbalari.*
- 6. Foydani taqsimlash va uni ko‘paytirish yo‘llari.*
- 7. Rentabellikning iqtisodiy mohiyati.*
- 8. Rentabellik ko‘rsatkichlari va ularni aniqlash uslubiyati.*

15-mavzu. SOLIQLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA OBYEKTIV ZARURLIGI

15.1. Davlat soliq tizimi

Davlat soliq tizimini davlat tomonidan o‘rnatilgan barcha soliqlar, yig‘imlar va boshqa byudjetga undiriladigan majburiy to‘lovlar majmuasi, ularning shakli va tuzilish metodlari tashkil etadi.

Bir xil mohiyatga ega va o‘zaro munosabatda bog‘liq bo‘ladi markazlashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisiga *soliqlar tizimi* deb ataladi. Bu ta’rifda soliq va yig‘imlar yagona mohiyat, ya’ni «majburiy harakterga ega bo‘lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog‘liqligi va nixoyat byudjetga tushishligini ko‘rsatadi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda soliqlar kodeksda 8 ta umumdavlat (respublika) soliqlar i va 5 ta mahalliy soliqlar ko‘rsatilgan. O‘zgartirishlar bilan ularning soni yig‘imlari ham qo‘shib ko‘rsatilgan. Soliq va yig‘imlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘ladi, oqibat natijasida ular yuridik va jismoniy shaxslarning pul daromadlaridan olinadi. Demak, soliq va yig‘imlarning jami yig‘indisi summasi soliq oyoirligi tushunchasini keltirib chiqaradi.

Soliq sistemasi yetarli darajada murakkab bo‘lib, u ko‘pgina soliq turlari, har xil turdagi soliq to‘lovchilar, soliqni undirishni tashkil etish usullari va soliq imtiyozlaridan iborat.

O‘zbekistonda soliqlar tizimi tarkibi

Umumdavlat soliqlari	Mahalliy soliqlar va yig‘imlar
Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq. Qo‘shilgan qiymat solig‘i. Aksiz solig‘i. Yer osti boyliklaridan foydalanish solig‘i. Suv resurslaridan foydalanish uchun soliq. Savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlaridan yagona soliq to‘lovi. Bojxona boji. Davlat boji. Qimmatli qog‘ozlarni ro‘yxatdan o‘tkazish yig‘imi. Boshqa daromadlar.	Mol-mulk solig‘i. Yer solig‘i. Yagona soliq. Infratuzilmani rivojlantirish solig‘i. Jismoniy shaxslarning transport yoqilg‘isi uchun iste‘mol solig‘i. Jismoniy shaxslar chetdan tovarlar olib kelganligi uchun yagona bojxona to‘lovi. Alohida tovarlarni turlarini sotish lisenziya yig‘imi. Ishbilarmonlik bilan shug‘ullanuvchi yuridik hamda jismoniy shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazish yig‘imi. Boshqa to‘lovlar.

Ammo, soliqlar har xil bo‘lishiga qaramasdan ularni bog‘lab turuvchi elementlari mavjud. Soliq elementlariga quyidagilar kiradi: soliqqa tortish subyekti, soliq obykti, soliq bazasini hisobga olish usuli, soliq stavkasi, soliqni hisoblash tartibi va to‘lash muddatlari, undirish usullari, hisobot topshirish davri, soliq bo‘yicha imtiyozlar va h.k.

Soliqqa tortish **subyekti** (soliq to‘lovchi) — qonunga ko‘ra soliqlar, yig‘imlar va to‘lovlarni huquqiy jihatdan to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

O‘z mulkiga, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi, undan tashqari ular mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

Jismoniy shaxslar deganda, soliqqa tortish obyektiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi.

Soliqqa tortish obyekti yoki soliqqa tortish bilan bog‘liq obyekt deganda, soliq to‘lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan daromadi va mol-mulkiga aytiladi.

Boshqacha so‘z bilan aytganda, soliqqa tortish obyekt bo‘lib (soliq to‘lovchining harakati yoki uning mulkiy holati) shunday **yuridik bir holatga** aytiladiki, ularning mavjudligi soliq tortish bo‘yicha majburiyatlarni keltirib chiqaradi. Ularga quyidagilar kirishi mumkin: tovar (ish, xizmat)larning sotilishiga doir oborotlar, mol-mulkka egalik huquqi, oldi-sotdi operatsiyasini bajarish, qimmatbaho qog‘ozlardan daromad olish va h.k.lar. Soliqqa tortish obyekt bo‘lmagan soliq to‘lovchining soliq bo‘yicha majburiyati bo‘lmaydi.

Soliq stavkasi bu soliq hisoblanadigan soliq bazasining birlik hisobiga to‘g‘ri keladigan soliq me‘yorini ifodalaydi.

Boshqacha qilib aytganda, soliq stavkasi bu soliqqa tortish me‘yoridir.

Soliq stavkasi qatiy yoki foiz qo‘rinishida bo‘lishi mumkin. Masalan, qo‘shimcha qiymat solig‘ining soliq stavkasi — soliq solish oboroti va import oborotining — 20% qismini tashkil


etadi (bu foiz stavkasi). Qatiy soliq stavkasiga yer solig'ining stavkasi misol bo'la oladi. Bunda soliq solish birligiga (yer uchastkasining maydoni) qatiy soliq summasi to'g'ri keladi.

Imtiyoz deganda soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilar bilan qiyoslaganda soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar berilishi, shu jumladan soliq (yig'im) to'lamaslik yoxud kam hajmda to'lash imkoniyati tushuniladi.

15.2. Soliqlarni tasniflash

Soliqlarni har xil belgisiga qarab bir necha xil ko'rinishda tasniflash mumkin.

Soliqqa tortish obyektining to'lovchi bilan davlatning o'zaro munosabatlariga qarab **bevosita va bilvosita** soliqlarga bo'linadi. Bulardan birinchisi moddiy boylikni sotib olish va to'plash jarayonida undirilsa, ikkinchisi uni sarf qilish jarayonida undiriladi. Bevosita soliqlar jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlaridan undiriladi, bilvosita soliqlar esa soliq sistemasining boshqa bo'g'iniga ko'chirilgan bo'lib, unda soliq yuki oxirgi foydalanuvchiga — haridorga ko'chirilgan.



3-chizma. Soliqlarni tasniflash.

Bevosita soliqlar to‘g‘ridan to‘g‘ri soliq subyekti tomondan to‘lanib, ko‘pgina holatlarda uning to‘lov qobiliyatiga qarab undiriladi. Bunga misol sifatida daromad solig‘ini, mol-mulk solig‘ini, ya‘ni soliq to‘lovchining daromadidan yoki mulkidan undiriladigan soliqlarni olish mumkin.

Bevosita soliqlar **shaxsiy** va **real** soliqlarga bo‘linadi.

Shaxsiy soliqlar soliq to‘lovchining moliyaviy holatini va to‘lov qobiliyatini hisobga olgan holda uning haqiqatda topgan daromadidan undiriladi.

Real soliqlar to‘lovchining moliyaviy holatini hisobga olmagan holda, uning faoliyatini yoki tovarlarini, ya‘ni mol-mulkni sotish, sotib olish yoki foydalanishni (egalik qilishni) soliqqa tortadi. Shu bilan birgalikda, real soliqlar to‘lovchining to‘lov holatini hisobga olmaydi. Bularga asosan mulk soliqlari (mol-mulk va yer soliqlari) kiradi.

Bilvosita soliqlar **yakka bilvosita**, bunda odatda qat’iy, ma‘lum guruhdagi tovarlar soliqqa tortiladi (ma‘lum bir turdagi aksiz tovarlari), **universal bilvosita**, bunda imtiyozli borlaridan tashqari hamma tovarlar, ishlar va xizmatlarga qo‘yilgan soliqlarga va **bojxona bojlariga** bo‘linadi.

Soliqlarni o‘rnatish va yangilarini kiritish darajasiga qarab va ularni foydalanishiga qarab **umumdavlat** va **mahalliy** soliqlarga bo‘linadi. Umumdavlat soliqlari (masalan, daromad solig‘i, QQS va boshqalar) — davlat byudjetiga tushadi, mahalliy soliqlar esa hududiy byudjetlarga (masalan, mol-mulk, yer soliqlari va boshqalar) tushadi. Mahalliy soliqlarni kiritishdan asosiy maqsad shahar, tuman va boshqa administrativ-hududiy birliklarning mahalliy byudjetlarni daromad qismini mablag‘ bilan ta‘minlashdan iborat.

Soliqlarni soliqqa tortish subyektiga qarab ham bo‘lish mumkin: **jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar**. Ko‘pgina soliqlar (masalan, daromad solig‘i, mol-

mulk solig‘i, yer solig‘i, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va boshqalar) ikkala subyektlar uchun umumiy, ammo ba‘zi soliqlar mavjudki, ular (masalan, QQS, respublikada ishlab chiqarilgan aksiz tovarlari uchun aksiz solig‘i va boshqalar) faqat yuridik shaxslardan undiriladi.

15.3. Soliqlar funksiyasi

Soliqlarning asosiy mohiyatini ularning funksiyalari, yani soliqlarning jamiyat va davlatning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy yo‘naltiruvchi kuch ekanligini ochib beradi.

Soliqlar bozor iqtisodiyotiga o‘tgan har bir davlatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri byudjet munosabatlariga va shu bilan birgalikda imtiyoz, jarima sistemalari orqali esa tovar (xizmat) ishlab chiqaruvchilarga ta’sir etuvchi asosiy kuch sifatida ishlatiladi.

Soliqlar orqali davlat o‘zining bir necha muommolarini hal qiladi, jumladan:


— jamiyatning mavjud ehtiyojlari va uni qondirish uchun zarur bo‘lgan resurslar o‘rtasidagi tenglikka erishiladi;

— tabiat boyliklaridan unumli foydalanish uchun jaramalar va boshqa turdagi chegaralar qo‘yish yo‘li bilan tabiatga zararli bo‘lgan ishlab chiqarishlarni tarqalmasligiga erishiladi;

— iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa ko‘pgina turdagi jamiyatning muammolari hal qilinadi.

Soliqlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Fiskal.
2. Ijtimoiy (qayta taqsimlash).
3. Izga solib turuvchi.
4. Nazorat qiluvchi.
5. Jamlovchi.



4-chizma. Soliqlar funksiyasi.

Tarixiy jihatdan soliqlarning birinchi bo‘lib **fiskal funksiyasi** ko‘riladi, chunki soliqlar yordamida davlat byudjetiga mablag‘ tushishi ta‘minlanadi.

Soliqlarning ijtimoiy (qayta taqsimlash) har xil daromadga ega bo‘lgan aholini soliqqa tortish natijasida hosil bo‘lgan jamiyat daromadlarini har xil toifadaga aholi o‘rtasida qayta taqsimlashni o‘z ichiga oladi.

Soliqlarning keyingi funksiyasi — **izga solib turuvchi funksiyasi** davlatning iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish davrida kelib chikadi. U maqsadli ravishda hukumatning dasturlari asosida xalq xo‘jaligining rivojlanishiga ta‘sir etadi. Bunda davlat soliqlarning shakli, soliq stavkalarining o‘zgarishi, undirish usullari, imtiyozlar va chegirmalardan foydalanib, tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ajratib oladi. Ushbu soliqlarni izga solib turuvchi funksiyasi yordamida davlat ishlab chiqarishga, uning natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotga ta‘sir etadi, bundan tashqari, faoliyat turlari va ishlab chiqarishning jamiyat uchun foydali bo‘lganlarini rag‘batlantiradi. Ko‘pgina davlatlar

uchun bular quyidagi sohalarni, ya'ni kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosa oladigan tovarlar ishlab chiqarish, ilmiy texnika rivojlanishini rag'batlantirish, transport va boshqalarni rivojlantirishdan iboratdir.

Izga solib turuvchi funktsiyaning asosiy ma'nosi bu iste'mol uchun yo'naltirilgan resurslarni soliqqa tortib, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yo'naltiriladigan resurslarni soliqdan ozod qilishdir.

Navbatdagi funktsiya — ***nazorat qilish funktsiyasi*** bo'lib, u byudjetga undiralayotgan soliq to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish bilan birga, ularni moliyaviy resurslarga bo'lgan talablar bilan taqqoslaydi. Ushbu funktsiya orqali soliq siyosatini byudjet siyosatiga moslab olib borish zaruriyati aniqlanadi.

Bu funktsiya davlatlar xo'jaliklarining rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotning o'zaro munosabati va dunyo xo'jalik hayotida har tomonlama integratsiya jarayonlarini kuchayishida namoyon bo'ldi. *Soliqlar o'zaro qo'shni, xo'jalik va siyosiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan davlat uchun yagona iqtisodiy maydon tashkil etishda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda.*

Nazorat savollari

- 1. Soliqlarni tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati.*
- 2. Soliq turlari.*
- 3. Jismoniy va yuridik shaxslar deganda kimlarni tushunasiz?*
- 4. Soliq stavkasi deganda nimani tushunasiz?*
- 5. Soliq tizimidagi imtiyozlarga nimalar kiradi?*

16-mavzu. KORXONING TIJORAT SIRI VA BANKROTLIK HOLATI

16.1. Korxonada mustaqilligi va tijorat siri

Xavfsizlik murakkab va serqirra kategoriya, u ko‘pincha ishlab chiqarishda foydalanilayotgan vositalarning xavfsizligi nuqtayi nazaridan baholanadi va ko‘rib chiqiladi.

Shu sababli xavfsizlik va tijorat sirlari muammolari hozirgi bozor va raqobatchilik sharoitlarida iqtisodiyot korxonalar iqtisodiyotining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Korxonada xavfsizligini ta‘minlashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- korxonada va uning barcha bo‘linmalari, mehnat jamoasining o‘zaro munosabatlarda qonuniy huquqlarini himoya qilish;

- korxonada mulkini saqlash, undan oqilona va unumli foydalanish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish;

- barcha tuzilmaviy bo‘g‘inlardagi xodimlar orasida mehnat intizomini mustahkamlash;

- mehnat unumdorligini oshirish uchun moddiy va ma‘naviy manfaatdorligini ta‘minlash;

- ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanish, samarali

- axborot bazasini rivojlantirish;

- korxonada obro‘ini oshirish.

Ko'rsatilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda korxonada xavfsizligini ta'minlash vazifalari belgilanib, ular korxonaning ichki tartib-qoidalarini va ish tartibida hamda maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlarda o'z aksini topgan bo'lishi kerak.

Xavfsizlik tamoyillari — xavfsizlikni ta'minlash taktika va strategiyasiga bo'lgan asosiy talablar orqasi xavfsizlikning maqsad va vazifalarini hal qilishning to'g'ri yo'llarini tanlash hisoblanadi.

Xavfsizlik tamoyili birinchidan, korxonaning maqsad va vazifalariga zid kelmasligi, ikkinchidan, korxonada xavfsizligiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi muhit ta'sirini inobatga olishi zarur.

Shu bilan bir vaqtda korxonada o'z faoliyatining muhim yo'nalishlari xavfsizligini ta'minlash uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak va buning uchun avvalo, mos keluvchi qo'riqlash tartibini yaratish lozim. Bunday faoliyat turlari quyidagilar:

1. Bino va inshootlar, aloqa tarmog'i qurilma va uskunalari qo'riqlash tartibini ta'minlash.

2. Tezkor xavfsizlik — mahfiy axborotlarga bo'lgan vakolatni boshqarish, kelib-ketuvchilar, transport va yuk tashishni nazorat qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash.

3. Xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ma'muriy faoliyat — personalni tayyorlash va o'qitish, taftish va nazorat, muammoli vaziyatlarning oldini olish, istiqbolli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

4. Moddiy boyliklarni himoya qilish va tabiiy ofatlar bilan kurash - yong'inlarning oldini olish, yong'in xavfsizligi va ogohlantirish qurilmalari holatini kuzatib borish va hokazolar.

Korxonaning tijorat sirlari — ishlab chiqarish, texnologik ma'lumotlar, boshqaruv, moliya va shu kabilar bilan bog'liq

bo'lib, ularni oshkor qilish korxonaning manfaatlariga zarar etkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlardir.

Ko'pincha «tijorat sirlari» tushunchasidan tashqari korxonaning «ishlab chiqarish sirlari» tushunchasi ham qo'llaniladi. U ishlab chiqarish usullari, texnologiyalar, texnik kashfiyotlar, tadqiqot ishlari, mehnatni tashkil qilish, aloqa tarmog'i va shu kabilar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

— Bugungi bozor munosabatlari, ayniqsa raqobatchilik muhiti sharoitlarida korxonaning tijorat va ishlab chiqarish sirlarining oshkor qilinishi uning ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar iste'molchilarini yo'qotishga olib kelishi mumkin.

16.2. Korxonaning bankrotlik holati

O'zbekiston Respublikasining 1996- yil 30- avgustdagi «Bankrotlik tug'risida»gi Qonuni kreditorlarning da'volarini qondirish maqsadida xo'jalik yuritish subyektlari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslarni bankrot bo'lgan, deb e'tirof etish shartlari tarkibini belgilab berdi.

Xo'jalik subyektining bankrotlik holati deyilganda qarzlarning majburiyatlari mol-mulkidan oshib ketganligi sababli tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'lash yuzasidan kreditorlarning talablarini qondirishga qodir emasligi, shu jumladan, byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlarni ta'minlashga qodir emasligi tushuniladi.

Kreditorlarning talablarini bajarish muddati boshlangan kundan e'tiboran xo'jalik yuritish subyekti uch oy mobaynida ularni bajara olmayotganligi yoki bajarishga qodir emasligining muqarrarligi sababli uning joriy to'lovlarni to'xtatib

quyilishi xo‘jalik yuritish subyekti bankrot bo‘lishining tashqi alomati hisoblanadi.

Bankrotlik fakti xo‘jalik sudi tomonidan e’tirof etilganidan yoki xo‘jalik yuritish subyekti ixtiyoriy ravishda tugatilayotganida uning o‘zi bankrot bo‘lganligini rasman e’lon qilganidan keyin xo‘jalik yuritish subyekti bankrot bo‘lgan hisoblanadi.

Bankrotlik tizimining muhim tashkil etuvchilaridan biri korxonaning moliyaviy ahvolini diagnostika qilish, yaqinlashib kelayotgan inqirozli holatni nazorat qilish va o‘z vaqtida uning oldini olish bo‘lib, korxonada boshqaruvining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Korxonaning ravnaq topishi va inqirozga yuz tutishi bir qator omillarning o‘zaro ta’siridan kelib chiqib, ular tashqi va ichki omillarga bo‘linadi. Tashqi omillarga korxonaga hech qanday ta’sir ko‘rsata olmaydi. Ichki omillar esa korxonada ishning qanday tashkil etilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Korxonaga tashqi (sosal) va ichki (texnik) omillarning o‘zgarishiga qay darajada moslasha olganligi, bu borada uning qobiliyatini rivojlanganligi nafaqat firmaning yashovchanligini saqlab qoladi, balki uning gurkirab rivojlanishini ta’minlaydi.

Korxonada faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- aholi ehtiyojining hajmi va tarkibi;
- aholi pul jamg‘armasining va daromadining qay darajada ekanligi, xarid qobiliyati;
- mamlakat ichki siyosatining yo‘nalishi va barqarorligi;
- fan va texnikaning rivojlanganligi;
- madaniylik darajasi, ya’ni iste’mol normasi va odatlar, ayrim tovarlarni afzal ko‘rib, boshqa tovarlardan voz kechish;
- xalqaro raqobat, bunda xorijiy firmalarning arzon mehnat yoki mukammal texnologiyalar evaziga muvaffaqiyat qozonishi.

Bankrotlikning dastlabki belgilariga qo‘yidagilar kiradi:
a) hisobotlar berilishining kechiktirilishi. Bu korxonaning moliyaviy xizmati yomon yo‘lga qo‘yilganligidan darak beradi;

b) balans va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlar tizimidagi keskin o‘zgarishlar, ayniqsa:

— hisob raqamida mablag‘ning kamayishi;

— debitorlik qarzlarning ortishi (qarzlarning keskin kamayib ketishi ham mahsulot sotishda muammolar paydo bo‘lganligidan darak beradi);

— debitorlik schyotlarining eskirishi;

— debitorlik va kreditorlik qarzlari balansining buzilishi;

— kreditorlik qarzlarning ko‘payishi (hisob raqamida pul bor bo‘lsa-da, kreditorlik qarzlarning keskin kamayib ketishi ham, shuningdek, faoliyat hajmi kamayganligini bildiradi);

— mahsulot sotish hajmining kamayishi (mahsulot sotish hajmining keskin ortib ketishi ham ko‘ngilsiz oqibatlariga olib kelishi mumkin, chunki bu holda qarzlarning balansining buzilishi, agar xaridlar, kapital sarflar o‘ylamasdan qilinishi bankrotlikka olib kelsa-da, bundan tashqari mahsulot sotish hajmining ortishi korxonaning tugatilishi oldidan bozorga mahsulotning ko‘plab chiqarilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin);

d) korxonadagi nizolar, biron-bir rahbarning ishdan bushatilishi, chiqarilayotgan qarorlarning ko‘payib ketishi va h.k.

16.3. Iqtisodiy nochor korxonalarni sanatsiyalash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 11-dekabrda «Korxonalarining bankrotligi to‘g‘risida»gi qonunchilikni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-1658- son Farmoniga asosan ishlab

chiqilgan «Iqtisodiy nochor korxonalarni sanatsiyalash to'g'risida»gi Nizom xo'jalik yurituvchi subyektlar — qarzdorlarning to'lov qobiliyatini sog'lomlashtirish hamda tiklash maqsadida o'tkaziladigan nochor korxonalarni sanatsiyalash masalalarini tartibga soladi.

Mazkur nizomda «sanatsiyalash» tushunchasiga izoh beriladi va uning maqsadiga aniqlik kiritiladi. Jumladan, ta'kidlanadiki, zarar ko'rib ishlaydigan, to'lov qobiliyati bo'lmagan iqtisodiy nochor korxonani sanatsiyalash deyilganda mulkdor, kreditor (kreditorlar) yoki boshqa shaxslar, shu jumladan davlat tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish yo'li bilan xo'jalik subyekti faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirish tushuniladi.

Xo'jalik subyekting to'lov qobiliyatini tiklash, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga haq to'lash bo'yicha kreditorlar talablarini qondira olish, shu jumladan, byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlarni to'lay olish qobiliyatini tiklash, shuningdek korxonalarining samarali faoliyatini davom ettirishi uchun moliyaviy sharoitlar yaratish — sanatsiyalashning maqsadidir.

Zarar ko'rib ishlaydigan, to'lov qobiliyati bo'lmagan yoki iqtisodiy nochor korxonani sanatsiyalashning vazifasi uning barqaror moliyaviy ta'minotini, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish, sotishni boshqarish, tashkil etish, uning texnika va texnologiyasida zarur qayta o'zgarishlarni oqilona va samarali amalga oshirishni ta'minlashdir.

Sanatsiyalash qarzdor korxonaga xo'jalik sudida uning iqtisodiy nochorligi to'g'risida ish qo'zg'atgunga qadar, shuningdek, bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atish chog'idagi dastlabki tadbirlar jarayonida moliyaviy yordam ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Korxonani sanatsiyalashning davomiyligi 18 oydan oshmasligi lozim.

Nizomda ta'kidlanishicha, xo'jalik sudining qaroriga muvofiq nodavlat korxonalari uchun sanatsiyalash davri 6 oygacha uzaytirilishi mumkin.

Sanatsiyalash boshlanishidan 12 oy o'tgach, kreditorlarning talablari umumiy summasidan kamida 40 foizi qondirilgan bo'lishi lozim.

Zarar ko'rib ishlaydigan, to'lov qobiliyati bo'lmagan yoki iqtisodiy nochor korxonaning mulkdorlari, kreditorlar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sanatsiyalash subyektlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi davlat nomidan sanatsiyalash subyekti sifatida qatnashadi.

Mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash asosida amalga oshiriladigan sanatsiyalash obyektlari hisoblanishi mumkin.

Davlat ishtirokida birinchi navbatda sanatsiyalanadigan korxonalar qo'yidagilar kiradi:

— oziq-ovqat va nooziq-ovqat, xalq iste'moli tovarlari va dori-darmonlar ishlab chiqaruvchi korxonalar;

— davlat mudofaa qudratini va xavfsizligini qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi korxonalar;

— tog'-kon qazish, energetika, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik sanoati va dehqonchilik sanoati majmuyi korxonalari;

— faoliyati davlat tomonidan boshqariladigan korxonalar.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning qo'yidagi guruhlariga ham davlat yordami ko'rsatilishi mumkin:

— iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, birinchi navbatda ishlab chiqarish infrastrukturasi ishlab chiqarishni texnologik qayta qurishni jadallashtirish uchun zarur boʻlgan qismida xoʻjalik faoliyatini faollashtirish holatida boʻlgan istiqbolli korxonalariga;

— raqobatbardosh, eksportga yoʻnaltirilgan hamda import oʻrnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalariga;

— energiyani tejash texnikasini ishlab chiqarishni hamda mehnat samaradorligini oshirishni, mehnatning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash, yangi materiallarni qoʻllash, ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligini taʼminlashni, ishlab chiqarishni avtomatlashtirilishiga moʻljallangan yangi ilgʻor texnologiyalarni oʻzlashtirishni koʻzda tutgan korxonalariga;

— tarmoqlararo va mintaqalararo keng kooperatsiya aloqalari boʻlgan korxonalariga.

Iqtisodiy nochor korxonalar monitoringi va ularning moliya-xoʻjalik faoliyati natijalari belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Zarar koʻrib ishlovchi, toʻlov kobilyatiga ega boʻlmagan va iqtisodiy nochor korxonalarini sanatsiyalash davlat mablagʻlari ishtirokisiz va ishtiroki bilan ham pulga, ham pulsiz asosda, shu jumladan, tanlov asosida amalga oshiriladi.

Nizomda belgilanishicha, davlat mablagʻlarisiz sanatsiyalash qoʻyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

— zarar koʻrib ishlovchi, toʻlov qobilyatiga ega boʻlmagan qarzdor korxonalariga xoʻjalik yurituvchi subyektning toʻlov qobilyati tiklanishidan va uning faoliyati davom etishidan manfaatdor boʻlgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy yordam koʻrsatilishi;

— qarzdor bilan kreditorlar oʻrtasida kreditorlarga hisoblanadigan toʻlovlar muddatini uzaytirish va ularni boʻlib-boʻlib berish tugʻrisidagi shartlashuvga erishish yoki xoʻjalik

yurituvchi qarzdor subyektning faoliyat ko'rsatishi uchun qarzlaridan chegirma olishga qaratilgan qarzdor bo'lgan kreditorlar o'rtasida bitimlar tuzish;

— iqtisodiy nochor korxonona — debitorni ixtiyoriy ravishda tugatish yoki uni o'z kreditorlarining to'lov qobiliyatlarini tiklash maqsadida qonunchilik bilan belgilangan tartibda bankrot deb e'tirof etish;

— iqtisodiy nochor korxonona mulkini kim oshdi savdosi yoki tanlov asosida davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish.

Davlat mablag'lari ishtirokidagi nochor korxonalarni sanatsiyalash qo'yidagi shakllarda amalga oshiriladi:

— qarzlardan o'zaro voz kechishni tashkil etish;

— faktoring shaklida;

— muddati uzaytirilgan qarzlarni to'liq yoki qisman to'lash;

— soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lashdagi muddatni sanatsiyalash muddatiga uzaytirish, biroq uning muddati 18 oydan oshib ketmasligi kerak;

— korxonani sanatsiyalashga doir dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun korxonani sanatsiyalash fondidan mablag'larni maqsadli ajratish;

— ishlab chiqarishni raqobatbardosh mahsulot (ishlar, xizmatlar)lar ishlab chiqarish uchun qayta ixtisoslashtirish;

— korxonaga o'z mahsulotlarini shartnoma asosida davlat ehtiyojlari uchun yetkazib berish imkoniyatlarini yaratish;

— tashkiliy — ishlab chiqarish menejmentini, shu jumladan, buning uchun chetdan jalb etiladigan yuqori malakali mutaxassislarni menejment, ishlab chiqarishni tashkil etish va marketing bo'yicha haq to'lash yo'li bilan o'zgartirish;

— xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash. Korxonalar mulki egalari, kreditorlar, birlashmalar (xo'jalik uyush-

malari), boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy yordami; iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo‘mitasi huzuridagi korxonalarni sanatsiyalash fondi mablag‘lari korxonalarni sanatsiyalashning mablag‘ manbalari hisoblanadi.

Sanatsiyalashning tashkil etilishi va uning qanday o‘tkazilayotganligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan amaldagi Nizomga asosan Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Korxonani saqlab qolish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, ushbu hol uchun samarali hisoblangan usul qo‘llaniladi, ya’ni korxonaga tugatiladi yoki bankrot deb e‘tirof etiladi.

Korxonaga so‘zsiz inqirozga qarab ketayotgan bo‘lsa va uning tugatilishi bankrotlikning oldini olsa, korxonaga tugatiladi. Korxonaning tugatilishi ichki va tashqi sabablardan kelib chiqadi, shuningdek, ko‘rilishi mumkin bo‘lgan barcha tadbirlar samarasiz bo‘lsa, korxonaga ma‘muriyatning qarori bilan tugatiladi.

Nazorat savollari

- 1. Korxonaga xavfsizligini ta‘minlashning asosiy maqsadlari nima?*
- 2. Korxonaning tijorat siri deganda nimani tushunasiz?*
- 3. Korxonaning bankrot bo‘lish asosiy belgilari nimalarda namoyon bo‘ladi?*
- 4. Iqtisodiy nochor korxonalarni sanatsiyalash deganda nimani tushunasiz?*
- 5. Sanatsiyalash qanday tashkil etiladi?*

17- mavzu. ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY VA IQTISODIY SAMARADORLIGI

17.1. Samaradorlik korxonada ishlab chiqarish faoliyatida muhim o‘lchov birligidir

Ishlab chiqarish samaradorligi har bir korxonada faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo‘jalik yuritishning sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Afsuski, bozor sharoitlarida “samaradorlik” tushunchasi, garchi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o‘sishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasa-da, baho, foyda, daromad, xarajat kabi tushunchalarga qaraganda kam qo‘llanilmoqda. Samarali ishlash degani o‘z mohiyatiga ko‘ra, mo‘ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo‘qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

“Samara”, “samaradorlik”, “ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik” kabi tushunchalarning orasidagi farqni anglab olish zarur.

Samara – ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo‘q qilish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonada

faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda *ishlab chiqarish samarasini*, pul shaklida esa *iqtisodiy samarani* tavsiflaydi.

Samaradorlik, avvalo, korxonada faoliyatining sifat jihatlari tavsiflovchi tushunchadir. U “samara” toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va majmua tavsifiga ega.

Samaradorlik chora sifatida ko‘plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo‘jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxonada o‘zining xo‘jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma‘noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo‘jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar(ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo‘lsa (mahsulot sifatiga ta‘sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o‘rtasidagi farqni yo‘qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o‘zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o‘sishi, aholi sog‘lig‘ining yaxshilanishi va umr ko‘rishining uzayishida aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi: iqtisodiy yutuqlar korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yordamlashadi. Masalan, foydaning o'sishi, jamg'armalarning ortishi korxonaga ijtimoiy vazifalar doirasini kengaytirish va ularni hal qilish imkonini beradi.

Biroq samaradorlik va uning asosiy ko'rsatkichi — foyda (daromad) o'z-o'zidan, avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Turli korxonalarda samaradorlikka erishish uchun mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan holda, turli vosita va yo'llardan foydalaniladi. Bunda vaqt omili, ya'ni samaradorlikka qisqa yoki uzoq muddatlarda erishishni mo'ljallash, asosiy rollardan birini o'ynaydi. Masalan, korxonada olayotgan foydasini qisqa vaqt mobaynida mahsulot sifatini yaxshilashni mablag' bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish, xodimlar malakasini oshirishga ajratilayotgan mablag'larni kamaytirish yo'li bilan ko'paytirishi mumkin. Uzoq muddatli rejalarda esa bu, foydaning kamayishiga va hattoki korxonaning bozordagi o'rnini yo'qotishi natijasida bankrotga uchrashiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy firma va korxonalar o'z faoliyatlarida samaradorlikka erishish uchun ishlab chiqarish texnika va texnologiyalariga e'tiborni kuchaytirishdan tashqari, mahsulot sifatini oshirish va uni reklama qilishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Masalan, Yaponiyaning "Omron" firmasi o'ziga "Barchaning yaxshi hayoti, yaxshi dunyo uchun" degan iborani shior qilib olgan. Amerikaning "Katerpillar" kompaniyasining shiori "Dunyoning har bir burchagida 48 soat xizmat ko'rsatish" bo'lsa, "Ribok" firmasi "Yaxshi bahodagi narx" iborasini shior qilib olgan. Bunday misollardan yana bir nechtasini keltirib o'tish mumkin.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, samara va samaradorlik qotib qolgan kategoriyalar qatoriga kirmaydi hamda faqatgina pul ko‘rinishida o‘lchanmaydi. Samaradorlik va sifatli mehnat tufayli korxonalar *birinchidan*, o‘zining iqtisodiy barqarorligi va bozordagi raqobatchilikka bardosh berishini ta‘minlaydi, *ikkinchidan*, o‘z imidjini yaxshilaydi va hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlaydi, *uchinchidan*, xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi. Demak, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llarini qidirish, xarajat va natijalarni to‘g‘ri solishtirish, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa tegishliligi, hududiy joylashishi va faoliyat turidan qat‘inazar, har bir korxonalar uchun muhim vazifa hisoblanadi.

17.2. Xo‘jalik yuritish samaradorligining mezon va ko‘rsatkichlari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish – korxonalar rahbariyatining doimiy vazifasidir. Bu vazifani yechish amaliyotda quyidagi omillar bilan bog‘liq bo‘ladi:

— bozor talablariga javob beruvchi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda eng kam xarajatlalar bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini ta‘minlovchi, optimal ishlab chiqarish jarayonini tanlash;

— iste‘molchilar talabini qondirishga yo‘naltirilgan mahsulotni sotish va yuqori daromad (foyda) olish;

— aylanma vositalarni tejash imkoniyatini yaratuvchi optimal ishlab chiqarish zahiralarni yaratish.

Xo‘jalik samaradorligini oshirish omillarining yuqorida sanab o‘tilgan har biri, faoliyat yuritishning turli shakl va ko‘rinishlari yordamida, ishlab chiqarish samaradorligi asosida yotuvchi xarajatlalar va resurslarning o‘zaro

aloqasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi (1-jadval).

1-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishdagi xarajatlar va resurlarning o‘zaro aloqasi

Moddiy va buyumlashgan shaklda		Pul shaklida	
<i>Resurslar</i>	<i>Xarajatlar</i>	<i>Resurslar</i>	<i>Xarajatlar</i>
Ishchi kuchi soni	Mehnat (sifat va miqdor)	Mehnat haqi fondi	To‘langan oylik miqdori, jumladan, mukofot va qo‘shimchalar
Bino, inshoot, mashina va uskunalalar (mehnat qurollari)	Mehnat qurollarining eskirishi	Asosiy kapital	Amortizasiya ajratmalar
Mehnat predmetlari	Iste‘mol, talab, materiallar, yoqilg‘i, energiya va hokazo	Aylanma kapital	Sarflangan xom ashyo, material va hokazolar qiymati
Tayyor mahsulot	Dizayn, reklama, qadoqlash, tovar yo‘qotishlari	Muomala fondlari	Qo‘shimcha xarajatlar (qiymat)
-	-	Pul mablag‘lari	Kredit uchun foiz

Xo‘jalik samaradorligini baholash, korxonada foydalaniladigan resurs turlari bo‘yicha amalga oshirilishi va miqdor jihatidan o‘lchanishi mumkin. Masalan, ***ishchi kuchidan*** foydalanish samaradorligini mehnat unumdorligi va mahsulotning mehnat sig‘imi ko‘rsatkichlari yordamida quyidagi formula asosida baholash mumkin:

$$M_u = \frac{Q}{I_s}.$$

Bu yerda: M_u — mehnat unumdorligi;

Q — mahsulot hajmi qiymat ko‘rinishida;

I_s — ishlovchilar (ishchilar) soni.

Mahsulotning mehnat sig‘imi mehnat unumdorligiga teskari kattalik bo‘lib, sarflangan mehnat miqdorining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$T = \frac{I_s}{Q}.$$

Mehnat qurollari (asosiy fondlar)dan foydalanish samaradorligi mahsulotning fond sig‘imi va fond qaytimi ko‘rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Bunda fond qaytimi korxonada asosiy fondlarining bir birligiga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulotni anglatganda, fond sig‘imi esa fond qaytimiga teskari kattalik bo‘lib, yangi asosiy fondlarni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan kapital qo‘yilmalarni aniqlash vazifasini bajaradi.

Fond qaytimi (f_q) va fondosig‘imini (f_s) aniqlash formulasi quyidagicha:

$$f_q = \frac{Q}{F}$$

Bu yerda: Q — mahsulot hajmi, qiymat pul ko‘rinishida;
 F — asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati.

$$f_s = \frac{F}{Q}.$$

Fond qaytimi qanchalik yuqori va fond sig‘imi qanchalik past bo‘lsa, ishlab chiqarish va mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi va aksincha. Mashina va uskunalardan unumli foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish hamda

xodimlar malakasini oshirish, fond qaytimini ko'paytirishning muhim zahirasi hisoblanadi.

Mehnat quollaridan foydalanish samaradorligi, mahsulotlarning material sig'imi yordamida sarflangan xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va mehnat predmetlarining umumiy qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi. Uning formulasi quyidagicha:

$$m = \frac{M}{Q} .$$

Bu yerda: m — mahsulotlarning material sig'imi;

M — mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan moddiy xarajatlarning umumiy miqdori pul ko'rinishida;

Q — ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, qiymat ko'rinishida.

Mahsulotning material sig'imi qanchalik past bo'lsa, ishlab chiqarish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Biroq mahsulot material sig'imini kamaytirish, uning sifatini pasaytirish yoki texnologiya me'yor va qoidalarini buzish hisobiga amalga oshirilmasligi lozim. Material sig'imining bu tarzda kamaytirilishi iqtisodiy jinoyat hisoblanadi va qonunga asosan jazoga tortiladi.

Bozor sharoitlarida korxonalar xo'jalik faoliyati samaradorligining umumlashtiruvchi yoki mezon ko'rsatkichi sifatida rentabellik yoki kapitalning daromadlilikini qabul qilish mumkin. Bu ko'rsatkich quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$R = \frac{F}{A_k} \cdot 100 .$$

Bu yerda: R — rentabellik, xo'jalik faoliyatining natijasini foyda shaklida ko'rsatadi va foizlarda o'lchanadi;

F — korxonaning balans foydasi;

A_k — avanslangan kapital(asosiy va aylanma).

Nisbatning kattalashishi mehnat, moliya, texnologiya va moddiy resurslaridan unumliroq foydalanishni anglatadi. Chunki aynan ular ishlab chiqarish hajmi va xarajatlari, mahsulot bahosiga ta'sir o'tkazadi. Xo'jalik faoliyati minimal xarajatlar bilan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan joylarda samaraliroq bo'ladi.

Korxonalar rentabelligini aniqlashda ba'zida korxonalar olgan umumiy foyda emas, balki mahsulot tannarxini pasaytirish hisobiga olinuvchi foyda ulushidan foydalaniladi. Bunday yondashuv korxonani ishlab chiqarish mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan tejamkorlik bilan rasional tarzda foydalanish, natijada esa mahsulot ishlab chiqarishga sarflanuvchi barcha xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar sari chorlaydi. Yuqorida keltirilgan xo'jalik samaradorligini baholash usullari va ko'rsatkichlaridan tashqari bugungi kunda amaliyotda O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulk Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan korxonalar qatnashgan iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlash uchun mezonlar tizimi ham qo'llaniladi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- to'lov qobiliyati koeffitsiyenti ($K_{r.q.}$);
- xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsiyenti (K_{xqm});
- moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti ($K_{m.m.}$);
- xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti (K_{xam}).

Bu ko'rsatkichlar bir qarashda mahsulot ishlab chiqarish sohasiga, demak, ishlab chiqarish samaradorligiga aloqasi yo'qday tuyuladi. Aslida esa aynan ular orqali korxonaning samarali faoliyatini anglatuvchi iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik aks ettiriladi. Bundan tashqari, mahsulotning material sig'imi, fond qaytimi, mehnat unumdorligi va

rentabellik ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarishni rejalashtirish va tahlil qilishda qo‘llansa, mezonlar tizimi yordamida esa korxonalar o‘zlarining faoliyat yuritish qobiliyatini ko‘rsatadi hamda turli xil muammoli vaziyatlarda xo‘jalik sudlarida o‘z manfaatlarini himoya qiladi.

To‘lov qobiliyati koeffitsiyenti ($K_{t.q.}$) korxonaning debitorlar bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilish hamda tayyor mahsulot va boshqa moddiy vositalarini sotishning qulay sharoitlarda sotish orqali baholanadigan to‘liq imkoniyatlarini ko‘rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{t.q.} = \frac{A_2 - M_{o.d.q.}}{P_2 - I_{qk}}.$$

Bu yerda: A_2 – aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zahiralari, tayyor mahsulot, pul mablag‘lari, debitorlik qarzlari va hokazolar);

P_2 – majburiyatlar (qisqa muddatli qarzlari, qisqa muddatli kreditlar, byudjet oldidagi qarzlari, kreditorlik qarzlari va hokazo);

$M_{o.d.q.}$ – muddati o‘tib ketgan debitorlik qarzlari;

I_{qk} – uzoq muddatli qarz va kreditlar.

Xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsiyenti ($K_{x.q.m.}$) ularning shakllanish manbalarini inobatga olgan holda, pul mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik darajasini aniqlaydi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{xqm} = \frac{P_1}{P_2 - I_{qk}}.$$

Bu yerda: P_1 – xususiy mablag‘lar manbalari (Nizom jamg‘armasi, qo‘shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va hokazo).

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (K_{mm}) korxonaning moliyaviy mustaqilligining kamayishi (ko‘payishi), kelajakda

moliyaviy qiyinchiliklarga uchrash xavfining kuchayishi (pasayishi) haqida ma'lumot beradi hamda korxonaga o'z majburiyatlari oldida javob berishining kafolatlarini belgilab beradi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{mm} = \frac{P_1}{IB}.$$

Bu yerda: IB — korxonaga balansi aktivi yoki passivining yakuni.

Xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti ($K_{x.a.m}$) korxonaning barqaror ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan aylanma vositalar mavjudligini tavsiflaydi. Shuningdek u, korxonaga egalari va kreditorlar manfaatlaridagi munosabatlarni ham aks ettiradi. Mazkur koeffitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{x.a.m} = \frac{P_1 - A_1}{A_2}.$$

Bu yerda: A_1 — uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, nomoddiy aktivlar va hokazo).

Ko'rsatkichlar tizimini tayyorlagan mualliflar tomonidan korxonaning to'lovga qobiliyatligi yoki nochorligini aniqlovchi o'lchamlar belgilab berilgan. Masalan, to'lov qobiliyati koeffitsiyenti hamda xususiy va qarzgaga olingan mablag'lar nisbati koeffitsiyenti 2 dan kichik bo'lsa ($K_{t,q} < 2$; $K_{x.q.m} < 2$), moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 0,5 dan kichik bo'lsa ($K_{mm} < 0,5$), xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti 0,1 dan kichik bo'lsa ($K_{xam} < 0,1$) korxonalar nochor deb topiladi. Korxonaga nochorligi, demak, xo'jalik faoliyatining samarasizligi to'g'risidagi yakuniy qaror, nochorlik o'lchamlarining umumiy summasi 4,6 dan kichik bo'lgan holda qabul qilinadi.

Xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish juda ham murakkab jarayon bo'lib, buning hamma uchun to'g'ri keluvchi yagona yo'li mavjud emas. Har bir korxonona bu masalani echishda o'z imkoniyatlari va yuzaga kelgan iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda harakat qiladi. Biroq barcha hollarda ham samaradorlikning asosida **foydani maksimallashtirish** yoki **xarajatlarni minimallashtirish** yotadi.

Shartli misol keltirib o'tamiz. Aytaylik, korxonaning 10 mln. so'm miqdorida mablag'i bo'lib, bu mablag'larni ishlab chiqarishni kengaytirishga sarflash mo'ljallangan. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, korxonona 10 mln. so'm sarf qilganda qo'shimcha 11 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqaradi, ya'ni foyda 1 mln. so'mni yoki qo'shilgan kapitalning 10 % qismini tashkil qiladi.

Agar korxonona ushbu mablag'ni bankka yiliga 12 %li depozit hisobiga qo'yanida, foizlar uchun 1, 2 mln. so'm foyda olgan bo'lar edi. Demak, muqobil xarajatlarni hisoblaganda korxonona 0, 2 mln. so'm miqdoridagi qo'ldan chiqarib yuborilgan foydani ham hisobga olishi lozim. Biroq ishga bunday yondashishning, bugungi bozor munosabatlari sharoitlarida keng tarqalgan bunday usulida, ya'ni eng ko'p foydaga ega bo'lish tamoyili asosidagi usulda, korxonona foydani maksimal darajaga chiqarsada, ishlab chiqarishni kengaytirishga erisha olmaydi. Ishlab chiqarishni kengaytirish esa, barchaga ma'lum bo'lganidek, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun eng muhim talablardan biri hisoblanadi.

17.3. Korxonona faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari va omillari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo'jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy

barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, korxonalar faoliyatida samaradorlikning, ijobiy natijalarning mavjud bo'lmashligini, obrazli qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo'qotish bilan izohlash mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib kelgan va hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo'llar bilan foydalanish mumkin:

— ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda majmua ravishdagi mexanizatsiyalashtirish;

— asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;

— progressiv, mehnat hamda resurslarni tejashga yo'naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;

— xom ashyo va materiallar (mehnat predmetlari) zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;

— ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hisoblash texnikasidan foydalanish;

— ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Amaliyotda fan-texnika taraqqiyotining, jumladan, uning tarkibiy qismlarining ahamiyati va rolini inkor qiluvchi yoki tushunmovchi korxonani topish amrimahol. Biroq ushbu omilni amalga oshirish uchun faqatgina xohish va istaklarning o'zigina etarli emas. Buning uchun *birinchidan*, fan-texnika taraqqiyotining ayni paytda zarur bo'lgan yo'nalishlarini izlash va aniqlash, *ikkinchidan*, pul mablag'larini va boshqa zarur bo'lgan resurslar (investitsiyalar) izlab topish, *uchinchidan*, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlamalarga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari, konstruktorlik, texnologik va

boshqa ilmiy muassasalar bilan kerakli aloqalarni “bog‘lash”, *to‘rtinchidan*, o‘z ilmiy-texnikaviy maqsadlarining samaraliligini hisoblab chiqish talab qilinadi.

Fan-texnika taraqqiyoti so‘nggi paytlargacha evolyusion ravishda rivojlanib kelmoqda edi. Asosiy e‘tibor amaldagi texnologiyalarni takomillashtirish, mashina va uskunalarni qisman zamonaviylashtirishga qaratilgan edi. Bunday chora-tadbirlar ma‘lum bir cheklangan natijalarga olib kelardi.

Yangi texnikalarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritishdan manfaatdorlik talab darajasida emasdi. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning xorijiy progressiv texnologiyalari “ekspluatorlik belgisi” sifatida, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish esa ishsizlikning asosi sifatida qabul qilinardi. Xorij tajribalariga kapitalistik tajriba deb qaralardi hamda bu tajribalarning keng tarqalishiga yo‘l qo‘yilmas edi.

Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi sharoitlarda, chuqur sifat o‘zgarishlari, tamoyillari yangi texnologiyalar va so‘nggi avlod texnikasiga o‘tish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida qayta qurollantirish zarur. Shu bilan bir qatorda olimlar, konstruktorlar, muhandis va ishchilarning ijodiy ruhda mehnat qilishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy manfaatdorlikni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yaponiya korxonalarida ijodiy guruhlar, sifat guruhlarini tashkil qilingan, ya‘ni fan-texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lmish universitetlar, ilmiy markaz va laboratoriyalar bilan aloqalar rivojlantirilmoqda. Yaponiyaning bugungi kunda robotlar hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarning boshqa turlarini yaratishda birinchi o‘rinlarda turishi ham bejiz emas.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri sifatida *mavjud*

ishlab chiqarish salohiyati - asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida, iloji boricha unumliroq foydalanishni ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari ularga buyumlashgan mehnat sarflanganligi, ya'ni korxonaning bugungi egalaridan tashqari avvalgi avlod vakillarining ham mehnati mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Bozor sharoitlarida ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanish zaruriyati haqida qayta ta'kidlashga ehtiyoj yo'q: birinchidan, bozor "vakuumni", harakatsizlikni, xo'jasizlikni va yo'qotishlarni kechirmaydi, ikkinchidan, o'z imkoniyatlari va resurslaridan yetarlicha foydalanmaydigan korxonalar istiqbolga ega bo'lmaydi hamda bankrotga uchrashga asos yaratadi. Shu sababli barcha turdagi resurslardan samarali foydalanish va ayniqsa ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlarida tejamkorlikka rioya qilish har bir korxonalar faoliyatining muvaffaqiyat qozonishining garovi hisoblanadi.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda *tashkiliy-iqtisodiy omillar*, jumladan, boshqaruv ham muhim o'ringa ega. Ularning ahamiyati ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va xo'jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o'rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish — konsentratsiya, ixtisoslashtirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin.

Boshqaruvda esa, boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirishning usul va shakllarini, ya'ni korxonalar faoliyatining butun xo'jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi. Korxonalar rahbarining ish stili va usullari fan-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos kelishi zarur. Masalan, korxonalar direktori bilimi, tajribasi va kasbiy malakasiga ko'ra, oddiy xodimlar va bo'linmalar (xizmat) rahbar-

laridan yuqori turishi lozim. Aks holda u jamoani kerakli tarzda boshqara olishi hamda muvaffaqiyatga erishishi va imidjga ega bo'lishi qiyin.

Rejalashtirishda rejalarning balanslashtirilishi, ko'rsatkichlar tizimini optimal shakllantirish, rejalashtirilayotgan maqsadlar resurslar bilan ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida korxonadagi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishni, rejalashtirish va iqtisodiy hisob-kitoblarni hamda zamonaviy kompyuter texnikasi va uning reja iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshirishdagi imkoniyatlarini yaxshi biluvchi, savodli va malakali iqtisodchilarni tanlashni talab qiladi.

Korxonada faoliyatining samarali bo'lishida *ishlab chiqarishni intensivlashtirish*, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turi va sifatini oshirish hamda jahon standartlari darajasiga yetkazish, *korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash* kabi omillar ham muhim o'rinni egallaydi. Bunga esa zamonaviy mashina va asbob-uskunalar, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or usullaridan foydalanish orqali erishiladi.

Albatta, yuqorida keltirib o'tilgan omillarni amalga oshirish ma'lum bir resurslar va vaqt sarflashni talab qiladi. Biroq bu muammolarning mohiyati va ahamiyatini o'zgartirmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamon bilan hamnafas holda harakat qiluvchi, barcha faoliyat turlarida tejamkorlikka rioya etuvchi, o'z salohiyatidan unumliroq foydalanuvchi, zamonaviy fan va texnika yutuqlariga tayanuvchi korxonada o'zining bugungi kundagi muvaffaqiyatlaridan tashqari, kelajakda ham muvaffaqiyatlarga erishishini, jumladan, bozordagi o'z o'rni va raqobatchilik muhitida qulay ahvolda bo'lishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish va korxonalar faoliyatining samaradorligi «moda»ga ergashish yoki avvalgi rejali iqtisodiyotning aks-sadosi emas. Korxonaning muvaffaqiyati va iqtisodiy jihatdan barqarorligi samarali xo'jalik yuritishga asoslanadi.

Samaradorlik — xo'jasizlik, isrofgarchilik va boshqa talofatlarning antirodidir. Biroq samaradorlik o'z-o'zidan avtomatik ravishda kelmaydi. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish quvvatlari va resurslardan oqilona foydalanish, tejamkorlikka rioya qilish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va oqilona investitsion siyosat samaradorlikni oshirishning muhim omili va yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

Samaradorlikning asosi xarajatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirishdir. Korxonalar xo'jalik yuritishining samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida mehnat mahsuldorligi, fond qaytimi va fond sig'imi, material sig'imi, mehnat sig'imi, rentabellik va hokozolarni ko'rsatish mumkin.

Korxonaning barqarorligi yoki nochorligi uning samarali yoki samarasiz faoliyat yuritishini mos ravishda aks ettiradi. Bu jihatdan bugungi xo'jalik yuritish amaliyoti to'lov qobiliyati koeffitsiyenti, xususiy va qarzga olingan aylanma mablag'lar nisbati koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti va xususiy aylanma vositalar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanadi. Turli korxonalarda xo'jalik yuritish samaradorligiga o'z imkoniyatlari va yuzaga keluvchi iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda turli usullar yordamida erishiladi. Samaradorlikka erishishning hamma uchun to'g'ri keluvchi yagona yo'li mavjud emas. Korxonaning vazifasi barcha faoliyat turlarida samaradorlikka erishish yo'llarini qidirishdir.

Nazorat savollari

- 1. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati nimada va u korxonada umumiy faoliyati samaradorligidan qanday farq qiladi?*
- 2. Samaradorlikning qanday turlarini bilasiz? Samaraning samaradorlikdan farqi nimada?*
- 3. Korxonada ishlab chiqarish faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlari mazmunini ochib bering. Bu ko'rsatkichlarni hisoblash usuli qanday?*
- 4. Sizning fikringizcha, qaysi ko'rsatkich korxonada faoliyati samaradorligini ko'proq aks etiradi?*
- 5. Korxonada faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'llari va omillarini sanab bering.*
- 6. Bozor sharoitlarida samaradorlikni iqtisodiy ko'rsatkich hamda tushuncha sifatida qabul qilish mumkinmi?*
- 7. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy o'rin kimga tegishli: insonlarga, resurslarga yoki fan-texnika taraqqiyotiga?*

18- mavzu. KORXONA KADRLARINING SALOHIYATI VA SIYOSATI

18.1. Korxonalar kadrlarining salohiyati

“Hamma narsani kadrlar hal qiladi” qoidasi iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi kunlarda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Prezident I. Karimov aytganidek: “Bugungi kunda biz oldimizga qanday vazifalarni qo‘ymaylik, bizning oldimizda qanday muammolar mavjud bo‘lmasin, ularning barchasi pirovardida kadrlar va faqat kadrlarga borib taqaladi.”

Zamonaviy korxonalar faoliyatida mehnat qurollari va mehnat predmetlaridan tashqari kadrlar ham katta ahamiyatga ega. Aynan kadrlar ishlab chiqarishni boshqarib, joriy va istiqboldagi rejalashtirishni amalga oshiradilar hamda ishlab chiqarish vositalarini foydalanishga kiritadilar. Kadrlarning kasbiy malakasi qanchalik yuqori bo‘lsa, korxonalarining iqtisodiy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari shunchalik yaxshi bo‘ladi.

Korxonaning “mehnat resurslari”, “kadrlar”, “personal” tushunchalarini, garchi ular o‘rtasida ma’juziy ma’noda aytganda “xitoy devori” yo‘q bo‘lsa va ular kadrlar salohiyatini shakllantirish va ulardan foydalanishda bir xilda qo‘llanilmasda, bir-biridan farqlash lozim.

Salohiyat (potensial) tushunchasining o‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib (potentia), imkoniyat, kuch-quvvat, yashirish imkoniyat ma’nosini anglatadi. Lug‘at va qo‘llanmalarda u


mavjud va harakatga keltirilishi, ma'lum bir maqsadlarga erishish uchun foydalanish mumkin bo'lgan vosita, zahira, manba, deb ko'rsatilgan.

Kadrlar salohiyati — mehnat resurslarining umumiy soni va jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbiy ko'nikmalari, korxonaning u yoki bu bo'g'inlarida va jamoatchilik ishlab chiqarishida qatnashishi bilan ifodalanuvchi mehnat resurslari yoki imkoniyatlarini ifodalaydi. Kadrlar salohiyati jamiyat mehnat salohiyatining tarkibiy qismidir.

Kadrlar korxonada mehnat bilan band bo'lgan hamda korxonada shaxsiy tarkibiga kiruvchi turli kasbiy-malakaviy guruhlardagi xodimlar majmuasidir. Korxonaning **mehnat resurslari** uning ishchi kuchini tavsiflaydi. **Korxonada personalni** doimiy va yollanib ishlovchi, malakali va malakasiz barcha xodimlardan iborat bo'lgan shaxsiy tarkibni izohlaydi.

Ishlab chiqarishdagi asosiy «shaxs», iqtisodiyot nazariyasida talqin qilinishicha, **ishchi kuchi** — insonning mehnat qilishga jismoniy va aqliy qobiliyatlari hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitlarida mehnat qobiliyati, ishchi kuchini tovar holiga keltiradi. Biroq bu oddiy tovar emas. Uning boshqa tovarlardan farqi shundaki, birinchidan, u o'z qiymatidan ortiq bo'lgan qiymat yaratadi, ikkinchidan, uni jalb qilmasdan biron-bir ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish mumkin emas, uchinchidan, asosiy fondlar va aylanma mablag'lardan samarali foydalanish darajasi, xo'jalik yuritish iqtisodiyoti ko'p jihatdan unga bog'liq bo'ladi.

Korxonalarda ishchi kuchi va umuman kadrlar salohiyatidan samarali foydalanishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: xodimlarning moddiy manfaatdorligi, atrof-muhit, aqliy, jismoniy va asablar kuchlanishi, boshqarish usullari va hokazolar. Ayniqsa mehnat uchun ijtimoiy sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi (5-chizma).



5-chizma. Mehnat yuklamasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Korxonada personalni yoki kadrlar tarkibi va uning o'zgarishi ma'lum bir sifat, miqdor va tuzilmaviy tavsiflarga ega bo'lib, ulardan faoliyatni rejalashtirish va hisobga olishda foydalaniladi. Korxonada xodimlarining ro'yxat bo'yicha tarkibi zamonaviy tasnifi bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sanoat-ishlab chiqarish personalini (S.ICh.P) — asosiy va yordamchi sexlar, zavod boshqaruvi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo'limlari (IT va TL.I), hisoblash markazi xodimlari;

- noishlab chiqarish personalini — uy-joy, kommunal va yordamchi xo'jaliklarda, sog'liqni saqlash, profilaktika va ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar;

— rahbarlar — direktor, direktor o‘rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo‘lim va xizmat boshliqlari, ya’ni muhandis-texnik personal (MTP);

Sh xizmatchilar — hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo‘jalik xizmati xodimlari (agentlar, g‘aznachilar, ish yurituvchilar, kotiblar, statistlar va hokazo).

Korxonada S.ICh.Pning asosiy va ko‘p sonli qismini ishchilar tashkil qilib, ular mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish, ish bajarish), ta‘mirlash va uskunalarga xizmat ko‘rsatishda (*ta‘mirlovchi ishchilar*) qatnashadilar, mehnat predmetlarini tashish va mahsulot tayyorlashni amalga oshiradilar (*transport ishchilari*), qurilish-ta‘mirlash ishlarini bajaradilar (*quruvchi-ishchilar*).

Korxonada faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilishda, ayniqsa, mehnat unumdorligi, o‘rtacha ish haqi, kadrlar aylanishi va oqimini hisoblashda o‘rtacha ro‘yxat soni ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. Bu ko‘rsatkich yil yoki chorak uchun korxonada faoliyat ko‘rsatgan barcha oylar uchun ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi sonini qo‘shish va hosil bo‘lgan yig‘indisini mos ravishda 3 (12) ga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Bu ko‘rsatkichni to‘g‘ri aniqlash uchun xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o‘tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilishni inobatga olgan holda har kuni hisobga olib borishni yo‘lga qo‘yish zarur.

Kadrlarning korxonada harakatlanishini tavsiflash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar hisoblanadi va tahlil qilinadi:

Ishchilarni qabul qilish bo‘yicha aylanish koeffitsiyenti (K_{kk}):

$$K_{kk} = \frac{\text{Ishga qabul qilingan personal soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Ishdan ketish bo‘yicha aylanish koeffitsiyent ($K_{i,k}$)

$$K_{ip} = \frac{\text{Ishdan bo'shagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Kadrlar oqimi koeffitsiyenti (Q_k)

$$K_{k.o} = \frac{\text{O'z xohishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganlik uchun ishdan bo'shagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Korxonalar personali tarkibining doimiylik koeffitsiyenti ($K_{p.d.t.}$)

$$K_{p.d.t.} = \frac{\text{Butun yil davomida ishlagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Kadrlar salohiyati miqdoriy tavsif berishdan tashqari *korxonalar personalining sifat tavsifi* ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonalar xodimlarining mazkur ishlab chiqarishga kasbiy va malakaviy jihatdan yaroqlilik darajasi bilan aniqlanadi. Bu yerda birinchi o'ringa “mutaxassislik”, “kasb”, “malaka ” kabi tushunchalar chiqadi.

Mutaxassislik insonda ma'lum bir turdagi ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Masalan, iqtisodchi, buxgalter, moliyachi yoki texnik tilda — mexanik, quruvchi, energetik, geolog va boshqalar. Ishchilarning bilim va qobiliyatlariga bo'lgan talab yagona tarif-malakaviy ma'lumotnomasida (YaTMM), (MTP) va xizmatchilarga esa lavozimlar malakasi ma'lumotnomada aks ettirilgan. Bu hujjatlar asosida korxonalar ishchi va xizmatchilar tariflariga o'zgartirishlar kiritadilar.

Kasb-faoliyatning maxsus va tor ko'rinishdagi turi bo'lib, mutaxassislik kabi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talab qilsada, mutaxassislikdan farqli ravishda ishlab chi-

qarishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo'shimcha ko'nikmalarni ham talab qiladi.

Malaka deganda biron-bir kasb yoki mutaxassislik bo'yicha murakkab ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalari va bilimlar darajasi tushuniladi. Ishchilar malakasi darajasini baholashda o'rtacha tarif koeffitsiyenti va o'rtacha tarif razryadi hisoblanadi. Tarif razryadlari va koeffitsiyentlari bir vaqtning o'zida bajarilayotgan ishlar murakkabligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Kadrlar salohiyatining yuqorida sanab o'tilgan va boshqa tushuncha va ko'rsatkichlari korxonaning personalining miqdoriy, sifat va tuzilmaviy holatlari haqida va ularni personalni va umuman ishlab chiqarishni boshqarish, jumladan, korxonaning mehnat resurslari samaradorligini oshirish bo'yicha choratadbirlarni ishlab chiqish, tahlil qilish va rejalashtirish maqsadlari uchun o'zgartirishlar kiritish yo'nalishlari haqida ma'lumot beradi.

18.2. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosati

Yuqorida aytib o'tilganidek, ishchi kuchi va umuman, kadrlar, ishlab chiqarishning muhim elementi hisoblanadi. Shu sababli korxonaning ishlab chiqarish faoliyatining joriy va istiqboldagi strategiyasi kadrlar siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishchi kuchini yollash, joylashtirish va rejalashtirish;
- xodimlarni o'qitish, tayyorlash va malakasini oshirish;
- kadrlarni xizmat lavozimlari bo'yicha yuqori pog'onaga ko'tarish;
- yollash shartlari, mehnat va unga haq to'lash sharoitlari;

— mehnat jamoasida qulay ruhiy (psixologik) muhitni yaratish.

Korxonalarining kadrlar siyosatini, garchi yagona javobgar shaxs sifatida ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatining barcha jabhalari, jumladan, kadrlarni tanlash va joylashtirishda asosiy javobgarlikni korxonada derektori o‘z bo‘yniga olsada, faqatgina uning o‘zi amalga oshirmaydi. Bunda direktordan tashqari bo‘lim va xizmat boshliqlari, kadrlar bo‘limi, iqtisodiy va ishlab chiqarish bo‘limi, mehnat va haq to‘lash bo‘limi, texnik bo‘lim va boshqalar ham ishtirok etadi.

Korxonada kadrlar siyosati sog‘lom va mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan jamoani shakllantirish, kadrlarning jinsi va yoshiga ko‘ra tarkibi va malakasi hamda ularning ishlab chiqarishda to‘g‘ri joylashtirilishini hisobga olishdan tashqari, ishlab chiqarish va mehnat sharoitlarining o‘zgarib borishiga o‘z vaqtida e‘tibor qaratishi, fan va texnikaning yangi, ilg‘or yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish, xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishni rag‘batlantirishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, kadrlar siyosati birinchi o‘rinda, insonning ishlab chiqarish va turmushdagi yangi ahloqini shakllantirish, ikkinchidan, novatorlik va yuqori mehnat unumdorligiga mafaatdorligini rivojlantirishi lozim.

Korxonaning kadrlar siyosati amaliyotda faqat ichki vazifa va muammolarni hal qilishdan tashqari, bandlik sohasida davlat siyosatiga tayanadi va quyidagilarni ko‘zda tutadi:

— fuqarolarning mehnat huquqi va kasb tanlash erkinliklarini amalga oshirishda bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash;

— fuqarolarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning ishlab chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga bandlik sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va

ijtimoiy faoliyatning boshqa yoʻnalishlari bilan uygʻunlashtirish orqali koʻmaklashish;

— mehnat faoliyati davrida va nafaqaga chiqqandan soʻng ham xodimlarning ijtimoiy muhofazasini taʼminlash;

— aholi bandligi muammolarini yechishda, qoʻshma korxonalar tuzish va ishlab chiqarish bilan bogʻliq loyihalarni amalga oshirish yoʻli bilan xalqaro hamkorlik yuritish va boshqalar.

Iqtisodiyotni boshqarishning turli darajasida, jumladan, korxonalarda ham kadrlar siyosati koʻp qirrali, murakkab va uzoq muddatli jarayon boʻlib, bir qancha resurs va vaqt sarflanishini talab qiladi. Ishchilar yoki oliy maʼlumotli mutaxassislar, yaʼni turli kadrlar bilan turli darajadagi xarajatlar koʻzda tutiladi. Agar ishchilar zamonaviy korxonalar personalini tuzilmasida 70-80 % va undan ortiqni tashkil qilsa, oliy maʼlumotli mutaxassislar 15-20 % ni tashkil etadi. Shunga mos ravishda ularni tayyorlash ham turlicha boʻladi: ishchilar korxonasi, ixtisoslashtirilgan maktab va kasb-hunar bilim yurtlarida tayyorlansa, oliy maʼlumotli mutaxassislar bir necha yil davomida oliy oʻquv yurtlarida tahsil oladilar.

Afsuski, baʼzi korxonalarining rahbarlari, bugungi kunda tahlillarning koʻrsatishicha, koʻproq buyurtmalar “portfeli”ni shakllantirish, resurs va investitsiyalar izlash, mahsulotlarni sotish kanallarini aniqlash, debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish, turli xoʻjalik muammolarini hal qilish bilan band boʻlib, bularning barchasi bozor munosabatlari sharoitlarida muhim ahamiyat kasb etsada, ularning ahamiyati kadrlar siyosatini toʻgʻri olib borishning ahamiyatidan kamdir. Bu masalada yirik korxonalar unchalik yutuqlarga ega boʻlmasada, mazkur holatlar asosan shaxsiy tarkibi 100 kishigacha boʻlgan kichik va oʻrta korxonalar uchun xosdir.

Shunday bo'lsa-da, kadrlar siyosatiga, jumladan zarur bo'lgan kadrlar salohiyatini shakllantirish va uning tarkibiga ijobiy o'zgarishlar kiritish, xodimlar malakasini oshirishga e'tiborni qaratmasdan, ishlab chiqarishni rivojlantirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish, korxonalar hayotiga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilish, eng asosiysi, korxonaning barqaror va daromad keltiruvchi faoliyat yuritishini ta'minlash qiyin.

Masalan, Yaponiyada korxonalar va firmalarning kadrlar siyosati birinchi o'rinda universitetlar va ilmiy markazlar bilan aloqalarni kuchaytirishga, ikkinchidan, sanoatni robotlashtirish sohasida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, bu ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishning o'sishidan tashqari, ishchi va mutaxassislar o'rtasida raqobatchilik muhiti yaratilishiga ham xizmat qiladi.

Germaniyada iqtisodiyot va ishlab chiqarish sohasidagi deyarli barcha o'zgarishlar kadrlar siyosati bilan bog'liqdir. Korxonalarining kadrlar salohiyatini shakllantirishda xodimlar malakasi va ma'lumot darajasi asosiy omil hisoblanadi. Germaniya korxonalar va firmalari har yili xodimlarning ma'lumot olishi va malakasini oshirishi uchun 10 mlrd. markadan ortiq mablag' sarflaydi. Bundan tashqari, ular mutaxassislarga ishdan bo'sh vaqtlarda qatnab kerakli bilimlarni olishlari mumkin bo'lgan o'quv markazlari va kurslar haqida ma'lumot beradilar.

Kadrlar siyosati Fransiya va Italiya korxonalarida ham yetakchi o'rinni egallaydi. Gresiyada raqobatchilik tufayli kompaniya va firmalar ishlab chiqarishni doimiy ravishda modernizatsiya qilishlari, yangi texnologiyalarni qo'llashga yirik miqdordagi mablag'larni sarflashlariga to'g'ri keladi. Biroq modernizatsiyalashning yakuniy maqsadlariga xodimlar

malakasi ishlab chiqarishning texnik darajasiga mos kelgan holdagina erishish mumkin. Shu sababli ko‘plab sanoat korxonalari ishchi va mutaxassislarning malakasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasini keng ravishda amalda qo‘llaydilar.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, kadrlar siyosati barcha mamlakatlarda korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizdagi korxonalar ham bundan mustasno emas. Ular chet elning ilg‘or korxonalari yutuqlarini o‘zlashtirishdan tashqari, o‘z kadrlar siyosatini yaxshilashi, xodimlar malakasining o‘sishi va hayotning mehnat bilan bog‘liq davri sifatini oshirishga e‘tibor berishlari zarur. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishiga, korxonalarining mustaqilligidan tashqari korxonalar va ishlab chiqarishni boshqarishning aksiyadorlik shakllari, shuningdek, iqtisodiyotda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Nazorat savollari

- 1. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosatini qay tarzda tasavvur qilasiz?*
- 2. Kadrlar tuzilmasi deganda nima tushuniladi va uni belgilab beruvchi omillar qanday?*
- 3. Korxonada mehnat unumdorligini aniqlashning qanday usularini bilasiz?*
- 4. Qaysi omillar korxonada ishlab chiqarishning o‘shishini belgilab beradi?*

19- mavzu. ISHLAB CHIQUARISHDA INTEGRATSION TASHKIL TOPISH

19.1. Integratsion yechimlarni belgilovchi omillar

Strategik hamkorlik bu — mustaqil tashkilotlar uchun strategik aniq vazifa va maqsadlarda ikkala tomonga foyda keltiradigan hamkorlik turidir.

Global masshtabdagi kuchli raqobat bozorlarning to‘la va boyligi siyosiy va iqtisodiy tizimlarini ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning tashkiliy va strukturaviy yechimlarini o‘zgartirishni talab qiladi.

Strategik hamkorlik — bu korxonaning modelini xususiyat va qirralarini o‘zgartiruvchi yangi integratsion shakldir.

Strategik hamkorlik iborasi zahirida turli xildagi mustaqil tashkilotlarni shakllantirish tushuniladi. Korparasiyalar strategik hamkorlikdagi tashkilotlar yetkazib beruvchi yoki ishlab chiqaruvchi turdagi hamkorlik uzok muddatga yetkazib berish lisenziyalarini sotish tashkilotlar uchun foydali daromad keltiruvchi strategik maqsad va vazifalarga yo‘naltirilgan hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi taktik hamkorlik ikki taraf uchun o‘zaro ehtiyojlarga asoslanishi va foyda rakobat kurashidagi texnologiyani, marketing xarajatlar elementlarini o‘zida aks ettiradi.

Raqobat ustunligi qo‘lga kiritilgach texnologiyalarga erishish uchun o‘qsh daromadli aloqalarni yo‘lga qo‘yish resurslar bazasini kengaytirish mahsulot sifati va ishlab chiqarishni oshirish va yangi bozorlarni egallashga talab oshib boradi.

Ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning strategik hamkorlikdagi umumiy ustunliklar quyidagilar:

1. Milliy bozorni himoya qilish.
2. Texnologiya, bozor va resurslarga yo‘l ochib berish.
3. Sanoatni boshqa tarmoqlarida erishilgan yangiliklarni ishlab chiqarishda qo‘llash.
4. O‘quv-tajriba markazlarini shakllantirish va boshqalar.

Biroq raqobatdagi ustunlik ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan strategiyaning o‘zlash va ushlab turish strategiyalarini qo‘llashga asoslanadi (2- jadval).

Barcha omillarni turlichaligini integratsion ishlab chiqarish yechimlariga ta‘sir qiluvchi quyidagi yo‘nalishlarni keltirish mumkin.

1. Tashqi muhitning turlichaligi va murakkabligi.
2. Yangiliklar va resurslar o‘rtasida oraliqni farqi.
3. Moliyaviy qiyinchiliklar.
4. Bozorga yo‘l ochish.
5. Infarmatsion texnologiyalar.

Tashqi muhitning har xilligi va murakkablashuvi.

Tashqi muhitning har xilligi deganda, muhit elementlarining, ya‘ni insonlar, tashkilotlar va ijtimoiy kuchlar o‘rtasidagi farq tushiniladi.

Tashqi muhitning o‘zgaruvchanligi tovar va xizmatlarni iste‘molchilarga yetkazib berishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shular tufayli korxonalar o‘z imkoniyatlarini talablarini qondirish uchun murakkab texnologiyalar va ko‘rsatilgan sohalarga bog‘laydi.

O‘zgarishlar tufayli korxonaning yangi bozor shartlariga javob berish va yangi mahsulot ishlab chiqarishdagi samarasi pasayadi. Tashkilot bu kabi qiyinchiliklarga qarshi quyidagicha kurash olib boradi:

Tashkiliy qarorlarning ushlab turish va o'sish strategiyasi

Tashkiliy qarorlarning ushlab turish va o'sish strategiyasi sharoitidagi raqobat ustunligi	
Ushlab turish strategiyasi.	O'sish strategiyasi.
<p>To'lamaslik muammosini yechish. Quyidagilarni qo'llab faoliyat sohalariga hamkorlikda egalik qilish yoki almashtirish.</p> <ul style="list-style-type: none"> — savdo belgisidan foydalanish. — mavjud ta'minot kanallaridan foydalanish. — texnologiyalarni qayta ishlash xarajatlarini taqsimlash. — servis hujjatlarini qo'llash. — yangi tovarlar texnologiyalarni va NIOKR ning imkoniyatlarini qo'llash. — ortiqcha kuvvatlarni qo'llash. — masshtablarda tejashni qo'llash. <p>Ishlab chiqarish zanjirida kamchilaklarni to'ldirish. Mustaqillikni saqlash.</p>	<p>Yangi sfera va bozorlarda faoliyatini tarqatish.</p> <ul style="list-style-type: none"> — Tavakkalchilikni qisqartirish — aktivlarni likvidligi — birikishlarni oldini olish — o'sish va kengayishni kutish — yangi texnologiyalarni qabul qilish — hamkorlik bozorida tovar hajmini oshirish <p>Yangi mahsulot yaratish Yangi ishlab chiqarish va texnologiya standartlarini ishlab chiqish Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish Sinergiya natijasiga erishish Boshqalar</p>

1. Ichki tashkiliy strukturasi o'zgartirish.

2. Boshqa tashkilotlar bilan integratsiyani joriy etish.

Yana bir yechimlardan biri tavakkalchilikni pasaytirish uchun boshqa tashkilotlar bilan aloqani yo'lga qo'yish kerak.

Texnologik va moliyaviy muammolar. Ilmiy soha va resurslarga bo'lgan ehtiyoj odatda korxonaning yangi texnologiyalarga bo'lgan talabini yaratadi. Bu esa o'z o'rnida

strategik hamkorlikdagi tashkilotlar uchun yordamchi texnologiya va tavvakkalchilikda muxim omili xisoblanadi.

Texnologik muammolar yirik va shuning bilan birga kichik va o'rta biznesda ham kuzatiladi. Ko'pchilik raqobat ustunligiga ixtisoslashgan tashkilotlar bu natijaga yirik tashkilotlar bilan kelishish hisobiga erishadi. Bunda birinchidan, texnologiyaga ixtisoslashgani uchun va ikkinchidan ishlab chiqarish kuvvati hisobiga qayta ishlashga ketadigan vaqtni tejash hisobiga ijobiy natijalarga olib keladi.

Yirik masshtabda faoliyat olib beruvchi tashkilotlar uchun kichik firmalar bilan hamkorlik qilish iqtisodiy va strategik ustunliklar yaratadi. Hamkorlik tufayli kichik xarajatlar bilan ishlab chiqarish siklini, shuningdek moliyaviy rusurslarni boshqa strategik sohalar tadqiqot va marketing mahsulotlarini yaratishlarga sarf qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Kichik firmalar yirik korxonalariga ish kuchi bilan bog'liq muammosi bor sohalarda yordam beradi. Kichik biznes bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar uchun hamkorlik doimiy daromad uchun mustahkam aloqalar demakdir.

Shunday qilib, kichik korxonalar moliyaviy ta'minotga ega bo'lsa, yirik korxonalar ixtisoslashgan texnologiyalarga ega bo'ladi. Raqobat uchun bo'lgan moliyaviy ehtiyojlar birlashmalarning bozordagi ustunliklariga sabab bo'ladi. Natijada ko'plab tashkilotlar raqobatlashish uchun yoki moliyaviy yo'qotishlarning ehtimolini pasaytirish uchun hamkor qidiradilar

Bozorlarga yo'l. Hamkorlik bozorlarga yo'l ochish nuqtai nazaridan ham muhimdir. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar odatda chakana va ulgurji savdogarlar tomonidan taqsimlanadi. Bu vertikal kanallar talab va takliflarning tarqalishi uchun muhimdir. Keyinchalik yirik raqobatlashuvchi tashkilotlar global bozorlarga yul ochish va mahalliy bozorlardagi

segmentlarni qo‘lga kiritish uchun gorizontaal hamkorlik yaratiladi. Bu kabi marketing kelishuvlari hamkorligi ana‘naviy kanallar tarqalishini va xalkaro bozorlarga yo‘l ochishda ustunlikka egalik qilishni qo‘lga kiritishni kengaytirdi.

Infarmatsion texnologiyalar. Infarmatsion texnologiyalar xarajat va samaradorlik nuqtai nazaridan tashkiliy aloqalarni yaratishga imkon beradi. Infarmatsion texnologiyalardagi yangiliklar ichki va tashkilotlararo kommunikasiyalar uchun muhim resurslar bilan aloqalar samaradorligi oshiriladi. Informatsion texnologiyalarni tashkilotlarga singdirish g‘arbiy texnologiya resuslarini kirib kelishidagi bir qancha to‘siqlarni olib tashlaydi. Xatlarni elektron pochta orqali yuborish mahsulot ishlab chiqarishda samaralirok bo‘lmoqda. Informatsion texnologiya bilan har qanday masofa orqali aloqa qilish mumkin.

Shunday qilib raqobatbardoshlik va texnologik tashqi muhitni rivojlantirish bo‘yicha ichki harakatlarni va kommunikatsiyani yaratishda tashki hamkorlar bilan aloqani talab qiladi.

Strategik hamkorlik avtomobilsozlik, samolyotsozlik, aviodyvetellar, dori mahsulotlari sohasida qo‘llaniladi. Kompyuter texnologiyalarining paydo bo‘lishi, uzoq masofalarga xizmat qiluvchi aloqalarni rivojlanishi bu sohada katta yutuqlarga erishishga sabab bo‘lmoqda.

19.2. Tashkil topishning integratsion turlari

Strategik hamkorlikning asosiy turlari o‘zaro kelishuv alyans, qo‘shma korxonalar.

O‘zaro kelishuv. O‘zaro kelishuv «mahsulot — narx» zanjiri jarayoni bosqichida oddiy usul hisoblanadi. Ular

mol yetkazuvchilar, ishlab chiqaruvchilar, tarqatuvchilar va sotib oluvchilarni, shuningdek so‘ngi is‘temolchi tovar va mahsulotlarni vertikal kanallar bo‘yicha birlashtiradi.

Funksional ixtisoslashish va samaradorlik boshqa turdagi tashkilot aloqalariga bo‘lgan ehtiyojni yaratadi.

O‘zaro kelishuv va aloka turlari sotib oluvchi, yetkazib beruvchi, ishlab chiqaruvchi, marketing, brokerlik hamkorligi sharoitida qiyin bo‘lmagan hamkorlik munosabatlaridir. Xaridor yetkazib beruvchi munosabatlari jihozlar, ehtiyot qismini yetkazib beruvchi va yig‘uvchilar kabi keng doiradagi xaridor va yetkazuvchilarni qamrab oladi.

19.2.1. Strategik hamkorlik turlarining tasnifi

Korxonaning strategik mustaqilligini va bozordagi erkin moslashishini qo‘llab-quvvatlab turilishi vertikal integratsiyalashish hisoblanadi. Kuchli texnologik sistemalarsiz bozorda katta pozitsiyalarda keng harakat qila olmaydi.

Xaridor va yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlar oddiy baza mahsulotlarini almashtirishdan tortib yuqori foyda ko‘rishgacha aloqalarda hamkorlik qilish mumkin. Hamkorlikning bu turi kuchli ijtimoiy, iqtisodiy, texnik va servis xizmatlarini uzoq vaqt mobaynida yaratishga imkon beradi. Bu munosabatlar mahsulot yoki jarayon, dizayn, uzoq muddatli shartnomalar va «o‘z vaqtida joyiga» kabi dasturlarni o‘z ichiga oladigan faoliyatlar jamlamasidan iborat.

Kompyuter texnologiyasi sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar vertikal integratsiya qo‘yilishi sababli har biri alohida o‘z ishini bajaradi. Hamkorlikdan maqsad shuki tannarxni pasaytirish, narxlar va taxsimplash likvidligi, yagonaligi hisobiga bo‘ladi.

Vertikal aloqalarning patensial manfaatlari.

1. Xom ashyo va materiallar xaridida mahsulotga ketadigan xarajat miqdorlarni kamayishi.
2. Xom ashyo va komponentlar yetkazib berishda va mahsulotni taqsimlashdagi ishonchlilik.
3. Ishlab chiqarish zanjirining turli bosqichlarida taqsimlanishni yuqori samarasi.
4. Yangiliklar kiritishda soha va imkoniyatlarning kengayishi.
5. Shu sohaga boshqa tadbirkorlarning kirib kelishi uchun to'vsiqlarning paydo bo'lishi.

Vertikal aloqalarning salbiy taraflari.

1. Qayta integratsiyalashayotgan sohaga kapital kiritish xatto minimal foyda ham keltirmasligi mumkin.
2. Ishlab chiqarish zanjirining bir xil emasligi talab qilinayotgan rentabelikka erishishni qiyinlashtiradi, shuning uchun bosqichlar o'rtasidagi aniq bir balansga erishish qiyin.
3. Alohida ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi soha a'nanaviy texnologiyaga asoslangan bo'ladi va bozordagi o'zgarishlarga tez ko'nikmaydi, bu esa vertikal integratsiyada tavakkalchilikni oshiradi.
4. Optimal masshtablarga erishish harakatlari nazorat va boshqaruv usuli tashkiliy ishning muxim shakllarini talab qiluvchi ishlab chiqarish zanjirini yo'qotishga sabab bo'lishi mumkin.

Kooperatsiyalar alyans strategiyasi. Kooperatsiya strategiyasi bu birinchi navbatda korxonalarining mahsulot taqsimlashdagi kelishuvlaridir. Ikki korxonaning kooperatsiya strategiyasi bir yoki bir kancha maqsadlarga erishish uchun qilingan hamkorligidir.

Kooperatsiya ishtiroki uchun uzoq muddatli va gorizantal aloqani, shuningdek xuddi shunday boshqa aloqalar ham taqdim qilinadi.

Gorizantal aloqa bir-biriga mos keluvchi va bir xil faoliyat yurituvchi hamkorlikdagi texnologiya, marketing resurslarini katta samara berishi uchun birlashtirishi mumkin. Gorizantal aloqalar ishlab chiqarish kulamini kengaytirish va moliyaviy resurslarni taqsimlashni oshiradi.

Kooperatsiyaning asosiy sabablari bo'lib bozorga erishish mavjud tarkatish kanallarini qo'llash xarajatlarni tejamkorlik bilan ishlatish yoki maxsus yangiliklar va resurslarni taqsimlash bo'lishi mumkin.

Alyans korxonalarini avval o'zidan kelib chiqib erishilmagan texnologik yangiliklar va tajribaga erishish imkon yaratadi. Kooperatsiyaning maqsadi o'zaro foyda hisoblanadi. Ikki hamkor bir-birini funksional to'ldirgan holda daromad ko'radi.

19.3. Hamkorlikni boshqarish va tashkil qilish

Strategik hamkorlikni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bosqich yoki jarayonni belgilovchi hayotiy siklni qo'rib chiqish hammasi uchun xarakterlidir. Misol uchun, bir turdagi strategik hamkorlikning strategik kooperatsiyasini boshqarish va tashkil qilish yuzasidan ko'rib chiqamiz.

1. Aniq bir maqsad qo'yish va hamkorni tanlash.
2. Muzokaralar va kelishuvlarni natijasi.
3. Kooperatsiyani boshqarish.
4. Natijalarni erishish va kooperatsiyani tugatish.

Maqsad qo'yish va hamkor tanlash. Agar korxonada texnologik yangiliklarni belgilayotgan, bozordan joy qidirayotgan bo'lsa marketing tadqiqotlarini olib borayotib yaxshi hamkorni topishi lozim. Kuchsiz hamkor kooperatsiyaga naf olib kelmasligi va sizning hisobingizdan ishlab chiqarishni va yangiliklarni o'rganishi mumkin. Bu texnologiyani

o'rganish va raqobatbardoshlik bilan bog'liqdir u foyda keltirish o'rniga faqat zarar keltirishi mumkin.

Kelishuvni nihoyalash va kooperatsiyani boshqarish.

Muzokara jarayonida takliflarni kiritish va muammolarni aniqlashdan boshlanadi. Konsensus sohasi aniqlanadi va bir-birni to'ldiruvchi struktura jarayonlari tashkil etiladi. Strategik ehtiyoj va jarayonlar aniqlanadi. Strategik kooperatsiyaning maqsadi xarajatlarni bo'lish tavakkalchilikni pasaytirish hisoblanadi lekin texnologik yangiliklar bunga to'sqinlik qilishi mumkin.

Kooperatsiya bir turdagi tovar turini ishlab chiqarish uchun tuziladi, lekin uning yashirin maqsadi hamkorning texnologik mazmunini bilish uning yangiliklarini va texnologiyasini boshqa sohalarga qo'llashi ham mumkin.

Kooperatsiyani qo'llash va tugatish. Hamkorlikni ishlab chiqarish va texnologiyalar bilan boyitish bilan bog'liq bo'lganda qo'shma ishlab chiqarishga e'tiborni qaratish kerak. Muhim omil bo'lib tashkiliy muammolar, savdo-sotiq, homiylarini aniqlash jarayonini rejalashtirish va qo'shma ishlab chiqarish uchun yo'nalishlar hisoblanadi. Bu jarayonda rejalashtirish, marketing bo'limlari va ishlab chiqaruvchilar muhim rol o'ynaydi.

Nazorat savollari

- 1. Strategik hamkorlik nima?*
- 2. Strategik hamkorlikdagi umumiy ustunliklar nimada?*
- 3. Integratsiya deganda nimani tushunasiz?*
- 4. Integratsiyaga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?*
- 5. Tashkil topishning qanday integratsion yo'llarini bilasiz?*
- 6. Strategik hamkorlik turlarini ayting.*
- 7. Alyans nimani anglatadi?*
- 8. Vertikal aloqalarning salbiy taraflari bormi?*

20- *mavzu*. BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH

20.1. Ishlab chiqarish va marketing qarorlari

Ishlab chiqarish funksiyalari qarorlarini qabul qilishda jiddiy ta'sir etib, uni tashkil etish bo'yicha va undan ko'riladigan samaraga (ayniqsa, tashkilot rivojlanishi tanlashda, uning infrastrukturasi, ishlab chiqarishga investitsiyalarni amalga oshirishda) uzoq muddatda erishiladi va tashkilotning yashab qolishda, muvaffaqiyatli faoliyatda muhim rol o'ynaydi.

Ishlab chiqarish menejerlari tashkilot qarorlarini qabul qilishga uning boshlang'ich bosqichidan jalb etilishi zarur. Qarorlar misol uchun ishlab chiqariladigan mahsulotni tanlash, tashkil etuvchi komponentlarni chetdan olish bo'yicha bo'lishi mumkin. Investitsiya hajmi, texnik jihozlar, ishchi kuchi tashkilotning uzoq muddatli maqsad va vazifalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Ko'p yillar davomida jahon bozorida vaziyat shunday yuzaga keldiki, bunda korxonalariga o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlari assortimentini kengaytirish bilan, talabni to'liqroq qondirish foydali bo'lib qolib, bu maqsad ular faoliyatining asosiy marketing strategiyasiga aylandi.

Marketing nuqtai nazaridan qanchalik ko'p mahsulot ishlab chiqarilsa, shunchalik aniq ustunlikka erishish ko'proq mumkin bo'ladi, ishlab chiqarish nuqtai nazaridan esa, teskarisi ishlab chiqariladigan mahsulotlar doirasi qanchalik

tor bo'lsa, ishlab chiqarish quvvatlarini shunchalik samarali ishlatish mumkin. Mahsulot assortimenti shunday tanlanishi kerakki, mavjud texnologik jihozlar samarali foydalanishi mumkin bo'lsin.

Misol, vaziyat shu bilan murakkablashadiki, odatda ishlab chiqarish menejerlari o'z funksiyalarini samarali bajarishlari uchun sexdagi maxsus ta'lim olmagan ishlab chiqarish xodimlarini jalb etiladi. Amalda ularning majburiyatlariga uzoq muddatli strategiyalarni hisobga olinmaydigan kundalik ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish kiradi. Shuning uchun yuqori zveno rahbarlari doimo korxonaning rivojlanishi strategik maqsadlariga erishishiga qiziqishlari tufayli marketing va ishlab chiqarish qarorlari o'rtasida kompromisga erishiladi.

Sotuv va marketing bo'limlari uchun samaradorlik mahsulotlar turiga bog'liq bo'lmagan sotilgan mahsulotlar umumiy hajmi bilan aniqlanadi. Lekin ishlab chiqarishda xarajatlar mahsulot assortimentiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun har xil turdagi sotilgan mahsulotlar hajmi va ma'lum vaqt oralig'ida ishlab chiqilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar hajmi o'rtasidagi proporsiyani saqlash muhim. Marketing bo'limi doimo ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar, ya'ni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi yoki o'zgarishlar tarkibi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishchi zarurki, bozordagi o'zgarishlar va ular ortidan ishlab chiqarish qobiliyatlari o'rtasidagi aloqa saqlanib qolsin. O'z navbatida ishlab chiqarish menejerlari ishlab chiqarish da resurslarni shunday mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirishlari kerakki, bunday mahsulotlarga bozorda talab katta bo'lib, korxonaning faoliyati yuqori samaradorlikka erishsin.

20.2. Ishlab chiqarish qarorlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi tovar va xizmatlarga talab omillari

Tovar va xizmatlarga talabning kalit omillar quyidagilar hisoblanadi:

1. Sifat va ishonchlilik
2. Narx.
3. Yetkazib berish tezligi.
4. Yetkazib berishning ishonchliligi.

Endi ularning har biriga batafsil to'xtalamiz.

Sifat va ishonchlilik. Mahsulot hayotiy jarayonining boshlang'ich bosqichida bozordagi yetakchilik o'rnini mahsulotning yuqori sifati va ishonchliligi o'zlashtirish orqali zabt etiladi.

Narx mahsulot hayoti jarayonining o'sish bosqichiga kirib, so'ngra turg'unlik davriga o'tgach, kalitli omil sifatida baho chiqadi. Uning asosida, odatda, ishlab chiqarish xarajatlari yotadi. Bu davrda ishlab chiqarish funksiyasining roli oshib, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarini qidirishga ahamiyat kuchaytiriladi.

Misol, Rossiya radioelektron bozorida, jumladan televizorlar bozorida Yaponiyadan yuqori sifatli televizorlar kirib kelgunicha tovarga bo'lgan asosiy tanlov mezon narx bo'lib kelgan. Rossiya tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari u darajadagi mahsulot yuqori standartlariga javob berolmaganligi uchun asosiy mezon bo'lib, sifat yuzaga chiqdi. Lekin boshqa mamlakatlardan keltirilgan shu turdagi mahsulotlar bilan to'ldirilishi, hamda mamlakatdagi iqtisodiy inqiroz munosabati bilan yana asosiy mezon sifatida narx yuzaga chiqdi.

Yetkazib berish tezligi. Agar tashkilot o'z mahsulotini raqobatdoshiga qaraganda, tezroq yetkazib bersa, bu mijoz

uchun muhim omilga aylanishi mumkin. Bu omil mahsulot hayotiy jarayonining barqarorlik davrida tergan bo'lsa, katta rol o'ynaydi. Mijozga tovarni yetkazib berishni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hisobiga ki buyurtma ustuvorlikka erishganda yoki u shartnoma tuzilguncha qisman bajarilgan va shartnoma bajarilishi ishonchligiga ishonch bo'lganda ishlab chiqarishni qayta rejalashtirish bilan tezlashtirilishi mumkin.

Yetkazib berish ishonchliligi. Bu talab korxonaning buyurtmani o'z vaqtida bajara olish qobiliyatini anglatadi. Bu holatda hamma narsa ishlab chiqarishga bog'liq bo'ladi. Buyurtmani bajarishning va tovar mahsulotini yetkazib berish real vaqti hisobi bo'yicha aylanma vositalar zahirasi va quvvatlari hisoblariga asosan ish grafigi tuziladi.


Tovar va xizmatlarni bozorga chiqishida qarorlar ishlab chiqishda asosiy e'tiborni shunday omillarga qaratish zarurki, iste'molchilar tovarlarni tashlashda ular asosiy mezon bo'lib chiqishi mumkin. Aynan ular tovarlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha investitsion

20.3. Qarorlar qabul qilishda modellardan foydalanish

Ishlab chiqarishni boshqarish doirasida qarorlar ishlab chiqishda modellar muhim rol o'ynaydi. Ulardan samarali foydalanishda shularni bilish zarurki, ulardan foydalanish bilan qanday natijalarga erishish mumkin, bu natijalar qanday interpretisiyalanadi va qanday chegaralanishlar va ruxsatlar bor? Oxirgi punk ayniqsa muhim, chunki amalda har bir model o'zining shartlari yig'indisiga ega bo'lib, qanday sharoitlarda ushbu modeldan foydalanish samarali ekanligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish amaliyotida quyidagi modellar qo'llaniladi: texnologiya S-egri rivoji, o'zlashtirish egri tajribasi, talab (texnologiya)ning egri hayotiy jarayoni, SWOT matrisasi, Boston konsalting guruhi va boshqalar.

Texnologiyaning S-egri rivoji texnik faoliyatning strukturasi bilan bog'liq bo'lib, uzluksiz va sakrovchi shakl o'zgaruvchi muhit sharoitida yaxshiroq natijalarga erishishda foydalaniladi. U yoki bu vazifalarni hal etish uchun yirik korxonalar yaratish va yirik qo'yilmalar qo'yish ko'pincha samara keltirmasligi mumkin, lekin alohida entuziastlar va kichik korxonalar birdan oldinga chiqib ketishadi. Buning sababalaridan biri texnik doiraning rivojlanishi egri chiziq shaklida yuz beradi (6- chizma).



6-chizma. S-egri rivoj texnologiyasi.

Birinchi bosqichi texnologiya tug'ilishi embrional)da investitsiyalar samaradorlikni o'sishiga olib kelmaydi. So'ngra, ikkinchi bosqich keladi (kalitli texnologiya) va birdan o'sishi yuzaga kelib, natija tezlikda o'sib boradi.

Yakunlovchi bosqichda (mumtoz texnologiya) qo'yilmalar minimal qaytim beradi. So'ngra texnologik uzilish davri boshlanadi, yangi prinsipal texnologiyaga o'tish sodir bo'ladi. Qandaydir bosqichda yangi egri rivoj bo'lagi vaqti bilan eski yakuniy eski rivoj bo'lagi bilan mos tushib qoladi. Shu bosqichda eski va yangi texnologiyalar o'rtasida raqobat kurashi sodir bo'ladi.

Misol. Oq-qora rangli televizorlar, katushkali va kasetali magnitofonlar, plastikali va kompakt diskli proigrivatellar, porshenli va reaktiv samolyotlar.

Texnika va texnologiyalarning yangi avlodi mavjudlarini siqib chiqaradi, lekin texnologik uzilishni aniq oldindan topish qiyin. Tashkilotlarning biron-bir texnologiyaga bog'lanib qolishligi, qat'iy rejalar, barqaror struktura S-egri rivojdan boshqa yangi texnologiyaga o'tishda to'xtalib turuvchi omillar hisoblanadi. Bunday o'tish boshida kam samarali bo'lib, yangi texnikani baholash uchun mezonlarni tanlashni va texnologiyalarni joylashtirishni talab etadi, so'ngra, samaradorlik oshib boradi. Maksimal kapital qo'yilmalarini kalitli texnologiyaga va saylanma klassik texnologiyaga qo'yish zarur. Rossiya va AQSh da S-egri texnologik rivojni qo'llash orqali avtoshinalar ishlab chiqarish texnologiyasini almashtirish prognozi.

A – diogonal konstruksiyali shinalar ishlab chiqarish

B – radial konstruksiyali shinalar ishlab chiqarish

C – kamerasiz shinalar ishlab chiqarish

D – quyma shina yoki egiluvchan shakldagi shinalarni yi-g'ishning istiqbolli texnologiyasi.

Pv, Rs – texnologiyaning vaqtinchalik uzilishi, Rossiya va AQSh da qo'llaniladigan.

Investitsiyalardan samarali foydalangan holda yangi texnologiyalarni qo'llash bilan Rossiya shina ishlab chiqarish

korxonalari boshqa davlatlar bilan bir vaqtda vaqtinchalik texnologik uzilishlarni bartaraf etib, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga o'tishi mumkin. (C, D-texnologiyalarga)

Bularning barchasi ishlab chiqarish ning yangi texnologiyalarni paydo bo'lishini o'z vaqtida qayd eta olishiga, kalitli texnologiyalar samaradorligini tez o'sishi davridan maksimal foydalanishga, eski texnologiya (klassik texnologiya) ni barqaror rivojlanishi davriga aralash strategiyani qo'llash va yangi texnologiyani ishlab chiqarish (embrional rivojlanish bosqichi) ga bog'liq.

Egri tajriba (o'zlashtirish). Egri tajribani yuzaga keltirishda shunga asoslanishadiki, eng raqobatbardosh korxonada bu - har qanday teng sharoitda eng kam xarajatlarga ega bo'ladi. Egri tajriba modeli 30 yillarda paydo bo'lib, u yoki bu mahsulot ishlab chiqarishdagi to'plangan tajribalar bilan xarajatlar yig'indisi o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatadi. Bu aloqa shundan iboratki, ishlab chiqarish hajmining oshishi birlik mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining ma'lum foiz hajmidagi xarajatlarning kamayishini anglatadi.

Ikki karrali logarifmli shkalada bu egri tajribalar bukilish burchakli to'g'ri chiziqlarga aylanib, xarajatlar pasayishi doimiy sur'atini ko'rsatadi.

Mehnat xarajatlari material xarajatlariga nisbatan katta miqdorda pasayadi. Amerikalik olim Raytaning egri mehnat xarajatlari tajribasi bitta buyum tayyorlashdagi mehnat talab sarfining kamayishi mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan xarakterlanadi. Bu samara uch omil bilan tushuntiriladi.

Birinchi omil. Ishlab chiqarish hajmining o'sishi yuqori samarali texnik uskunalar qo'llash va mahsulot birligi egri xarajatlarning kamayishi hisobiga mehnat samaradorligini o'sishiga olib keladi.

Ikkinchi omil. Xodimlarni ishlab chiqarish ni o'zlashtirish davrida o'qitish mehnat samaradorligini oshirishga imkon yaratdi.

Uchinchi omil. Mahsulotni o'zlashtirish bo'yicha kiritilgan ishlab chiqarish hajmini oshirishga, mahsulotga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoniga ta'sir etuvchi yangiliklar. Agar yangiliklar yetarlicha jiddiy bo'lsa, uning ko'magida korxonada bozorda yetakchilikni egallashi mumkin.

Egri tajriba model yoki jadval yordamida hisoblanishi mumkin. Bitta tovar namunasi T_n quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$T_n = T_1 \cdot n^e.$$

T_n — birlik mahsulot ishlab chiqarish mehnat sarfi.

T_1 — birinchi mahsulot birligi ishlab chiqarish mehnat sarfi

n — mahsulot 1 ta namunasining tartib raqami.

e — mehnat sarfi o'zgarishi elastik ko'rsatkichi.

Misol. Ma'lumki, doimiy ishlab chiqarish faoliyati 80% li egri tajribaga ega. Bitta mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ishchiga 10 soat vaqt kerak bo'ldi.


Yechish. Har safar hajmi 2 barobar oshib boradi. Bu miqdorda 1 ta birlikka sarflangan vaqt taxminan o'tgan vaqtga o'qitish ko'rsatkichiga ko'paytirilganga teng bo'ladi. (bizning misolimizda — 0,8).

Agar menejer o'qitish vaziyatida i/ch hajmi o'zgarishlari istiqbolini bilsa, u qancha ishchi kuchi kerak bo'lishi to'g'risida qaror qabul qilishda qiynalmaydi. Faqat boshlang'ich ko'rsatkichlariga asoslangan qarorlar aniq bo'lmaydi.

20.4. Talab va texnologiyaning egri hayotiy jarayoni bosqichlari

Ishlab chiqarish qarorlarini qabul qilishda mahsulot yoki xizmatga bo'lgan talab, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish texnologiyasi fazasini to'g'ri baholab olishi muhim.

Korxonalarining notekis rivojlanishi savdo hajmining o'sishi yoki kamayishi ilgarilari odatiy holda qaralgan. Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy o'sishning talab va texnologiyaning egri hayotiy jarayoni sifatida mashhur bo'lgan «Gompart bo'yicha egri o'sishi» deb nomlanuvchi yangi tushuncha shakllana boshlandi (7-chizma).



7-chizma. Talab va texnologiyaning egri hayoti jarayoni bosqichlari.

Talab siklini bir necha davr yoki fazalarga bo'lish mumkin:

1) tug'ilish (E) davri – yangi mahsulot yoki xizmatning jadal paydo bo'lish davri bo'lib, bunda bir necha korxonalar yetakchilikni egallashi uchun o'zaro raqobatlashishadi.

2) Jadal o'sish (G_1) davri – bozorda o'rnashib olgan raqobtdoshlar o'z g'alabalarini nishonlashadi. Bu davrda odatda talab taklifga qaraganda yuqori bo'ladi.

3) o'sishning sekinlashishi (G_2) davri – talabning to'yintirilgani anglatuvchi birinchi belgilar paydo bo'ldi va taklif talabdan oshib ketadi.

4) Turg'unlik (M) davri – talab yetarlicha qondirib bo'lingan, i/ch da sezilarli zarar ko'rishlar yuzaga kelgan.

5) Pasayishi (D) davri – mahsulot (xizmat) ning eskirishi, iste'molining kamayishi, iqtisodiy yoki demografik sabablarga ko'ra aniqlangan hajmining pasayishi (ba'zida 0 darajagacha).

Agar korxonada o'z rivojlanishini saqlab qolmoqchi bo'lsa, u o'z faoliyatiga doimo yangiliklarni qo'shib borishi, korxonada iqtisodiy o'sish strategiyasiga mos kelmaydigan holatlarni bartaraf etib bilishi kerak. Bu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni strategik boshqarishning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Bunda mahsulotga talab sikli o'zgarish fazasini oldindan ko'ra olish mumkin bo'lib, raqobat muhiti sharoitida korxonada strategiyasini qayta ko'rib chiqish zarur.

Nazorat savollari

- 1. Ishlab chiqarish va marketing qarorlarining farqi nimada?*
- 2. Kompromis tushunchasini izohlab bering.*
- 3. Qarorlar qabul qilishga qanaqa omillar ta'sir etadi?*
- 4. Qaror qabul qilishdagi modellarni aytib bering.*
- 5. Talabning egri hayotiy jarayoni nima?*
- 6. Mehnat xarajatlari material xarajatlariga nisbatining 3 omilini bilasizmi?*

21- mavzu. KORXONA FAOLIYATI TURLARINING TAHLILI VA SHAKLLANISHI

21.1. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati shakllari

Korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati shakllarida qarorlar qabul qilish bir qator bosqichlardan tashkil topadi va boshlang‘ich buyurtmalar portfeli asosida o‘tkaziladi.

Korxonada faoliyati turlari haqida aniq tasavvur hosil qilishga yordam beruvchi bir necha omillar mavjud bo‘lib, bular:

- ishlab chiqarish yoki xizmat (servis) ko‘rsatish sohasi;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish texnologiyasi;
- mahsulot, xizmatlarning iste‘molchilari;
- mahsulot, xizmat realizatsiyasining geografik zonasi.

Faoliyat turlarini tahlil qilishda korxonani ishlab turgan joriy ahvolini va tashqi muhitini, shuningdek resurslar salohiyatini va korxonaga yangi kiritilgan innovatsion portfelni hisobga olish zarur bo‘ladi.

Korxonaning tashqi muhit ta‘siriga munosabati turlari tahlil qilinib, ularning qaysi birlari boshqaruvda ustunroq ekanligi aniqlanadi. Agar korxonaning innovatsion munosabati sust bo‘lsa, kiritiladigan yangiliklar to‘plamini shakllantirish, hatto barcha boshqa asoslar (moliyaviy sharoit, raqobatbardosh pozisiya, yangiliklar kiritilishga bo‘lgan ishlab chiqarish ehtiyojlari) bunga qulaylik tug‘dirdada maqsadga muvofiq bo‘lmaydi.

Kelajakda dastlabki faoliyat turlari to‘plamini sinchkovlik bilan tahlil qilishga yordam beradigan ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi.

«Lomo» AJ (Rossiya) harbiy-sanoat kompleksining muvaffaqiyatli islohotlashtirilayotgan firmalaridan biridir. Aynan shuning uchun ham u ishlab chiqarish, hamda sotish hajmini o‘stirishga muvaffaq bo‘lmoqda. Ushbu natijalarga mahsulotlar assortimentning sezilarli darajada istiqbolsiz bo‘lgan turlaridan «tozalanishi» hisobiga erishildi. Ushbu turdagi masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun, AJ ma’muriyati boshqaruvning ba’zi funksiyalarini desentralizasiya qilinishiga rozilik berdilar. Natijada «Lomo» uyushmasiga tegishli ishlab chiqarish texnik kompleks menejerlariga, ularning moliyaviy harakatlari ustiga, ularning moliyaviy harakatlari ustidan markaziy nazoratning saqlab qolinishi bilan ayni bir paytda, nima ishlab chiqarish va nima sotishni mustaqil hal qilish huquqi berildi. Natijada oxirgi 5–7 yil ichida «Lomo» AJ ishlab chiqaruvchi mahsulotlari turlarini 700 tadan 120 taga yoki deyarli 6 martaga qisqartirdi. Bu esa resurslarni boshqa, talabi yuqori bo‘lgan tovarlarga (tibbiyot texnikasi, optik uskunalari va b.) yo‘naltirib, ularni bozorga faollroq chiqarishga yordam berdi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati turlarining tarkibini shakllantirishda quyidagi mezon va aniqlashtiruvchi omillar hisobga olinadi:

— kutilayotgan o‘shish sur‘atlari va texnologiyaga talabning qat’iy jarayoni bosqichlari tavsifida o‘z ifodasini topgan o‘shish istiqbollari;

— rentabellik dinamikasi;

— istiqbollar aniqligi yo‘qoladigan va o‘zgarish mumkin bo‘lgan barqarorsizlikning kutilayotgan darajasi;

— faoliyat turlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi kelajakda muvaffaqiyatli raqobatning asosiy omillari.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati turlarini baholash uchun portfel matrisalaridan foydalaniladi:

- Boston konsalting guruhi matritsasi;
- Hayotiy jarayon (sikl) portfeli A.D. Littl matritsasi;
- Mas Kinsey ning ko'p omilli matritsasi

21.2. Qaror qabul qilish jarayoni

Qaror qabul qilish — bu ishlab chiqarishni boshqarishni markaziy bo'g'inidir. Qaror qabul qilish jarayoni quyidagi ketma-ketlikdagi masalalarni o'z ichiga oladi:

- 1) Muqobil qarorlarni shakllantirish;
- 2) Muqobillarni taqqoslash;
- 3) Eng optimal muqobilni tanlash;
- 4) Tanlangan muqobil qarorlarni realizatsiyasi;
- 5) Natijalarni nazorat qilish;

Qaror qabul qilishning omadli yoki omadsiz chiqishi ko'pincha bu jarayon bosqichlarning qanchalik yaxshi tashkil qilinganiga va ob'ektiv shartlar, hamda chegaralar e'tiborga olinganiga bog'liq bo'ladi.

Qarorlarning muqobillari : shakllantirish, taqqoslash va tanlov.

Muammoning muvaffaqiyatli hal qilinishi ma'lum darajada imkoni bo'lgan muqobil variantlarini qanchalik aniq ifodalanganligi bilan bog'liqdir.

Muqobillarni qidirishda doimo bir yoki bir necha yaxshi salohiyatli muqobillarni boy berish havfi mavjud bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, ularning miqdorini chegarasi bor. Ko'p narsa qaror qabul qiluvchi shakllarning tajribasi va ijodiy qobiliyatiga hamda, vaziyatning holatiga bog'liq. Lekin

mumkin bo'lgan muqobil variantlarni puxta namoyon qilishga qilingan harakatlar zoye ketmaydi.

Muqobil variantlarni tahlil qilish va taqqoslash uchun ko'pincha matematik yoki statistik usullar qo'llaniladi. Eng yaxshi muqobilni tanlovi e'tiborga olingan maqsad va mezonlarga bog'liq bo'ladi.

Qarorlarni realizatsiyasi va natijalarni nazorati. Qarorlarning realizatsiyasi tanlangan muqobil, belgilab qo'yilgan ishlarni bajarilishini bildiradi. Masalan, asbob-uskunalarni sotib olish, yangi mahsulot ishlab chiqarishni boshlash, ish vaqtidan tashqari vaqtdan foydalanish, ichki va tashqi muhitda o'zgarishlarni kutish.

Qarorning samaradorligi uning amalga oshirilish natijalarini nazoratiga bog'liq bo'ladi. Agar istalgan natijalar bo'lmasa, u holda jarayon tekshirilishi uning, ijrosida hisob-kitoblarda yoki noto'g'ri boshlang'ich asosli farazlarda hatolarni aniqlashga to'g'ri keladi.

Ushbu holatda vaziyatni tezda to'g'irlash mumkin. Qarorlarning realizatsiyasi jarayoni har doim ham ketma-ket amalga oshirilmaydi. Odatda, orqaga qaytishga va hammasini boshdan boshlashga, ayniqsa, muqobil variantlarni ishlab chiqishni tahlil qilishga to'g'ri keladi. Masalan, agar bironta ham muqobil variantlar istalgan natija berolmasa, qo'shimcha muqobil variantlar ishlab chiqilishi zarur bo'ladi.

Qaror qabul qilishining shart va cheklovlari. Menejerning barcha sa'y-harakatlariga qaramasdan qaror kutilmagan holatlar tufayli muvaffaqiyatsiz chiqishi mumkin. Ba'zan ushbu vaziyat menejerning ish uslubi tufayli sodir bo'ladi, masalan, uning qarorlarni tez qabul qilishi yoki oqibatlarni ko'ra olmasligi kabilarni keltirish mumkin.

Menejerlar hisobga olishi kerak bo'lgan boshqa omil-ob'ektiv cheklovlarga moddiy vositalar, insoniy imkoniyatlar,

ish kuchi, muddatlar, texnologiyalar, axborotlar va boshqalar kiradi.

Yuqoridagi cheklovlar tufayli menejerlar ko‘pincha maksimal foyda olish nuqtai nazaridan optimal qarorni topa olmaydi. Buning qrniga ular o‘rtacha qoniqarli qaror bilan kifoyalanishiga to‘g‘ri keladi.

Muvaffaqiyatsiz qarorlarning boshqa sababi shundaki, korxonalar odatda muayayn mezonlar bo‘yicha optimal-lashtirish o‘tkaziladigan doiradagi bo‘limlar hajmidagi muammolarni ko‘rib chiqadi (subpozitsiya). Bu turli bo‘limlarning o‘zlariga qulay bo‘lishi uchun qaror tayyor-lashga qilingan urinishlaridir. Lekin bir bo‘limga qulay bo‘lgan qaror, boshqa bo‘limlar uchun noqulay bo‘lishi mumkin.

Shu kabi xatolar ko‘pincha logistik tizimni joriy qilishda yetarlicha paydo bo‘ladi. Ishlab chiqarish bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlar shartlari aniqlik va muayyanlik darajalariga ko‘ra tasniflanadi. Bunda 3 ta asosiy kategoriyalar mavjud bo‘lib, ular: aniqlik, tavakkalchilik va noaniqlik.

Aniqlik ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) ning muhim parametr-larini bildiradi, masalan harajatlar, ishlab chiqarish quvvati va ishlab chiqarish ehtiyoji bizga ma‘lum ko‘rsat-kichlaridir. Tavakkalchilik — ba‘zi parametrlar ehtimolligini bildiradi.

Noaniqlik — bo‘lg‘usi voqealarning ehtimolligini aniq baholash mumkin emasligini bildiradi.

1. Bir birlik foyda — 50 so‘m, 100 birlikka buyurtma mavjud qancha foyda olasiz? (Bu aniqlikka misol, chunki bir birlikdan foyda va umumiy ehtiyoj bizga ma‘lum).

2. Bir birlikdan foyda — 50 so‘m. Oldingi tajribaga asoslanib 20 ta buyurtma olinishining 50% li ehtimoli va 100 (ta) birlik buyurtma olinishining 50% li ehtimoli mavjud.

Kutilayotgan foyda (daromad) qancha? (Bu tavakkalchilikka misol, chunki ehtiyojlarning ko'rsatkichlari ehtimolidir).

3. Bir birlikdan foyda 50 so'm. Potensial talab ehtimolliklari ma'lum emas. (Bu noaniqlikka misol). Har uchala mumkin bo'lgan shart qarorlar qabul qilishning o'ziga xos usullarini talab qiladi.

21.3. Qarorlar nazariyasi. Muqobil variantlarni tanlash va baholash

Qarorlar nazariyasi qaror qabul qilish jarayoniga umumiy yondoshishni ifodalaydi. U ishlab chiqarishni boshqarish sohasida keng doirada qo'llanilishi mumkin, ulardan ishlab chiqarish quvvati hajmini rejalashtirish, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish, asbob uskunalarni tanlash, ishlab chiqarishni joylashtirish.

Qaror qabul qiluvchi shaxs (QQQSh) bunday yondoshuvni qo'llagan holda:

1) Bo'lg'usi ob'ektiv shartlarni aniqlashi (masalan, talab past, o'rtacha yoki yuqori bo'ladi: imzolangan shartnomalar soni 1, 2 yoki 3 ta bo'ladi, yangi mahsulot raqamini taqdim etish yoki etmaslik)

2) Hech narsa qo'llamay kutish kerak bo'lgan muqobil variantlar ro'yxatini ishlab chiqishi;

3) Har qanday bo'lg'usi shartlarda barcha muqobil variantlarni o'z harajatlarini qoplashini aniqlashi yoki taxminan baholashi;

4) Agar iloji bo'lsa, har qaysi bo'lg'usi shartning ehtimolligini (darajasini) baholashi;

5) Muqobil variantlarni qarorning tanlangan mezoni bo'yicha baholash (masalan, kelishi mumkin bo'lgan maksimal foyda) va ular ichidan eng yaxshisini tanlashi kerak.

Hal qilish uchun ma'lumotlar ko'pincha bo'lg'usi turli shartlarda har bir muqobil variant uchun kiritilayotgan o'zini qoplash darajasini ko'rsatuvchi jadval ko'rinishida taklif qilinadi. Bu muqobil variantlarni tanlash va taqqoslashni yengillashtiradi.

Ishlab chiqarish quvvatlarni rejalashtirish kutilayotgan bo'lg'usi talab yoki o'zini qoplash darajasi 3-jadvalda kutilayotgan bo'lg'usi daromad minus (-) harakatlar ko'rsatkichi (kattaligi) sifatida keltirilgan. Barcha muqobil variantlarni taqqoslama asosga keltirishga nima yo'l qo'yadi.

3-jadval

Bo'lg'usi talab ko'rsatkichi bo'yicha muqobil variantlarni baholash

Joylashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlarining muqobil variantlari	Kutilayotgan bo'lg'usi talab, ming so'm		
	Past	O'rtacha	Yuqori
Kichik quvvatli	100	100	100
O'rta quvvatli	70	120	120
Yirik quvvatli	-40	20	160

Agar ishlab chiqarish quvvati kichik bo'lsa, unda uchala kutilmagan shartlarda daromad bir xil bo'ladi.

Agar o'rtacha ishlab chiqarish quvvatida past talab bo'lgan muqobil variantda bo'lsa, korxonada 70 ming so'm foyda ko'radi, xuddi shu vaqtda talab o'rtacha va yuqori darajada bo'lsa, mos ravishda 720 ming so'm foyda ko'radi.

Agar talab past bo'lsa, yirik ishlab chiqarish quvvati mavjud bo'lgan variantda korxonada 40 ming so'm zarar

ko'radi, o'rtacha talab bo'lsa, 20 ming so'm daromad va yuqori talab mavjud bo'lsa, 160 ming so'm daromad oladi.

Ishlab chiqarish menejeri uchun biror variantni tanlashidan oldin oladigan daromadni hisobga olish muammosi mavjud bo'ladi.

Muqobil variantni baholash kutilayotgan bo'lg'usi shartlar bilan aloqador aniqlik darajasiga bog'liq holda farqlanadi. Bu yerda yana 3 ta variant mavjud bo'ladi: aniqlik, risk (tavakkalchilik) va noaniqlik.

Qaror qabul qilish shartlari. Aniqlik shartida qaror qabul qilish.

Bo'lg'usi mumkin bo'lgan shartlarning qay biri amalga oshishi aniq ma'lum bo'lganda, qaror nisbatan deyarli oddiy bo'ladi. Bunaqa shartlarda o'zini eng ko'p oqlaydigan muqobil variantni tanlash kerak. Bu vaziyatni quyidagi misol bilan izohlash mumkin.

Eng yaxshi muqobilni tanlash. Jadvalda berilganlar asosida talabning 1) past; 2) o'rta; 3) yuqori bo'lishi aniq bo'lsa, eng yaxshi muqobil variantni aniqlang.

Yechish:

1) Agar talab past bo'lsa, u holda 100 ming so'mlik kichik quvvatli ishlab chiqarishni tashkil qilish va uni realizatsiya qilish (sotish) o'zini eng ko'p oqlaydi.

2) Agar talab o'rtacha bo'lsa, u holda 120 ming so'mni tashkil etuvchi (100 yoki 20 ming so'mga nisbatan) o'rta quvvatli ishlab chiqarish o'zini eng ko'p qoplaydi.

3) Yuqori talab holatida yirik quvvatli ishlab chiqarish qzini ko'p oqlaydi.

Garchi qaror qabul qilishda aniq vaziyatlar kamdan kam uchrasa-da, hisob-kitoblarning bunday xili amaliyotda qo'llaniladi.

Noaniqlik shartida qaror qabul qilish. Qaror qabul qilish shartlarining qarama-qarshi varianti bu to‘liq noaniqlik ya’ni turli shart-sharoitlar ehtimoli to‘g‘risida mutlaqo hech qanday axborot yo‘q. Bu holatda qarorning 4 ta mezonni bo‘lishi mumkin: maksimal, maksimums Lappas va eng kam ziyon (zarar) mezonlari. Bu mezonlarni quyidagicha anqlash mumkin.

Maksimal (maximin) – har qaysi muqobil variant uchun o‘zini qoplashi eng minimal bo‘lishi mumkin bo‘lganini aniqlang va ular ichidan eng yaxshi qabilida muqobil variantni tanlang. Maksimums (maximax) – o‘zini qoplashi eng yaxshi bo‘lishi mumkin bo‘lgan muqobil variantlarni aniqlang va ular ichidan ham eng yaxshisini tanlang.

Lappas kriteriysi (mezon) (Laplace) – har qaysi muqobil variantning o‘rtacha o‘zini qoplashini aniqlang va eng yaxshi o‘rtacha muqobil variantni tanlang.

Eng kam ziyon (zarar) kriteriysi (mezon) (minimax regret) – har qaysi muqobil variantning ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yomon (minimal) natijalarni aniqlang va ular ichidan yaxshi natijali variantni tanlang.

Maksimin mezon o‘z mohiyatiga ko‘ra pessimistikdir, chunki har qaysi muqobil variant uchun mumkin bo‘lgan barcha natijalar ichidan faqat eng yomoni hisobga olinadi. Bunday yondoshuv, garchi, amaldagi natija u darajada yomon bo‘lmasa ham kafolatlangan minimumni belgilaydi.

Maksimums yondoshuv – bu optimalistik hujumkor strategiya: bu yerda eng yaxshi natijadan tashqari hech qaysi mumkin bo‘lgan natija hisobga olinmaydi.

Loplas kriteriysi holatlarga teng ehtimolli deb qarashni ko‘zlaydi.

Ushbu barcha kriteriyning (Laplas mezonlaridan boshqa) asosiy zaif tomoni shundaki, barcha natijalar emas, faqat eng yomonlari (minimallari) yoki aksincha, eng yaxshilari hisobga olinadi. Shuning uchun axborotlarning bir qismi yo‘qotiladi.

Laplas mezonlarining shundan iboratki, barcha shartlar teng ehtimolli deb hisoblanadi. Biroq aniq holatlarda ma’lum holatlarda ushbu usullardan har biri o‘zining qarorni ishlab chiqarishda yordam beradigan afzalliklariga ega bo‘ladi.

3- jadval berilganlaridan foydalanib

1) maksimalin; 2) maksimaks; 3) Laplas mezonlarilari bo‘yicha qaysi muqobil tanlanishini aniqlang.

Yechish:

1. Har qaysi muqobil varinatning eng yomon natijalari kichik quvvatli – 100 ming so‘m
o‘rta quvvatli – 70 ming so‘m;
katta quvvatli – 40 ming so‘m.

Yaxshi natija – 100 ming so‘m. Shu tariqa, maksimin usuliga ko‘ra kichik quvvatli ishlab chiqarishni tashkil etish kerak.

2. Eng yaxshi natijalar

kichik quvvatli – 100 ming so‘m
o‘rta quvvatli – 120 ming so‘m;
katta quvvatli – 160 ming so‘m.

Eng yaxshi umumiy natija – 160 ming so‘m. Shunday ekan, maksimalin usulini qo‘llaganda katta quvvatli ishlab chiqarishni tashkil qilish samaraliroqdir.

3. Laplas mezonlarini tanlab, har qaysi qator uchun qrtachasini hisoblang. Natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

Laplas mezonlari bo'yicha hisoblar natijalari

	Hamma qatorning yig'indisi, ming so'm	Har bir qatorning o'rtachasi, ming so'm
Kichik quvvatli	300	100,00
O'rta quvvatli	310	100,33
Katta quvvatli	140	46,66

Laplas nazariyasiga ko'ra eng ko'p ahamiyatini o'rta quvvatli ishlab chiqarish egallaydi, shuningdek, aynan u tanlanadi.

Tavakkalchilik shartida qaror qabul qilish. Aniqlik va noaniqlik orasida har bir shartning paydo bo'lish ehtimolligini baholash mumkin bo'lgan tovakkalchilikka asoslangan qaror qabul qilish holati mavjud bo'ladi.

Bunday holatlarda keng qo'llaniladigan yondoshuv kutilayotgan foyda mezonlaridir.

Kutilayotgan foyda har bir muqobil variant uchun hisoblanadi va shundan keyingina eng katta ko'rsatkichli muqobil variant tanlab olinadi. Kutilayotgan foyda har bir muqobil foydasining qiymatlari yig'indisini tashkil etadi, shu bilan birga har bir qiymat tegishli shart ehtimolligi nuqtayi-nazaridan taroziga solinadi.

Shu tarzda, kutilayotgan foyda mezonlarining ishlatib, har qaysi muqobil variantdan kelishi mo'ljallangan foyda qiymatini aniqlash, hamda eng katta qiymatli foyda keltiruvchi variantni tanlash mumkin.

Kutilayotgan foyda (K_p) mezonlaridan foydalanib, 4-jadval ma'lumotlari asosida quyidagi ehtimolliklarda eng yaxshi

muqobil varinatni aniqlang. Past talab -0,30; o'rta talab - 0,50; yuqori talab - 0,20

1. Har bir muqobil variantdan kutilayotgan foizni paydo bo'lishi mumkin bo'lgan har bir shart ehtimolligi ko'rsatkichini ushbu shartga to'g'ri keladigan foyda hajmi ko'rsatkichiga ko'paytirib keyin ularni qo'shib topish;

$$K_f^{\text{past}} = 0,30 \cdot 100 + 0,50 \cdot 100 + 0,20 \cdot 100 = 100 \text{ ming so'm;}$$

$$K_f^{\text{o'rta}} = 0,30 \cdot 70 + 0,50 \cdot 120 + 0,20 \cdot 120 = 105 \text{ ming so'm;}$$

$$K_f^{\text{yuqori}} = 0,30 \cdot (-40) + 0,50 \cdot 20 + 0,20 \cdot 160 = 30 \text{ ming so'm;}$$

Shunday qilib, o'rta quvvatli ishlab chiqarishga asoslangan muqobil variantni tanlash kerak, chunki ko'rsatkichi eng yuqori.

Bunday yondoshuv ko'proq oqlangan: Qaror qabul qiluvchi tavakkalga harakat qilmaydi. Lekin tavakkaldan qochmaydi, aksincha unga yondashadi.

Qarorlar daraxti. Atama o'z nomini daraxtsimon maksimal tuzilishidan olgan. Umuman, bunday chizmalarni (sxema) o'zini qoplash jadvali o'rniga ham ishlatish mumkin, ayniqsa ular ketma-ket qarorlar qabul qilish zarur bo'lgan vaziyatlarning tahlilida foydalidir. Masalan, avvalo kichik quvvatli ishlab chiqarish tanalanadi. Keyin talab kutilgandan yuqori ekanligi aniqlanadi. Bu holda menejerlarning 2 qarorni qabul qilishiga to'g'ri keladi: mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan yanada intensivroq foydalanish yoki qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini kiritish.

Qarorlar daraxti bir necha tarmoqlarga bo'linib ketgan qator tugunlardan tashkil topadi. Kvadratlar qaror qabul qilish punktlarini bildiradi, aylanalar esa bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni bildiradi. Daraxt chapdan o'ngga «qo'yladi» Kvadrat tugunlardan chiquvchi tarmoqlar muqobil

varinatlarini bildiradi; aylana tugunlardan chiquvchi tarmoqlar (tarqaluvchi) bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni bildiradi. (ya'ni bo'lishi mumkin bo'lgan shartlar).

Qarorlar daraxti qurib bo'lingach, o'ngdan chapga (quyidan yuqoriga) qarab tahlil qilinadi, ya'ni eng oxirgi qabul qilingan qarordan boshlash kerak. Har bir qaror uchun katta qaytim ko'rsatkichli muqobil variant tanlanadi (yoki eng kam harajatli). Agar qator qabul qilganingizdan so'ng bir necha mumkin bo'lgan hodisalar varianti paydo bo'ladigan bo'lsa, kutilayotgan ko'p foydali muqobil variantni tanlang (yoki kutilayotgan eng kam harajatlisini tanlang).

Qarorlar daraxtini tahlil qiling va maksimal foydaga ega bo'lish uchun qaysi muqobil variantni ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish yoki ularni ko'paytirishdan voz kechish tanlash kerakligini aniqlang.

Qarorlar realizatsiya qilinsa va ehtimolli hodisalar yuz bersa, kutilayotgan foyda rejalashtiriladi. Qarorni o'ngdan chapga tahlil qiling:

1) Har bir mumkin bo'lgan 2 qaror uchun muqobil variant tanlanishini aniqlang;

2) Mumkin bo'lgan imkoniyatlarning oxirgi parametrlarini va ularning qolgan tarmoqlarda o'zini qoplashligini aniqlang;

3) Har bir boshlang'ich muqobil variant uchun kutilayotgan foydani aniqlang.

Qaror qabul qilish ishlab chiqarish va operatsiyalarini boshqaruvining asosiy qismidir.

Qarorlar nazariyasi – bu qaror qabul qilishga umumiy yondoshuvdir. Qarorlar nazariyasi tasniflash mumkin bo'lgan turli usullarni o'z ichiga oladi. Hal qilinadigan muammolarni tahlili uchun ko'rgazmali grafik instrumentlari – turli grafik bog'liqlik turlari qarorlar daraxti va boshqalar mavjud.

Korxonalarining bozorga chiqishida texnologiyaning egri chizig‘i rivojlanish va o‘quv mashg‘ulotlari grafigi ko‘pincha strategik ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, korxonada o‘z o‘rnini tez zabt qilmoqchi bo‘lgan hollarda. Bozor ulushining ortishi qo‘shimcha ishlab chiqarish hajmini barpo qilishga, bir birlik mahsulotning tannarxini kichraytirishga va bu jarayonda qo‘shimcha raqobatbardosh hususiyatlarini orttirishga olib keladi.

Nazorat savollari

1. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati shakllarini sanab o‘ting.
2. Faoliyatni baholashda qaysi portfel matrisalardan foydalaniladi?
3. Portfel matritsalar nima?
4. Qaror qabul qilish jarayoni bosqichlarini aytib bering.
5. Qarorlar nazariyasi nima?
6. Qarorlar qabul qilishda qanaqa shartlar mavjud?
7. Qarorlar «daraxti»ni tushuntirib bering.

TAYANCH SO‘ZLAR VA ATAMALARNING IZOHLI LUG‘ATI

AKSIONERLIK JAMIYATLARI — mas’uliyati cheklangan firmalarning eng keng tarqalgan shakli bo‘lib, odatda ko‘proq foyda olish maqsadida moddiy, mehnat va pul resurslarini birlashtirgan uyushma hisoblanadi. Aksionerlik jamiyatlari ochiq va yopiq turda bo‘ladi. Ochiq turdagi aksionerlik jamiyatida aksiyalarni erkin sotib olish va sotish mumkin. Yopiq turdagi aksionerlik jamiyatida esa aksiyalar bir necha kishilar (korxonalar) ga tegishli bo‘lib, bozorda erkin sotib olinishi mumkin emas.

AMORTIZATSIYA — 1) Mashina, asbob-uskuna, bino va shu kabilarning eskirishiga qarab, ularning bahosini kamaytirib borish; ularning shu chegirilgan qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo‘shib borish. 2) alohida shaxsni yoki tashkilotni o‘z qarzini asta-sekin, bosqichma-bosqich to‘lash majburiyatidan qutulish; 3) qarz majburiyatining yo‘qotilishi, o‘chirilishi oqibatida uning bekor qilinganligini tan olish.

ASOSIY FONDLAR — ishlab chiqarish jarayonida bir necha yil davomida ishtirok etuvchi va o‘z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga qisman o‘tkazib boruvchi mehnat vositalaridir.

AYLANMA FONDLAR — xom ashyo materiallar, energetika resurslarida moddiylashgan va bir ishlab chiqarish siklida sarflanuvchi, o‘z qiymatini tayyorlangan mahsulotga to‘liq ko‘chiruvchi kapital.

AUDITOR — revizor-taftish o‘tkazuvchi, idoraning, tashkilotning, aksionerlik jamiyatining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshiruvchi, taftish o‘tkazuvchi shaxs.

BANK — yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini bir joyga to‘plovchi va uzluksiz aylanib turishini ta‘minlovchi, korxonalariga va umuman pulga muhtojlarga kredit, ssuda beruvchi, tomonlar o‘rtasida to‘lov va boshqa hisob-kitob ishlarida vositachilik qilib turuvchi, oltin va chet el valyutasi bilan bog‘liq operatsiyalarni bajaruvchi kredit-moliya muassasi. Bank pul qo‘yuvchilarga ma‘lum foiz to‘lab, qarz olganlardan yuqoriroq foiz stavkasini undiradi va ana shu foizlar o‘rtasidagi farq bank foydasi hisoblanadi.

BIZNES — (inglizcha business — ish, faoliyat, mashg‘ulot) boyluk, foyda orttirishga yo‘naltirilgan ish, faoliyat. Biznes xo‘jalik yuritish ko‘lamiga qarab yirik, o‘rta va mayda turlarga bo‘linadi. Xodimlarning o‘rtacha soni va mahsulot hajmiga qarab ajratiladi.

BIZNES REJA — bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning barcha sohalarida qo‘llanadigan muhim qurol bo‘lib hisoblanadi. Ish jarayoni haqida ma‘lumot beradi. Uning yordamida firma o‘sib borishi, istiqbolni belgilab borishi, daromadini ko‘paytirishi mumkin. BR o‘ta muhim moliyaviy hujjat sifatida firma faoliyatini barcha qirralarini tahlil qilishga yordam beradi. U nafaqat ichki hujjati bo‘lib, balki kredit olishi uchun zarur bo‘ladigan hujjatlardan biridir.

BOZOR IQTISODIYOTI — erkin tovar pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, aholini ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltirilgan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

BOZOR ISLOHOTLARI — xalq ishtirokida davlat tomonidan ishlab chiqilgan bozor munosabatlarini shakl-

lantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni davlat nazorati ostida amalga oshirishdan iborat.

BOZOR INFRATUZILMASI — sotuvchi va xaridor o‘rtasida bozor munosabatlari shakllanishini, rivojlanishini ta‘minlaydigan tashkilotlar, muassasalar, idoralar, korxonalar majmuasi. Uning tarkibiga savdo korxonalari, ta‘minot tashkilotlari, valyuta va qimmatbaho qog‘ozlar birjasi, transport, aloqa va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar kiradi.

BOZOR KONYUKTURASI — ayrim bozorlarda muayyan xolatlarning mavjudligi. Bozor konyunkturasi muayyan davrdagi bozor holati, bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan xarakterlanadi.

BYUDJET — (ingl. budget-sumka) — davlat, korxonalar, muassasa va shu kabilarniing ma‘lum muddat uchun oldindan belgilab qo‘yiladigan kirim-chiqim, daromad-buromad smetasi.

DAVLAT MULKI — jamiyatdagi mulkchilik shakllaridan biri. Davlat mulki ikki yo‘l bilan paydo bo‘ladi: 1) xususiy mol-mulknı milliyLashtirib davlat qo‘liga olish; 2) davlat mablag‘lari hisobidan korxonalar qurish.

DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQRISH — bu davlat mulkini mulkchilikning har xil mulk shakllariga aylantirish demakdir.

DAVLAT KORXONALARI — davlat mulki bo‘lgan va uning nazorati ostida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar hisoblanadi.

DAVLAT BYUDJETI — davlat tomonidan o‘z funksiyalarini amalga oshirish uchun sarflanadigan markazlashtirilgan pul fondi.

DIVIDEND — aksioner, aksiya egasining daromadi; aksionerlik jamiyati foydasining bir qismi.

DOTATSIYA — tashkilot, korxonalarga davlat tomonidan beriladigan yordam puli, moddiy yordam, qo‘shimcha to‘lov. Asosan, zararni qoplash va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi.

JAMOA MULKI — boyligni muayyan maqsad yo‘lida ayrim jamoalarga birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o‘zlashtirilishi.

JAHON BOZORI — xalqaro mehnat taqsimotiga asoslanuvchi iqtisodiy hamkorlikni xilma-xil shakllari bilan o‘zaro bog‘langan mamlakatlar o‘rtasidagi muntazam oldi-sotdi munosabatlari.

IJARA — (arab)-mustaqil xo‘jalik yuritish yoki boshqa biror faoliyatni amalga oshirish maqsadida yer, suv, korxon va boshqa mulkka egalik qilish hamda vaqtincha foydalanish uchun to‘lanadigan muayyan haq. I. mulkka egalik huquqini o‘zgartirmaydi.

IJTIMOIIY TO‘LOVLAR — moddiy jihatdan kam ta‘minlangan mamlakat fuqarolariga pul yoki natura shaklida yordam ko‘rsatish shaklidagi tizim hisoblanadi.

IJTIMOIIY SIYOSAT — daromadlarni taqsimlashda iqtisodiyot qatnashchilari o‘rtasida tengsizlik natijasida vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan davlatning chora tadbirlaridan iborat.

INVESTISIYA — (nem. *investition*, lat. *investere* — kiyin-tirmoq) — investor tomonidan biror bir faoliyatni amalga oshirish uchun kapital mablag‘larni, sarmoyalarni joriy qilish, foyda olish maqsadida sarf qilish. I. mamlakat ichida (ichki investitsiya) va xorijiy mamlakatlarda (tashqi investitsiya) amalga oshirilishi mumkin. Moliya I.si — qimmatbaho qog‘ozlarni xarid qilish, pul mablag‘larini jamg‘arish va boshqalarni, real I.- moddiy ishlab chiqarishga sarflangan sarmoyalarni o‘z ichiga oladi.

INVESTOR — kapital mablag‘ sarflayotgan davlat, tashkilot, korxonalar yoki shaxs.

INNOVATSIYA — yangilikni joriy qilish, fan-texnika yutuqlarini boshqarish va tashkil qilish sohasidagi yangiliklar majmuyi.

INFLYATSIYA — 1) muomaladagi qog‘oz pullar miqdorini taklif qilingan savdoga chiqarilgan tovar narxlarining yig‘indisidan ko‘payib ketishi; 2) qog‘oz pulning juda ko‘p chiqarilishi natijasida pulning qadrsizlanishi. Bunday holat xo‘jalik yuritish borasidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish davrida, mahsulot ishlab chiqarish kamaygan hollarda qo‘shimcha pul chop etish natijasida yuzaga keladi.

INFRATUZILMA — ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish shart-sharoitini ta‘minlovchi tarmoqlar majmuyi. Ishlab chiqarishni energiya bilan ta‘minlash, transport, aloqa, informatika va boshqalar ishlab chiqarish I. ni tashkil qiladi. Aholining turmush tarzini ta‘minlovchi uy-joy, sog‘liqni saqlash muassasalari, o‘quv yurtlari, fan va shu kabi sohalar ijtimoiy I. ni tashkil qiladi.

INQIROZ — 1) taraqqiyotning orqaga qaytishi, pasayishi, tanazzuli, regress, tushkunlik; 2) tugash, bitish. I. ga uchramoq (yoki yuz tutmoq), orqaga ketmoq, pasaymoq, tushkunlikka uchramoq.

ISLOHOT — turli ravishda o‘tkazilgan o‘zgarish: isloh qilish, reforma. Iqtisodiy I.- iqtisodni inqiroz holatidan chiqarish borasida o‘tkazilgan chora- tadbirlar.

ISHLAB CHIQUVCHI KUHLAR — ishchi kuchi yoki boshqacha aytganda, ma‘lum malakaga, tajribaga ega bo‘lgan kishilar hamda ishlab chiqarish vositalaridan tashkil topgan.

ISHLAB CHIQUVISH MUNOSABATLARI — hayotiy ne‘matlarning ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va

iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir.

ISHLAB CHIQRISH JARAYONI — jamiyat ixtiyoridagi barcha resurslardan foydalanib, jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratish.

ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI — tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishda qilinadigan barcha sarflardan iborat.

ISH HAQI — ishchi va xizmatchilarning mehnati miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan olinadigan ulushini puldagi ifodasidir.

ISHSIZLIK — aholi mehnatga yaroqli qismining o'ziga ish topa olmay qolishi, mehnat zahira armiyasiga aylanishi.

IQTISODIYOT — cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, insonlar uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berishga qaratilgan va chambarchas bog'liqlikda amal qiladigan faoliyatlar birligidir.

IQTISODIY SIYOSAT — hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish sohasidagi davlatning aniq maqsadga yo'naltirilgan tadbirlari tizimidan iborat.

IQTISODIY KATEGORIYALAR — jamiyat iqtisodiy hayotining asosiy va eng umumiy tomonlarini aks ettiruvchi mantiqiy tushunchalardir.

IQTISODIY QONUNLAR — iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi doimiy takrorlanib turadigan, barqaror aniq sabab-oqibat aloqalarini, ularning bog'liqligini ifodalovchi voqea-hodisalar.

IQTISODIY RESURLAR — tabiiy, insoniy, moddiy, moliyaviy va intellektual resurslardan iborat.

IQTISODIY SAMARADORLIK — cheklangan resurslardan unumli foydalanib, tovar va xizmatlarga bo‘lgan jamiyatning cheksiz talabini maksimal qondirishdir.

IQTISODIY O‘SISH — yalpi milliy mahsulot (sof milliy mahsulot, milliy daromad) yillik miqdorini mutloq o‘shidir.

IQTISODIYOTNI TARTIBLASH — bu davlatning undagi turli bo‘g‘inlar, soha va tarmoqlar faoliyatining bir-biriga bog‘lanishi va mos holda rivojlanib borishi masalasida amalga oshiradigan ma‘muriy va iqtisodiy chora-tadbirlari majmuyidan iborat.

KALKULATSIYA — mahsulotning o‘lchov birligini yoki bajarilgan ishning tannarxini hisoblash.

KAPITAL — (nem. *kapital* — asosiy mulk. lat. *capitalis-eng* muhim, asosiy bosh) — biror maqsadga yo‘naltirilishga mo‘ljallangan pul mablag‘i, boshlangich, doimiy, o‘zgaruvchan, asosiy va aylanma kapital kabi turlari mavjud. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilot, korxonalar, firma va boshqalarda ustav K. zahira K. aksionerlik jamiyati K. kabi turlari mavjud.

KICHIK BIZNES — bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o‘ziga mustaqil mayda korxonalarining daromad olish maqsadida amalga oshiradigan faoliyati.

KONSORSIUM — (lat. *consortium* — shirkat, uyushma)-korxonalarining vaqtincha tashkil etilgan birlashmalari, ular odatda moliyaviy ishlar yuzasidan tashkil etiladi. Unda davlat, banklar, moliyaviy muassasalar, yirik firmalar eshtirok etadi.

KONSERN — (ingl. *concern*) — ishlab chiqarish diversifikatsiyasi asosida tarkib topadigan yirik, ko‘p tarmoqli korporasiya. Ular asta-sekin sanoat monopoliyasining yetakchi shakliga aylanadi.

KO'P UKLADLI IQTISOD — turli mulk shakllari va har xil xo'jalik turlarining yaxlitligidan tashkil topgan iqtisodiyot.

LIZING — asosiy fondlarni uzoq muddatga ijaraga olish. Yangiliklarni, ishlab chiqarish va sotishni moliya bilan ta'minlash usuli. L. sanoat korxonalariga bir yo'la katta miqdorda pul sarf qilmasdan kerakli mahsulotlarni olish imkonini beradi. L. ikki ko'rinishda: moliyaviy va tezkor bo'ladi. Moliyaviy L. ijaraga olingan fondning to'la qiymatini va ijarachi foydasini qoplashni ko'zda tutadi. Tezkor L.- amortizatsiya davridan qisqa muddatga tuzilgan kelishuv.

MAKROIQTISODIYOT — bu mamlakat miqyosida moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.

MARKETING — (inglizcha — *market-bozor*) holatini o'rganish, uni oldindan baholash orqali tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda shu yo'l orqali tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish, eng yuqori foyda olishni ta'minlash. Maxsus M. dasturlari orqali amalga oshirilib, xaridorlarni va raqobatchilarni o'rganish asosida tovarlar sifatini yaxshilash, narxini o'zgartirish, reklamani joylashtirish, xaridorlarni qoniqtiradigan tovar va xizmatlarni yetkazib berish kabi chora-tadbirlar qo'llaniladi.

MENEJMENT — (inglizcha — *management*) u yoki bu faoliyat turini tashkil etish va rahbarlik qilishni, iqtisodiy, moliyani va boshqa inson hayotidagi ishbilarmonlik sohasini tashkil qilish va boshqarishni bildiradi.

MEHNAT — bu insonning biror bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyat bo'lib, u orqali inson o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun tabiat in'omlarini o'zgartiradi. Inson mehnati ikki yoqlama xarakterga ega: a) KONKRET

MEHNAT — tovarning iste'mol qiymatini yaratadigan, biron bir aniq ko'rinishga ega bo'lgan mehnat turi tushuniladi.

b) **ABSTRAKT MEHNAT** — tovar qiymatini yaratadi. «Abstrakt» (so'zi o'zbek tilida «mavhum» degan ma'noni bildiradi). Mehnat aniq shaklidan qat'iy nazar umuman sarflangan ish kuchidir, jami ijtimoiy mehnat sarfidan iborat bo'ladi.

MEHNAT BIRJASI — ishchi, xizmatchi va ish beruvchi o'rtasidagi ishchi kuchini sotish va sotib olish bo'yicha kelishuvni amalga oshirishda muntazam vositachi vazifasini o'taydigan, ishsizlar hisobini yuritadigan, ularni ish bilan ta'minlash, qayta o'qitish kabilar bilan shug'ullanuvchi davlat muassasasi.

MIKROIQTISODIYOT — korxonalar, firmalar, ya'ni iqtisodiyotni birlamchi, boshlang'ich bo'g'ini haqidagi iqtisodiyotdir. U cheklanganlik, tanlash va muqobil qiymat singari tushunchalar bilan, shuningdek ishlab chiqarish va iste'mollar bilan shug'ullanadi.

MILLIY IQTISODIYOT — bu barcha ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari va sohalarini, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga qamrab olgan yaxlit iqtisodiyotdir.

MILLIY VALYUTA — muayyan mamlakatning pul birligi.

MILLIY DAROMAD — muayyan mamlakatda bir yilda moddiy ishlab chiqarish sohalari tomonidan yangidan hosil qilingan qiymat yoki boshqacha qilib aytganda, yalpi ijtimoiy mahsulotning ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati chegirib tashlanganidan so'ng qolgan qismi. MD moddiy ne'matlar ishlab chiqariladigan sharoitlarda jonli mehnat vositasida yaratilib, ham qiymat — pul, ham moddiy — buyum shakliga ega bo'ladi.

MONOPOLIYA — 1) yakkahokimlik; 2) ishlab chiqarishni markazlashtirish oqibatida yuzaga keladigan katta birlashma (kartel, sindikat, trest, konsern, konsorsium konglomerat va shu kabilar). Ushbu birlashma o‘z ichiga ishlab chiqarishni, xizmat ko‘rsatishni, mahsulot sotishning ko‘p qismini mujassamlashtiradi, shu sohada o‘zini hukmron mavqeyini o‘rnatadi.

MULK — turli-tuman obyektlarning muayyan subyektga taalluqli ekanligini anglatadi.

MULKCHILIK — kishilar o‘rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat natijalarini o‘zlashtirish bo‘yicha paydo bo‘lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo‘luvchi iqtisodiy munosabatlar. M. ning asosiy bo‘g‘ini ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan mulkchilik. U uchta iqtisodiy unsur ya‘ni egalik qilish, foydalanish (ishlatish) va tasarruf etishni mujassamlashtiradi.

— Egalik qilish — mulkka rasmiy va huquqiy egalik qilishdir.

— Foydalanish (ishlatish) — mulk bo‘lgan boylikni iqtisodiy faoliyatda qo‘llab, xo‘jalik jarayoniga kiritib, undan natija olish.

— Tasarruf etish — mulk bo‘lgan boylik taqdirini mustaqil hal etish.

MULKCHILIK SHAKLLARI — bu davlat, jamoa, xususiy va aralash mulklardir.

NARX — baho — tovar qiymatining pulda aks etishi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat xo‘jalik mexanizmidagi amal qiluvchi iqtisodiy dastak. N. faqat tannarxga emas, balki talab va taklif, shuningdek tovarning ijtimoiy foydaliligi, sifati va boshqa tovarlar o‘rnini bosa olishi, muomaladagi pulning xarid qobiliyatiga ham bog‘liq.

NAFAQA — ijtimoiy madadga muhtoj barcha kishilarning moddiy ta'minoti.

NOTIJORAT TASHKILOTLAR — bu foyda olishni va uni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yagan muassasalardan iborat. M: jamoatchilik yoki diniy tashkilotlar, xayriya fondlari va hokazo. Odatda ixtiyoriylik asosida, yagona maqsad bilan ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida tashkil etiladi.

REKLAMA — (fr.*reclame*) — tovar yoki ko'rsatiladigan xizmat to'g'risidagi xolis axborot, ularni ko'proq sotish maqsadida xaridorlarga ularning xossalari, afzalliklari va sotib olish shartlarini yetkazish. R. maxsus firmalar orqali amalga oshiriladi va yuqori daromad manbai hisoblanadi.

RENTABELLIK — (nem.*rentabel* — foydali, daromadli) — foyda olish darajasi. R. ma'lum davr mobaynida olingan foyda miqdorining shu davrda sarflangan asosiy ishlab chiqarish fondlari va oborot vositalari qiymati yig'indisiga yoki mahsulotning ishlab chiqarish va sotish xarajatlari-tannarxga nisbati sifatida foizlarda hisoblanadi.

SANASIYA — davlat yoki yirik bank yordamida katta korxonalar va firmalar sinishining oldini olish chora-tadbirlari.

SOLIQLAR — davlatning korxonalar, tashkilotlar va aholidan undiradigan pul mablag'lari, milliy daromadni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot vazifalariga muvofiq taqsimlash va qayta taqsimlashni ta'minlovchi moliya mexanizmining muhim vositalaridan biri, davlat tomonidan tartibga solinadi.

SOF FOYDA — korxonalar moliyaviy faoliyati natijasida ko'rilgan daromaddan mahsulot tannarxi va soliqlar hisoblanganidan so'ng korxonalar ixtiyorida qoldirilgan foyda.

TABIIY RESURLAR UCHUN TO'LOV — yer, suv, qazilma boyliklaridan foydalanganlik uchun korxonalar

daromadidan davlat byudjetiga to'lanadigan to'lov, joriy normativlar bo'yicha belgilanadi. Ushbu mablag'lar, birinchi navbatda, tabiat muhofazasi tadbirlariga sarflanadi.

TADBIRKORLIK — amalda qabul qilingan qonunlar doirasida korxonalar, firma tashkil qilish, foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish (yoki xizmat ko'rsatish) bilan shug'ullanuvchi faoliyat. Tadbirkorlik faoliyati bir yoki bir necha xususiy va huquqiy shaxslar mulklarini yoki qarzga olgan mulk, to'lov vositalarini ishga solish orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining sohiblari: 1) respublika fuqarolari; 2) bir guruh fuqarolar (mehnat jamoalari va boshqalar); 3) chet ellik fuqarolar yoki xususiy shaxslar; 4) respublika fuqarosi bo'lmagan shaxslar (o'z vakolatlari doirasida); 5) qo'shma mulk egalari.

TADBIRKOR — iqtisodiy resurslarini bir-biriga qo'shishini ta'minlaydigan tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo'rqmaydigan kishilar. Bunday xislatlar tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi.

TARIF SETKASI — ish toifalari nisbatiga qarab ish haqi to'lash.

TARIF STAVKASI — tegishli ish toifasiga ega bo'lgan ishchining mehnatiga to'lanadigan haq miqdorini belgilab beradi.

ULGURJI BAHO — korxonalar yoki mol yetkazib beruvchilarning katta miqdordagi o'z mahsulotini boshqa korxonalar yoki tashkilotga ko'tarasiga sotadigan baholari.

FOYDA — 1) biror kimsa yoki narsa uchun bo'ladigan naf, manfaat; 2) daromadning xarajatga nisbatan farqidan tashkil topgan summa, mablag', daromad; 3) qarzga berilgan puldan foydalanilganligi uchun qarzdordan qarz beruvchi (kreditor) oladigan qo'shimcha pul, haq.

XOLDING — (ingl. *holding* — ega) — oʻzga firma, korxonaning nazorat paketini oʻzida ushlab turuvchi bosh kompaniya. X. qoʻl ostidagi kompaniyalarni rivojlantirib, daromadni koʻpaytirish bilan birgalikda oʻzi ham tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanadi. Huquqiy nuqtayi nazardan aksionerlik jamiyati, masʼuliyati cheklangan jamiyat yoki xususiy korxonalar sifatida harakat qiladi.

XUSUSIYLASHTIRISH — fuqarolarning va davlatga taalluqli boʻlmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obyektlarini yoki davlat aksionerlik jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishdir.

CHAKANA BAHO — davlat va kooperativ savdosi, dehqon bozorida isteʼmol mollarni sotilish narxlari.

ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR — qoʻshma tadbirkorlik hududlari, xorij kapitalini erkin amal qilishi uchun ajratilgan maxsus hudud, iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish maqsadida tashkil etiladi.

EKOLOGIK MUAMMOLAR — insoniyat hatti-harakatlari va xoʻjalik faoliyati natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zarar.

YALPI MILLIY MAHSULOT — (YaMM) maʼlum muddat (odatda bir yil) ichida mamlakatda ishlab chiqarilgan va bevosita isteʼmolchilarga tushadigan pirovard mahsulotlar va koʻrsatilgan xizmatlarning bozor baholaridagi summasidan iborat. Eng muhim va sintetik iqtisodiy koʻrsatkichlardan iborat boʻlib, oʻz tarkibiga mehnat vositalari sarflarini qoplash fondini (yaʼni renovatsiyaga ishlatiladigan amortizatsiya miqdorini) va milliy daromadni oladi. YaMM muayyan narxlarda ifodalanadi, unga narx tarkibiga kiruvchi bilvosita soliqlar va nomoddiy tarmoq koʻrsatgan xizmatning qiymati ham kiradi.

ADABIYOTLAR

1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O‘zbekiston, 2009.
2. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008- yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009- yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi, 2009- yil 14- fevral.
3. *E. Mahmudov.* «Korxonalar iqtisodiyoti» (o‘quv qo‘llanma) –T.: TDIU. 2004.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-2-jildlar.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2002-2005.
5. Промышленность Республики Узбекистан 2004 – 2009 гг. Статистические сборники.
6. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik. - T: O‘qituvchi 2001.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-2-jildlar.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2002-2005.
8. www.gov.uz. - Hukumat sayti.
9. www.press-service.uz. - Prezident sayti.
10. www.tsue.uz - Universitet sayti
11. www.stat.uz.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-mavzu. Fanning predmeti va mazmuni	6
1.1. Ishlab chiqarishni tashkil etish va iqtisodiyot fanining predmeti	6
1.2. Ishlab chiqarish iqtisodiyoti va uni tashkil etishning asosiy muammolari	8
2-mavzu. Korxonada ishlab chiqarishning asosiy bo'g'ini	10
2.1. Korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish	10
2.2. Korxonaning turlari va shakllari	12
2.3. Korxonalarni tasniflash	14
2.4. Korxonada tuzilmasi	16
3-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni va uning tarkibi	19
3.1. Ishlab chiqarish jarayoni va uning tarkibi	19
3.2. Ishlab chiqarish jarayonining tasnifi	20
4-mavzu. Korxonani axborot bilan ta'minlash	25
4.1. Axborotlar va ularning turlari	25
4.2. Axborot tizimi	26
5-mavzu. Korxonada boshqarish va mehnatni tashkil etish	29
5.1. Korxonada boshqaruvning asoslari	29
5.2. Boshqarishni tashkil qilishning subyektlari va obyektlari	31
6-mavzu. Ilmiy texnik taraqqiyot, texnikaviy tayyorgarlik va ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish	38
6.1. Ilmiy-texnik taraqqiyot-ishlab chiqarishni rivojlantirish va jadallashtirishning asosi	38
6.2. Ilmiy-texnik taraqqiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	39
6.3. Fan-texnika taraqqiyoti samaradorligi	40
7-mavzu. Ishlab chiqarishning tashkiliy-ijtimoiy shakllari	42
7.1. Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari	42
7.2. Ishlab chiqarishni konsratsiyalash	43
7.3. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish	45
7.4. Ishlab chiqarishni kooperatsiyalash	47
7.5. Ishlab chiqarishni kombinatsiyalash	49

8-mavzu. Ishlab chiqarish resurslari va ulardan samarali foydalanish	52
8.1. Resurslar va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish	52
8.2. Tabiiy resurslar va ularning turlari	53
9-mavzu. Ishlab chiqarishni rejalashtirish va nazorat qilish	57
9.1. Rejalashtirish va bashoratlash bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir	57
9.2. Rejalashtirish uslubiyati va turlari	59
9.3. Korxonada rejalashtirish jarayoni	63
9.4. Biznes reja tuzish	65
10-mavzu. Mahsulotni ishlab chiqarish va sifatini oshirish	68
10.1. Mahsulot sifati tushunchasi	68
10.2. Mahsulotni standartlashtirish	69
10.3. Mahsulot sifatini oshirishning samarasi	72
11-mavzu. Ishlab chiqarish quvvati va uning korxonada faoliyatini samarali tashkil etishdagi roli	74
11.1. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi	74
11.2. Asosiy fondlarni baholash	77
11.3. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiasasi	78
11.4. Asosiy fondlardan foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari	82
11.5. Ishlab chiqarish quvvati va undan foydalanishni sxemalari	83
12-mavzu. Korxonaning aylanma mablag'lari	86
12.1. Aylanma mablag'lar tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxonada faoliyatidagi ahamiyati	86
12.2. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari	90
13-mavzu. Korxonada ishchilariga ish haqi to'lash	93
13.1. Ish haqining iqtisodiy mazmuni	93
13.2. Ish haqining shakllari va turlari	95
13.3. Ish haqi darajasini tabaqalashtirish	97
14-mavzu. Ishlab chiqarishda xarajatlar, foyda va daromadlilik darajasi	99
14.1. Iqtisodiy xarajatlar tushunchasi va uning tarkibi	99
14.2. Korxonada faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari	101
14.3. Foyda va rentabellik	105
14.4. Rentabellik mohiyati	109
15-mavzu. Soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va obyektiv zarurligi	113
15.1. Davlat soliq tizimi	113

15.2. Soliqlarni tasniflash	116
15.3. Soliqlar funksiyasi	118
16-mavzu. Korxonaning tijorat siri va bankrotlik holati	121
16.1. Korxonada mustaqilligi va tijorat siri	121
16.2. Korxonaning bankrotlik holati	123
16.3. Iqtisodiy nochor korxonalarini sanatsiyalash	125
17- mavzu. Ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi	131
17.1. Samaradorlik korxonada ishlab chiqarish faoliyatida muhim o'lov birligidir	131
17.2. Xo'jalik yuritish samaradorligining mezon va ko'rsatkichlari	134
17.3. Korxonada faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari va omillari	141
18- mavzu. Korxonada kadrlarining salohiyati va siyosati	148
18.1. Korxonada kadrlarining salohiyati	148
18.2. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosati	153
19- mavzu. Ishlab chiqarishda integratsion tashkil topish	158
19.1. Integratsion yechimlarni belgilovchi omillar	158
19.2. Tashkil topishning integratsion turlari	162
19.2.1. Strategik hamkorlik turlarining tasnifi	163
19.3. Hamkorlikni boshqarish va tashkil qilish	165
20- mavzu. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish	167
20.1. Ishlab chiqarish va marketing qarorlari	167
20.2. Ishlab chiqarish qarorlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi tovar va xizmatlarga talab omillari	169
20.3. Qarorlar qabul qilishda modellardan foydalanish	170
20.4. Talab va texnologiyaning egri hayotiy jarayoni bosqichlari	175
21- mavzu. Korxonada faoliyati turlarining tahlili va shakllanishi	177
21.1. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati shakllari	177
21.2. Qaror qabul qilish jarayoni	179
21.3. Qarorlar nazariyasi. Muqobil variantlarni tanlash va baholash	182
<i>Tayanch so'zlar va atamalarining izohli lug'ati</i>	<i>191</i>
<i>Adabiyotlar</i>	<i>204</i>

**Bakiyev Abdushukur Raximovich,
Xashimova Salima Nigmatullayevna,
Bakiyeva Iroda Abdushukurovna**

**ISHLAB CHIQARISHNI
TASHKIL QILISH VA
IQTISODIYOT**

O'quv qo'llanma

*Muharrir: M. Po'latov
Texnik muharrir: M. Alimov
Badiiy muharrir: M. Odilov
Kompyuterda sahifalovchi: S. Po'latov*

Bosishga ruxsat etildi 08.11.2010. Bichimi 60x84¹/₁₆.
«Times TAD» garniturasini. Bosma tabog'i 13,0. Adadi 224 nusxa.
Buyurtma №71.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI» bosmaxonasi
100000, Toshkent, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy.